3	"Avesto" va boshqa diniy e`tiqodlar bilan bog`liq qanday tarixiy atamalarni bilasiz?
4	Qadimgi davrga oid siyosiy atamalarning ma`no va mohiyati borasida nimalarni bilasiz?
5	Qadimgi tarixning diniy-falsafiy atamalari tarix fanini yoritishda qanday ahamiyatga ega?
6	Qadimgi tarixning ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan bog`liq atamalar tarix fanini yoritishda qanday ahamiyatga ega?
7	Islom dini va an`analari bilan bog`liq atamalarning o`zbek halqi tarixidagi o`rni qay darajada edi?
8	Toxiriylar, Safforiylar davriga oid siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy atamalar nimalardan iborat?
9	O`rta asrlar davridagi davlat boshqaruvi bilan bog`liq atamalarning tarix fanini o`rganishdagi ahamiyatiga doir nimalar deya olasiz?
10	O`rta asrlar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy tizim bilan bog`liq atamalarning tarix fanini o`rganishdagi ahamiyatiga doir nimalar deya olasiz?
11	O`rta asrlar davridagi soliq tizimi bilan bog`liq atamalarning tarix fanini o`rganishdagi ahamiyatiga doir nimalar deya olasiz?
12	O`rta asrlar Yevropasida iqtisodiy mavzudagi atamalarning ahamiyati qay darajada?
13	O`rta asrlar Yevropasida harbiy mavzudagi atamalarning boshqa mamlakatlarga tarqalishi va ularning xalqaro atamalarga aylanib borishi borasida nimalar deya olasiz?
14	O`rta asrlar Yevropasida siyosiy mavzudagi atamalarning vujudga kelishi borasida nimalar deya olasiz?
15	Xonliklarning ma`muriy boshqaruv tizimi bilan bog`liq tarixiy atamalar o`zbek halqi tarixini o`rganishda qanday ahamiyatga ega?
16	Yangi va eng yangi davrda vujudga kelgan iqtisodiy atamalarning ahamiyati qay darajada?
17	Yangi va eng yangi davrda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy atamalarning ahamiyati qay darajada?
18	Diplomatiyaga oid tarixiy va zamonaviy atamalarning dunyo miqyosida keng tarqalishiga sabab nimada?
19	Mustaqillikning qo`lga kiritilishi va e`lon qilinishi to`g`risida nimalar deya olasiz?
20	Mustaqillik davrida tarixiy atamalarning tiklanishi borasida qanday ishlar amalgam oshirilmoqda?


**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
TARIX FAKUL`TETI  
O`ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI**

**TARIXIY  
ATAMASHUNOSLIK**

**Fanidan**

**MA`RUZALAR MATNI**



**Namangan – 2008 yil.**

## Soʻz boshi

*Oʻz tarixini bilgan va undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib boʻlmas ekan, biz xalqimizni ana shunday tarix bilan qurollantirishimiz zarur.*

*(I. Karimov)*

Tarixiy atamashunoslik fani tarix fanining qadimgi davridan to hozirgi kungacha boʻlgan davr oraliqʻidagi tarixiy atamalarni oʻz ichiga oladi. Tarixiy atamalarning maʼnosi yillar oʻtishi bilan oʻtmishning maʼlum davriga xos holda oʻzgargani tez-tez kuzatib turilgan. Atamalarni maxsus fan terminologiya (atamashunoslik) oʻrganadi. Ularning tarixga bogʻliq tomonlarini esa tarixiy atamashunoslik (yoki tarix atamashunosligi) oʻrganadi. Turli mamlakatlarda jamiyat va tsivilizatsiyalar rivojining turli bosqichlarida kishilik jamiyat hayotining yangi yoki oʻzgaruvchan boʻlsa shu mintaqa yoki mamlakatga xos tildagi tatamalar shunchalik koʻp tarqalgan. Keyinchalik ular xalqaro atamalarga aylanib borgan. Hozir (baʼzan oʻtmishda ham) ularni turli mamlakatlarda maʼlum bir yoki aynan bir xil hodisalarni anglatuvchi atamalar sifatida qoʻllashmoqdaki, ular xalqaro leksikaga kiritilgan. Tarix fanidagi atamalarni oʻrganishdja Gʻarb va SHarq mamlakatlari tarixi ularni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid, qadimgi dunyo, oʻrta asrlar, yangi va eng va yangi tarixga oid hodisalarni izohlovchi atamalarning kelib chiqishini yoritib berish asosiy maqsadimizdir.

### **1–mavzu. Kirish. Qadimgi dunyo tarixining tarixiy atamalari.**

**Maqsad:** Talabalarga atamashunoslik tushunchasi va atamalarning shakllanishi jarayonini tushuntirish. Qadimgi va ilk oʻrta asrlarda Oʻrta Osiyo hududida muomalada qoʻllanilgan diniy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va sanʼatga oid tarixiy atamalar haqida maʼlumot berish.

#### **Reja:**

- 1. Atamashunoslik tushunchasi va atamalar shakllanishi.**
- 2. Oʻrta Osiyo hududida qadimgi davrlardagi atamalar** (*Qadimgi davlatlar, Amoniyalar davlati, yunon—makedon istilosi, Salavkiylar davlati, YUnon—Baqtriya podsholigi, Qangʻ, Kushon podsholigi va boshqalar*).
- 3. Ilk oʻrta asrlar davridagi tarixiy atamalar (arablar bosqinigacha).**
- 4. Qadimgi tarixning diniy atamalari.**
- 5. Ijtimoiy—iqtisodiy mavzudagi tarixiy atamalar.**
- 6. Madaniyat, sanʼatga oid tarixiy atamalar.**

### **Atamashunoslik tushunchasi va atamalar shakllanishi.**

Atama soʻzi (termin — «**terminus**») — **marza, chegara** soʻzlaridan olingan. Qadimgi Rimda Termin xudosi boʻlib, u marzali toshda turgan. YU piter ibodatxonasida yaʼni Kapitoliyda saqlangan.

Zamonaviy maʼnoda **atama** — soʻz yoki soʻz, birikmasi boʻlib, ijtimoiy — siyosiy shayotdagi, fan, texnika va sanʼatdagi biror bir maʼnoni, tushunchani anglatadi.

Oddiy soʻzlardan farq qilib atamalar, oʻzining aniq semantik chegaralariga ega. Atamalar hamma vaqt ham oʻz maʼnosini anglatavermaydi. Har qanday ilmiy va texnik sohada koʻp miqdordagi omonim — atamalar va sinonim — atamalar mavjud. Bu esa maʼlum maʼnoda noqulayliklar tugʻdiradi. SHuning uchun ham fan va texnikadagi atamalarning tartiblash ishlari bu yoʻldagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Ijtimoiy — siyosiy, ilmiy va texnik atamalar hozirgi kunda bir tildan boshqa tilga oʻtib xalqaro leksik fond tarkibiga kirmoqda.

Atamalar ulkan ilmiy ahamiyatga ega. Tabiat va jamiyatdagi mavjud xodisani oʻrganish uchun uning aniq nomini bilish talab qilinadi. Bunda atama tushunchani izozhlabgina qolmay, uni bir—biriga yaqin boʻlgan soʻzlardan farqlaydi.

Atamalarning paydo boʻlishidagi bir yoʻl — bu unga muhim atamashunoslik ahamiyatini berish sanaladi. Koʻp hollarda atama umum adabiy tildan hosil boʻlgan holda omonim boʻlib qoladi va oʻz manbasiga nisbatan maʼlum maʼnoda yoki umuman aloqasini uzadi (Masalan, «operatsiya» — jarrohlik operatsiyasi yoki bank operatsiyasi, «polotno» — temir yoʻl polotnosi yoki matoli polotno).

Koʻp hollarda atama lugʻat tarkibidagi soʻzlardan soʻz qoʻshish yoʻli bilan yasaladi (chang yutgich, toʻrt yulduz) yoki qoʻshma soʻz yasash bilan yasaladi (temir yoʻl, toʻgʻri burchak).

Atamalar yasashda koʻpincha lotin va yunon tili elementlaridan foydalaniladi. (Masalan, «termometr»—yunoncha issiqlik va oʻlchayman soʻzidan olingan, «ekvivalent»—lotincha quus—toʻgʻri, valens (valent— oʻzak) — kuchli, qimmatli).

Baʼzi hollarda atamalar turli tillardan kalʼkalash yoʻli bilan hosil boʻladi. (Taqqoslash uchun «besh yillik reja» nemis tilida Funfens plan, frantsuz tilida plan quin quennal, ingliz tilida five years' plan).

Kalʼka — soʻz yoki ibora boʻlib shu soʻz zamirida yoki boshqa tildagi talaffuzidan kelib chiqib ona tiliga oʻgirilishi tushuniladi. Soʻzlarni kalʼkalaganda

aniq morfologik tasavvur hosil bo`ladi. (Masalan, XVIII asrda ruscha «so—sredotochit'» so`zi morfemali tarjima qilish yo`li bilan). Kal`ka yo`li bilan ba`zan xorijiy tillardagi butun konstruktsiyalar o`sha tildan aynan shunday tarjima qilinadi. (Masalan, "vaqtni yo`qotmoq" frantsuzcha «tuer le temps», inglizcha «kill the time», nemischa «die Zeit totschalgen»). Ruschadan besh yillik plan, sotsialistik musobaqa kabi so`zlar bevosita kal`kalash yo`li bilan zamonaviy tilimizga ko`chgan.

Atamashunoslik (terminologiya) so`zi lotincha «terminus» — termin va yunoncha «logos» — so`z farqlayman kabi so`zlaridan olingan.

Tarixiy atamalarning asosiy manbalariga to`xtaladigan bo`lsak, avvalo antik falsafaning rivojlanishi bilan (Aristoteldan boshlab) ilk bor falsafiy atamalar yunon tilida paydo bo`lishiga e`tibor berishimiz kerak. Keyinroq, lotin tilida ijod qilgan Terentsiy Varron, TSitseron, Kvintilman va boshqalarning xizmati bilan V asrda atamashunoslik to`la shakllanadi (Martsian Kapella va Boetsiy esdaliklarida). Keyinroq atamashunoslik roman, german, slav`yan va boshqa tillariga ko`chdi.

Islom dini tarqalgan mamlakatlarda hunarmandchilikning o`shishi, san`at, savdo aloqalari va fanning rivojlanishi bilan san`at, savdo, ximiya, matematika, astronomiya, geografiyaga oid atamalarning arab tilida ko`chishini ta`minlandi. Bular keyinroq hind—Yevropa tillariga ko`chdi (Masalan, tara, tarif, al`kogol, alizarin, azimut, nodir, musson).

**Tarif** — olinadigan yoki to`lanadigan xaq—baholar ko`rsatkichi, baho. Imtiyozli tarif, pochta tarifi, tarif jadvali.

**Alizarin** — ruyan o`simligi ildizidan olinadigan yoki sun`iy yo`l bilan tayyorlanadigan bo`yoq modda.

**Al`kogol** — molekulari tarkibiga kislorod va vodorod atomlari guruhi kiritadigan birikmalar, spirtlar.

Uyg`onish davri (XIV — XVI asrlar)da ilmiy va falsafiy dunyoqarashning o`shishi, iqtisodning yuksalishi avval lotin, keyin yunon tilidagi atamalarning ko`payishiga olib keldi.

Lotin tili o`rta asrlarda G`arbiy Yevropa mamlakatlari uchun ilm va maorif sohasida xalqaro til bo`lib o`z ahamiyatini to XVII — XVIII asrlargacha saqlab keldi. Hozirda meditsina, ximiya, biologiya, zoologiya, botanika, geologiya,

paleontologiya, matematika, fizika, falsafa, ijtimoiy — tarixiy fanlar, siyosat, san`at va texnikada lotin va yunon tilining leksik elementlari saqlanib qolgan.

Uyg'onish davridagi Italiya san`ati Yevropaning boshqa hududlariga ital'yan tilining yoyilishiga olib keldi. Ital'yan atamashunosligidagi musiqa, teatr, me'morchilik, san`at, dengiz va harbiy san`at, bank ishidagi atamalar boshqa tillarga ko`chdi (Masalan, soprano, kantilena, batal'on, soldat, sal'do va boshqalar).

XVII — XVIII asrdagi xalqaro leksikaga golland tilidagi dengiz va kemasozlik atamalari kirib keldi (Ver'f, dok va xokazo). Bu esa o'sha davrda Gollandiyaning dengiz va kemasozlikda mashxur bo'lganidan dalolat beradi. Harbiy atamalar frantsuzchadan (mina, garnizon, sapyor), nemischadan (shtab, lager, plan) inglizchadan (miting, lider, import, eksport, sport, boks) kabi so'zlar kirib keldi. XX asrda texnik so'zlardan blyuming, kryoking, tank kabi so'zlar kirib keldi. Oktyabr to'ntarishidan so'ng kolxoz, sovxoz, bol'shevik, sovet kabi yangi ruscha atamalar kirib keldi.

### **O`rta Osiyo hududida qadimgi davrlardagi atamalar.**

O`rta Osiyo, shu jumladan, O`zbekiston ulkan tarixiy o`tmishga ega. O`lkamiz ushbu tarixni o`z ajdodlari qo`li bilan uzoq ming yilliklar davomida yaratdiki, bu esa uning insoniyatning paydo bo`lib o`z tsivilizatsiyaviy hudud barpo etganidan dalolat beradi.

O`rta Osiyoning ilk davlatlarida tarixiy atamalar og`zaki nutqning shakllanishi hamda Qadimgi xorazm, so`g`d, baqtriya hamda turkiy tilning kelib chiqishi bilan shakllandi. O`rta Osiyo hududida tarixiy atamalarning shakllanishida forsiy (Eron) atamalar ham ta`sir etgan. Bundan tashqari VIII —IX asrlarda arab tilidan o`zlashgan atamalar, garchi ular O`rta Osiyo atamashunosligida etakchi, aniqlovchi o`rin egallamagan bo`lsa ham keng qo`llanib kelingan. Ba`zi atamalarning paydo bo`lishi O`rta Osiyoga XVI — XVII asrlarda ko`chmanchi o`zbeklarning kirib kelishi bilan bog`liqdir. Avvalo O`rta Osiyo hududida qadimgi davrlardagi atamalarga to`xtalsak.

Mil. av.gi IX — VIII asrlarda O`zbekiston hududida ilk temir asriga o`tish boshlangan.

Temirning xo`jalikda keng qo`llanishi natijasida hunarmandchilik, savdo taraqqiy etib, ilk shaharlar, davlatlar vujudga kelgan. Davlatlar vujudga kelishi mil. av.gi VII — VI asrlarga to`g`ri keladi. Bu davrda O`zbekiston hududida so`g`diylar,

baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massaget kabi elatlar yashaganlar. Zarafshon va Qashqadaryo vodiysida dehqonchilik bilan shug'ullangan ko'plab aholi istiqomat qilgan. YOzma manbalarda bu hudud So'g'da («Avesto»da), Sug'uda (Bexistun yozuvlarida), Arrian, Kurtsiy Ruf, Strabon asarlarida Sug'diyona deb nomlangan.

Bu hududda yashagan aholi so'g'diylar deb atalgan. Ularning o'z yozuvlari hamda tili ham mavjud bo'lgan.

**So'g'd yozuvi** — miloddan oddingi ming yillikning oxirlarida oromiy alifbosidan ajralib chiqqan. Arab yozuvi singari o'ngdan chapga qarab yozilgan va o'qilgan. Qadimgi manbalarda so'g'd alifbosida 25 xarf mavjudligi ta'kidlangan, biroq turli joylardan topilgan so'g'd yozuvi yodgorliklarida xarflarning umumiy sonida farqlar bor. So'g'd yozuvining milodning boshlariga oid qadimgi na'munasi Samarqand yaqinidagi Toli barzu degan joydan topilgan.

Amudaryoning quyi oqimida yashagan o'troq dehqon elatlari xorazmliklarning yurti Xvariazm («Avesto»da), Xvarizmish (Bexistun yozuvlarida), Xorasmiya (Arrian, Strabon) asarlarida yozib qoldirilgan.

So'g'diylarning eng yaqin qo'shnilari baqtriyaliklar bo'lib, ularning yurti Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoli, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan. YOzma manbalarda u Baxdi («Avesto»da), Baqtrish (Bexistun yozuvlarida) deb nomlangan. YUnon–rim mualliflarining asarlarida Baqtriana yoki Baqtriya deb atalgan

**Massagetlar** – Kaspiyorti va Orol dengizi yaqinida va Sirdaryoning quyi oqimida mil. av. VI – IV asrlarda yashagan qabilalar guruhining umumiy nomi. Massagetlar haqida fanda xar xil qarashlar mavjud. Ayrim olimlarning fikricha, Massagetlar nomi «muso» — «baliq» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «baliqxo'rlar» ma'nosini bildiradi. Keyingi tekshirishlar natijasida massagetlarning «mae», «saka» va «ta» so'zlaridan iborat bo'lganligi va saklarning katta uyushmasi degan ma'noni bildirishi aniqlangan. YUnon tarixchisi Gerodotning ta'riflashicha, massagetlar piyoda va otda jang qilganlar, otlarning ko'kraklariga sovut kiydirganlar. Massagetlar o'z podshosi To'maris boshchiligida eron bosqinchilariga qarshi kurashganlar. Mil. av.gi VI asrda ular o'z erlarini boshqa qabilalar xujumidan himoya qilish maqsadida harbiy qabila ittifoqiga birlashganlar.

**Saklar** — milodan avvalgi I ming yillik va milodning boshlarida O`rta Osiyo va SHarqiy Turkistonning shimoliy — SHarqiy hududlarida yashagan chorvador qabilalar. Qadimgi fors manbalarida saklar uch guruhga bo`linganligi ko`rsatilgan:

- 1) saka — xaumovarka;
- 2) saka — tigraxauda;
- 3) saka — tiaytaradarayya.

Saklar forslar armiyasi tarkibida yunon—fors urushlarida qatnashgan. Aleksandr Makedonskiy, so`ngra salavkiylar o`zlarining O`rta Osiyodagi mulklariga xavf solgan saklarga qarshi kurash olib borganligi manbalarda qayd qilingan. Mil. avv. II asr o`rtalarida saklar boshqa ko`chmanchi qabilalar bilan birga Parfiya podsholigi erlariga bostirib kirganlar. Ammo ular qattiq qarshilikka uchrab Darang`iyonga siqib chiqarilgan. Saklar Darang`iyonada o`troq joylashganligi uchun unga Sakiston, ya`ni Saklar mamlakati deb nom berilgan.

**Day** — mil. av.gi V — IV asrlarda Sirdaryoning quyi oqimlari atrofida yashagan sak (shak) qabilalaridan ayrim manbalarda ularning daxlar, toxarlar deb ham atashgan. Spitamen Iskandarga qarshi kurashish uchun oxirgi marotaba day qabilasidan qo`shin to`plagan. Mil. av.gi IV asr oxiri — III asr boshlarida Sirdaryoning o`rta va quyi oqimida yashagan saklarning Qang` davlati vujudga keldi. Keyinchalik daylarning Qang` davlatiga kirgan qavmlar ittifoqi siqib kirishga majbur bo`lishgan. Mil. av.gi 250 yilda daylar mahalliy Baqtriya aholisi bilan birgalikda Baqtriyani salavkiylardan ajratib oldilar va yangi davlatta asos soldilar. SHundan so`ng bu o`lkaning nomi Toxariston deb atala boshlagan.

O`rta Osiyodagi davlat birlashmalari shakllanmasdan oldingi davr **harbiy demokratiya** — davlatga o`tish davrining boshqaruv shakli bo`lib, uni harbiy qabila boshliqlari boshqarganlar «**Avesto**» jamiyatining asosini katta patriarxal oila tashkil etgan. U «**nmana**» deb atalgan. SHunday bir necha urug` jamoasi «**v i s**» deb atalgan. «**Varzana**» deb esa hududiy qo`shnichilik jamoasining, qabilalar jamoasi esa — «**zantu**»ni tashkil qilgan.

YUqoridagi qabilalarning barchasi **etnik jamoani** — tili, urf — odati, diniy e`tiqodi jixatdan uyushgan kishilar guruhini tashkil etgan. etnos — yunon tilida «**xalq**» degan ma`noni anglatadi.

Mil. av.gi 1 ming yillikning birinchi yarmida O`rta Osiyoda Zardo`shtiylik dini keng tarqaldi. Zardo`shtiylik diniga ko`ra olov (quyosh), er, suv, havo muqaddas sanalgan Zardo`shtiylik dinini aschisi Zardo`sht (turli tillarda Zaratushra, Zorast, Zardo`sht) ismidan olingan. Uning tug`ilgan yili noma`lum. Mil. av.gi I ming yillikning birinchi choragida yashagan. U biz o`z ta`limotini Xorazm yoki Baqtriyada targ`ib qilgan. U 77 yoshida dushmanlari qo`lida xalok bo`lgan Keyinroq Yevropada bu din targ`ibotchisini Zoroastr (yunoncha «**astron**»—**yulduz**) deb atay boshlaganlar, chunki YUnonistonda uni alloma — munajjim tarzida ardoqlaganlar. SHu nomdan kelib chiqib, uning ta`limotini zoroastrizm deb yuritganlar.

**Munajjim** — osmon yoritkichlarining vaziyatlarini kuzatuvchi shaxs. Bu so`z arab tilidan olingan. Zardo`sht 40 yoshida yangi diniy ta`limot payg`ambari bo`ladi. «**Payg`ambar**» so`zi «**savobli ishlar xabarchisi**» degan ma`noni anglatadi.

Zardo`shtiyning g`oyalari mil. av.gi IV asrda to`planib 21 kitob qilinadi. Ular «**Avesto**»ning asosini tashkil etgan. Matnlarda yozilgan tafsiflar «**Zand**» deb ataladi. «**Katta Avesto**»dan ayrim muhim oyatlar tanlab olinib, Xorazm, Baqtriya, Margiyona va So`tdiyona xaqida qimmatli ma`lumotlar mavjud.

**Ahuramazda** — Zardo`shtiylik xudosi bo`lib, yorug`lik, obodonlik, farovonlik, salomatlik kabi hamma ezguliklarni yaratuvchi va boshqaruvchi xudo sifatida ifodalangan.

**Ahriman** — zulmat, qorong`ulik, ochlik, vabo, sovuq, zaxarli jonivorlarni yaratuvchi va boshqaruvchi yovuzliklar xudosi.

Zardo`shtiylik urf—odatiga ko`ra o`lgan kishi dafn qilinmagan. Jasadni qushlarga em bo`lishi uchun maxsus baland joyga quyilgan. Suyaklari tozalanib, qushlarga em bo`lishi uchun maxsus idish «**ossuariy**» — «**suyakdon, ostadon**»larda saqlaganlar. Ular **nous** deb ataluvchi maxsus binolarga qo`yilgan.

**Ahamoniylar** — mil. av.gi 558—330 yillarda eronda hukmronlik qilgan sulola. Ahamoniylar sulolasiga mil. av.gi VIII asrda elam yaqinidagi Parsa hududida yashagan qadimgi fors qabilalarining boshlig`i Ahmon asos solgan. Kir I davrida O`rta Osiyo hududlari ham Ahamoniylar sulolasiga bo`ysundirilgan. Uning davrida Qadimgi SHarqning katta qismi o`z hukmronligiga bo`ysundiriladi va Ahamoniylarning buyuk imperiyasi tuziladi Ahamoniylar sulolasi vakillari: Ahmon (Xaxomanshi), CHish-pish, Kir I, Kambiz I, Kir II, Kambiz II, Doro I, Kserks I,

Ortokseroks I, Kserks II, Sekudian II, Doro II, Ortokerks II, Ortokerks III, Arses, Doro III.

Gerodotning yozishicha, Ahamoniylar bosib olgan hududlarni satrapliklarga bo`lib idora qilganlar. Ularning soni 20 ta bo`lgan. O`rta Osiyo hududi esa uchta satraplikka bo`lingan.

**Satraplik** — Ahamoniylar, salavkiylar, Parfiya va sosoniylar davlatlaridagi ma`muriy — hududiy tuzilma. Forscha «**Xshatra**» — «**viloyat**» so`zidan kelib chiqqan. Har bir satraplik belgilangan miqdorda soliq to`lashga majbur bo`lgan.

**Satrap** — viloyat boshlig`i bo`lib, u cheklanmagan vakolatlarga ega edi. Mil. av.gi IV asrning oxirlarida O`rta Osiyoga Aleksandr Makedonskiyning yurishi boshlanadi. Bu davrda O`rta Osiyo xalqlarining harbiy san`ati yuqori darajada bo`lgan. Xanjar «**akg`ainak**» atalgan, jangovor bolta «**sagiris**» deb nomlangan.

**Spitamén** — O`rta Osiyoning yirik qo`mondoni va Makedonskiyga qarshi mil. av.gi 329—327 yillarda Marokandda ko`tarilgan qo`zg`olon rahbari.

**Maroqanda** — Samarqandning yunoncha nomi. Mil. av.gi VII — VI asrlarda Maroqanda o`rnida mudofaa devorlar bilan o`ralgan qishloq bo`lgan. Yunon tarixchilari Arrian, Kvint Kurtsiy Ruf, Strabonning ma`lumotlariga ko`ra mil. av.gi 329 yilida A.Makedonskiy So`g`diyona poytaxti Maroqandni zabt etib, vayron qilgan, so`ngra o`zining harbiy garnizoni uchun qal`ani qayta tiklagan. So`g`diylar Spitamen boshchiligida bu bosqinchilarga qarshi kurashgan, qo`zg`olon bostirilgach, Makedonskiy Marokandni yana vayron qilishni buyurgan. Maroqand keyinchalik Semizkent, Samarqand nomini olgan.

Iskandar vafotidan so`ng O`rta Osiyo Salavkiylar davlati tarkibiga kirdi. Salavka ham bu erdagi erlarni satrapliklarga bo`ldi. Satraplikdagi davlat mudofaasi va qo`shinlarini tashkil etish ishlari bilan **strateg** shug`ullangan.

Yunon va Makedon istilolaridan boshlab O`rta Osiyo viloyatlari madaniyati tarixida antik (yunoncha «**qadimgi**») davr boshlandi. Bu hol SHarq va G`arb o`rtasida madaniy munosabatlarning rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa, Baqtriya madaniyatida yunon madaniyatining ta`siri sezila boshladi.

**Ellinlashtirish** — SHarqda yunon madaniyatining yoyilish jarayoni, aralash madaniyatining — yunon va mahalliy SHarq madaniyatining tashkil topish jarayoni.

**YUechji** — ulkan ko'chmanchi qabila bo'lib, eramizdan avvalgi II asr o'rtalarida Tyan'shan tog'lari g'arbidan Dun'xuandan sharqqa tomon Labnor ko'ligacha bo'lgan hududda, hozirgi Xitoyning Gan'su provintsiyasi hududlariga to'g'ri keladi. YUechjilar xaqida ma'lumotlar. Qadimgi Xitoy yozma manbalari (Ban Gu, Sima TSzyan')da uchraydi. YUechjilar Kushon podsholigi tizimida katta rol' uynagan. etnik tarkibi haligacha o'rganilmagan (SHarqiy eronliklar, xindoYevropaliklar, turklar).

Yuechjilar tili Baqtriya shaharlaridan va qabilalarining nomlaridan bo'lak saqlanib qolmagan. etnik qiyofalari Holchayondagi skul'pturalarda, tangalarda va boshqa yodgorliklarda saqlanib qolgan.

Mil. av.gi II asr o'rtalarida YUechjilar Xunlar siquvi ostida Ili daryosi vodiysiga qochishga majbur bo'lganlar keyinroq mil. av.gi II asr o'rtalarida Xunlar tazyiqi kuchaygach, janubga SHimoliy Baqtriya hududlariga ko'chganlar. G'arb ko'chgan YUechjilar «**Katta yuechj:i**», Nan'shan tog'larida qolganlari esa «**Kichik YUechji**» nomini oldilar. Keyinroq YUechjilar butun Baqtriyani ishg'ol qildilar va o'zlarining konfederativ davlatini tuzdilar. Bu konfederatsiyalar:

1. Xyumi (Syumi)
2. SHuanmi
3. Guyshuan'
4. Xisi.
5. Xuanmi

**Qang'li** — turkiy qabilalar uyushmasi O'rxun—Enisey yozuvlarida «**kanxaras**» deb atalgan, xitoy manbalarida Qang' davlati Qang'yuy deb atalgan. Qang'lilar mil. av.gi III asr oxirlarida Sirdaryo bo'ylarida yirik Qang' davlatini tuzganlar Poytaxti — Qang'dez bo'lib, mil. av.gi III asrda asos solingan. Xitoy tarixchilari bu shaharni Bityan deb atashgan. X asr oxirlarida ularning katta bir qismi shimoliy — g'arbgacha siljib, emba va Ural (YOyik) daryolari oralig'ida joylashgan. XI asrda ularning ko'pchiligi Kichik Osiyo, Bolgariya va Vengriya erlariga o'tib mahalliy aholiga, ayrim guruhlar esa Volga bo'ylariga kelib boshqird, tatar xalqlariga qo'shib kelgan. XI asrning oxiri — XII asrning boshlarida Qang'lilarning katta guruhi Sirdaryo bo'ylariga qaytib kelganlar. O'rta asrlarda qang'lilar O'rta Osiyo davlatlarining ichki siyosatida faol ishtirok etganlar. Qang'lilar yarim o'troq

holda yashab dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Ular bir necha urug'larga bo'linishgan Jumladan, sariq — qang'li, qora—Qang'li, qizil— Qang'li, bobo—Qang'li, olmish—qang'li, bo'ka—qang'li va xokazo.

**Kushon podsholigi** – milodiy 1 asrning boshi yoki o'rtalarida YUechjilarning Kushon (Xitoychada Guyshuan) podsholigining kuchayishi natijasida paydo bo'lgan. «**Kushon**» atamasi sulola yoki qabila nomidan kelib chiqqan. Kushonlarning ilk hududlari shimoliy Baqtriya, Tojikiston, O'zbekistonning janubida joylashgan. Podsholikni asoschisi YAbg'u (qirol), keyinroq esa podsho nomini olgan Kudzula Kadfiz (Kadfiz I) davrida kushonlar hozirgi Afg'oniston va Tojikistonning kattagina qismini bosib oldilar. Uning vorisi Vima Kadfiz davrida kushonlarga Xindistonning kattagina qismi buysunadigan bo'ldi. Kanishka I davrida Kushon podsholigi o'zining rivojlangan pallasini boshidan kechirdi. O'rta Osiyoda kushonlarning shimoliy chegaralari O'zbekiston janubidagi Xisor tog' tizmalaridan o'tgan, hamda tog'li dovon (Darband) da chegara devorlari qurilgan. Kushon podsholigi davrida turli eralar mavjud bo'lgan. (Salavkiylar, Vikroma, Saka eralari va boshqalar). SHuningdek, Kanishka I hukmronligi davrida Kanishka erasi boshlangan. Ushbu era dlvrida quyidagi podsholar hukmronlik qilgan:

Kanishka I — 1—23 yillar,

Vasishka — 24—28 yillar,

Xuvishka — 28—60 yillar,

Kanishka II — 41—47 yil;

Vasudeva (Kanishka III) – 64—98 yillar.

Kushon davlati teokratik davlat bo'lib, podsho mamlakachning bosh kohini bo'lib ham hisoblangan. Podsholik satrapliklarga bo'linib, satraplar birmuncha mustaqil siyosat olib borganlar. Kushon podsholigi quldorchilik davlati bo'lib, aholining asosiy qismi qishloq aholisidan iborat bo'lgan. Diniy siyosatda kushon podsholari erkinlikni ta'minlaganlar, chunki davlat hududida buddizm, zardo'shtiylik keng tarqalgan bo'lsa, davlatning boshqa joylarida xind, eroniy, yunon va misr dinlari tarqalgan. Pul munosabatlari savdo va hunarmandchilikning keng rivojlanishi bilan shakllangan. Pul tizimi oltin va mis tangalardan iborat bo'lgan. III asrning birinchi yarmi yoki o'rtalarida Kushon davlati tugatiladi. Baqtriya — Toxariston sasoniylar

qo'liga o'tib, sosoniylar sulolasi tomonidan boshqarilgan. Ular esa o'z navbatida Kushonlar nomi ostidagi yorliq bilan davlatni idora qilganlar.

### **Ilk o`rta asrlar davridagi tarixiy atamalar (arablar bosqinigacha).**

Ilk o`rta asrlarga oid tarixiy atamalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo eftallar atamasiga duch kelamiz.

**Eftallar** — O`rta Osiyo va o`nga yaqin mamlakatlar xalqlarining etnogenezi va tarixida muhim rol o`ynagan yirik qabilalar uyushmasi. Ularning kelib chiqishi to`g`risida turli fikrlar bayon etilgan. A. N. Bernshtamning fikricha, eftallar tarkib topgan erlar o`rta va quyi, Sirdaryo hamda Amudaryoning yuqori havzasidir. S. P. Tolstov esa ularni Orol bo`ylaridan kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Garchi eftallarning tarkib topgan joyi qat`iy aniqlanmagan bo`lsada, ular etnik elementlar aralashgan O`rta Osiyolik qabilalar negizida shakllanganligi ma`lum eftallar otashparast bo`lganlar, lekin keyinchalik ular orasida buddizm va xristianlikka e`tiqod qila boshlaganlar ham bo`lgan.

Ilk o`rta asrlarda o`z qaramog`idagi xizmatkorlari mehnatidan foydalanib kelgan dehqonlar, keyinchalik turli yo`llar bilan qishloq jamoalari ustidan hukmronlik qiladigan, bora—bora ular kuchidan foydalaniladigan bo`ldilar. Dehqonlarga qaram bo`lib qolgan qishloqning mehnatkash ahli bu davrda «**kadivar**», ya`ni qishloq qo`rg`onida yashovchilar nomi bilan yuritilgan. SHunday qilib, mamlakatda ilk o`rta asrlar mulkchiligi munosabatlarining shakllanishi bilan qishloq jamoalari ichida yirik er egalari bo`lmish dehqonlar bilan bir qatorda o`z erkidan maxrum bo`lgan, mo`tlaqo ersiz va mulksiz kambag'al ziroatchi tabaqa — **kadivarlar** paydo bo`ladi. Ular ilk o`rta asrlarning ijtimoiy hayotida dunyoga kelgan va erdor dehqonlar tabaqasiga qaram bo`lgan qishloq jamoasining, yangi mehnatkash, mazlum aholining vakillari edi. Mamlakatda er—suv mulkchiligining xususiyligi ortib, feodal munosabatlarning mustahkamlanib borishi bilan qishloqning mulksiz va erksiz ziroatchi mazlum ahli — kadivarlarning soni ko`payib, dehqonchilik xo`jalikning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarining biriga aylandi.

V asrning o`rtalariga kelib, mulkdor dehqonlar va ruhoniyyat — kohinlarning qo`l ostidagi mulklardan iborat bo`lsa ham, ammo ziroatkor voxalardagi erlarning asosiy qismi hali ham qishloq jamoalarining qaramog`ida edi. Ziroatchi jamoalarning oddiy mehnatkash a`zolari «**kashovarz**» — ya`ni, erni xaydovchi, erni omoch bilan

ag'daruvchi, «**qo'shchi**» deb yuritiladi. Dehqonchilik maxsulotlarining deyarli asosiy qismi mana shu qo'shchi — kashovarzlarning mashaqqatli mehnati bilan etishtirilar edi.

**CHokar** — O`rta Osiyoda ilk feodalizm davrida feodallarga qarashli bo`lgan qurollangan yigitlar guruhi.

**Ixshid** — Sug'd hokimlarining nasabi, unvoni. Tarixiy ma'lumotlarga Sug'd arab halifaligi tomonidan istilo qilingunga qadar bu erda 13 ixshid hukmronlik qilib turgan.

**Bo`dun** — chorvador aholi, qora bo`dun — qora xalq.

Ilk O`rta asrlarda O`rta Osiyoda feodal munosabatlarining o`rnatilishi bilan ilk o`rta asr shaharlari vujudga kela boshladi. Bu davrda ayrim markaziy shaharlarining tashqi devorlariga tutashgan joylarda hunarmandchilik mavzolari paydo bo`ladi. Atrofi devor bilan o`ralmagan bu istehkomsiz mavzolar manbalarda «**rabot**» nomi bilan eslatiladi. Keyinchalik rabotlar ham devor bilan o`rab olinadi. Rabotlarda hunarmandchilik mahallarlaridan tashqari savdogarlar, o`zga yurtlardan kelgan musofirlar uchun karvonsaroy, bozor, ibodatxona va daxmalar qad ko`taradi.

SHunday qilib, shaharlar yonboshida rabodlarning qad ko`tarishi bilan ilk o`rta asrlarda ular uch qisimli bo`lib qoladi. Uning podshox qasri joylashgan qismi «**ark**», ichki shahar, «**shaxriston**» deb yuritiladi. SHaharning uchala qismi ham alohida — alohida devorlar bilan o`rab olinadi. Ularning bir nechta darvozalari bo`lgan. Manbalarda ta`rif etilishicha, VIII asrda Buxoro besh qismidan iborat bo`lib, u besh qator devorlar xalqasi bilan o`ralgan edi. SHahar devorlari bo`ylab oqib o`tgan anxor xandaq vazifasini bajargan.

Ilk o`rta asrlarda shahar va qishloq aholisi «**naf**» deyilgan. Ijtimoiy jixatdan u bir nechta tabaqaga bo`lingan. Mulkdorlar «**ozod**», shahar hunarmandlari «**ozodkor**», ziroatkorlar «**kashovarz**», xizmatkorlar «**korikor**», mute qo'shchilar «**kadivar**», qul va cho`rilar: erkaklar «**bantak**» va ayollar «**doya**» deb yuritilgan. Aslzoda — «**ozod**»lar tabaqasiga podshox, mahalliy hukmdorlar va feodal dehqonlar kirgan. Bulardan tashqari, So`g`dda ibodatxonalar va ularning tasarrufida mulk va erlar bo`lgan ibodatxonalar «**vag'n**», uning bosh ruhoniy mulozimi, ya`ni kohini «**vag'npat**» deb yuritilgan. Kohinlar tasarrufidagi erlar esa «**vag'nze**» deb atalgan.

Qadimgi jamoa tuzumi insoniyat tarixida eng uzoq davrini o'z ichiga olgan. U odamzodning paydo bo'lishidan tortib to feodalizm davrigacha davom etgan. Ibtidoiy jamoa kishilari ibtidoiy to'da va urug'— aymoqchilik deb ataladigan ikki davrni o'z boshidan o'tkazgan.

Urug' —aymoqchilik jamoasiga o'tish bilan odamlarning yashash tarzi o'zgarib, er yuzining ba'zi joylarida termachilikdan dehqonchilikka, ovchilikdan esa chorvachilikka o'ta boshlagan. Asta—sekin odamlar hunarmandchilikni ham o'zlashtira boshlaganlar.

**Avvalo ularning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq tarixiy atamalarga to'xtalsak. Ibtidoiy jamoa odamlarining dastlabki e'tiqodlari tabiat oldidagi nochorchiliklaridan yuzaga kelgan. SHulardan biri totemizm bo'lib, ibtidoiy jamoa odamlari totemlarga — hayvon va o'simliklarga sig'inishgan. Har bir qabila o'zining totemiga ega bo'lgan. O'z navbatida ushbu totemni o'ldirish, iste'mol qilish ta'qiqlangan.**

**Fetishizm** (fr. fetich — tumor so'zidan olingan) — jonsiz predmetlarga e'tiqod qilishni anglatadi. Fetishizm predmeti bo'lib munchiq, tumor kabilar asosiy o'rinni egallagan. Hozirgi dinlarda ham ba'zi bir predmetlar fetishizmga misol bo'la oladi. Masalan, Makkadagi Qoratosh islom dinida, krest (xoch) xristianlik dinida muqaddas sanaladi.

**Animizm** — hayvon ruhlariga ishonish demakdir.

Qadimgi YUnonistonda tabaqaviy jamiyatga o'tish davrida diniy tasavvurlar o'zgarib borgan. YUnon dunyosida xar bir narsa, xodisa va kasb—korning o'z homiylari, ya'ni xudolari bor deb o'ylaganlar. Bu ko'p xudolikning ko'rinishi edi. YUnonistonda bosh xudo **Zevs** bo'lib, osmon, momaqaldiriq, chaqmoq xudosi bo'lgan.

U Olimp tog'ida yashaydi deb o'ylashgan. Rimliklarning YUjupiter xudoriga teng bo'lgan.

**Poseydon** — «**Erni tebratuvchi**» daxshatli dengiz xudolaridan biri bo'lib, yunonlar undan ham qattiq qo'rqqanlar. Ular Poseydonni yarim— yalang'och, qo'lida uch ayrilik bahaybat nayza ushlagan holda tasavvur qilganlar. Afsonaga ko'ra, u o'zining uch ayrilik nayzasi bilan erni larzaga keltirib, dengizda bo'ron ko'targan va kemalarni cho'ktirib yuborgan.

**Gelios** — quyosh xudosi bo`lib, oppoq otlar qo`shilgan oltin aravasida osmonga chiqqanida go`yo kunduz boshlanar ekan.

**Appolon** — yorug`lik va san`at xudosi bo`lgan. YUnonlarda hosildorlik ma`budasi **Demetriy** bo`lib, o`simliklarni bahorda barq urib o`sishi, tabiatning jonlanishi, kuzda ularning so`lib sarg`ayishi unga bog`liq ekan.

Er osti saltanatining hukmdori — homiysi **Aid** bo`lgan. Afsonaga ko`ra odam o`lgach uning joni er osti saltanatiga tushib ketar ekan. Aidning oyoqlari ostida uch boshli bir it o`tirib, hammani er osti saltanatiga o`tkazib turar ekan. Lekin u hech kimni qaytib chiqishga yo`l qo`ymas ekan.

**Dionis** – vinochilik, **Afrodita**—dastlab hosil, keyinchalik sevgi va go`zallik, ayni paytda dengiz sayoxatchilari homiysi bo`lgan.

**Afina** – Zevsning qizi bo`lib, u urush, g`alaba, san`at, bilim, donolik ma`budasi bo`lgan.

**Politizm** (yunoncha theos – xudo) — ko`pxudolik, ko`pxudolikka inonish SHuningdek, Afina shaxrining homiysi bo`lgan.

**Gefest** — temirchilik xudosi hisoblangan.

**Germes** — savdo — sotiq xudosi

**Mitraizm** – esa Rim imperiyasidagi asosiy diniy e`tiqodlardan hisoblangan. Uning nomi Mitradan olingan bo`lib, ilk Mitra kul`tidan farq qilgan Mitraizm SHarqda Rim legionerlari orasida tarqalib, Flaviy davrida Rimga ko`chirilgan o`z mazmuni va diniy an`anasiga ko`ra Mitra Rim imperiyasidagi barcha aholi qatlamlari kayfiyatlariga mos kelgan, ammo ko`proq Rim legionerlarining manfaatlariga mos kelgan. Mitraizmning er osti ibodatxonalari Rim imperiyasining Britaniyadan to Parfiyagacha bo`lgan Ulkan hududlaridan ko`plab topilgan. Mitraizm uzoq vaqt Rim imperiyasida xristianlik diniga muholif bo`lgan.

Ijtimoiy va iqtisodiy atamalarini.

**Patritsiylar** – Qadimgi Rimning eng qadimgi tub aholisi bo`lib, buning ma`nosi lotincha pater — ota so`zidan olingan. Italiyaning boshqa joylaridan ko`chib kelgan odamlar va ularning avlodlarini **plebeylar** deb atashganlar.

**Polis** (yun polls lot civita;») —shahar—davlat, Qadimgi Italiyadagi davlat va jamiyatning ijtimoiy — iqtisodiy va siyosiy tashkiloti hisoblangan. Polislar teng xuquqli grajdanlardan iborat bo`lib, ularning xar biri er egaligi va siyosiy

erkinliklarga ega bo'lgan. Polisdagi hokimiyat shakli turlicha (oligarxiya, demokratiya) bo'lgan.

**En** — Mesopotamiyada mil av. III—II ming yilliklarda shahar— davlatlar nomi enlarni oliy ruhoniylar boshqargan. Uni **lugal'** deb ham atashgan.

**Senat** — (lot. senatus, senex — qariya) — Qadimgi Rimda respublika davrida yuqori hokimiyat organi hisoblangan. Afinada oddiy xalq **demos** deb atalgan. Demosning ko'pchiligini oddiy dehqonlar, hunarmandlar, dengizchilar, matroslar va mardikorlar tashkil qilgan. Mil. av. VIII — VII asrlarda demosning bir qismi boyib ketgan. Ularning orasida boy savdogarlar, kema va ustaxonalarning egalari, shuningdek badavlat dehqonlar etishib chiqqan. Ularning ixtiyorida ham qullar bo'lib, ayni paytda ular mardikor yollab ishlatiladilar. Ammo demosning xuquqi cheklangan bo'lib, ular aslzodalarga tobe edilar.

Xindistonda mil. av. I ming yillikning birinchi yarmida tepasida podsho turgan ko'pgina davlatlar tashkil topa boshlagan. Mulkiy tengsizlikning kuchayishi jamoaning turli **varnalarga** — toifalarga bo'linishiga olib kelgan. Bular braxmanlar, kshatriyalar, vayshilar va shudralardir.

Mil. av. XIII asr boshlarida Lakonikani doriylar istilo qiladilar. Doriylar evrat daryosining o'ng soxilida bir shahar barpo qilganlar. Ular bu shaharni Sparta deb, o'zlarini esa spartaliklar deb ataganlar. Istilochi doriylar Lakonikani bosib olganlaridan so'ng qo'shni Messeniyaning ham istilo qilganlar. Spartaliklar itoat ettirilgan aholining ko'pchilik qismini qul qilganlar. Qul qilingan mahalliy aholi **ilotlar** deb atalgan. Bu so'zning ma'nosi «**asir olingan**» demakdir.

Mil. av. V — IV asrlarda butun Yunonistonda hunarmandchilik rivojlandi. Afina va boshqa shaharlarda to'qimachilik, zargarlik, kulolchilik, tikuvchilik, qurolsozlik va me'morchilik avj oladi. Bu erda xar xil hunarmandchilik ustaxonalari va ishxonalar **ergastitsiya** deb atalgan.

**Gladiator** — (lot. gladiator gladius — qasos) — Qadimgi Rimda qullar, harbiy asirlarning tsirk sahnalarida bir—birlari bilan yoxud yovvoyi hayvonlar bilan urushishiga majbur etilgan qismi. Ular maxsus maktablarda o'qitilganlar (Rimda Kapuya va Prenestda ana shunday maxsus maktablar bo'lgan) V asrdan boshlab gladiatorlar janglari to'xtatildi.

Aytish mumkinki qullar mehnatini samarasizligini ko`rgan ko`pgina er egalari o`z xo`jaliklaridagi erlarni kichik—kichik qismlarga bo`lganlar. Ular bu erlarni ersiz erkin kambag'allarga ijaraga berganlar. Kichik—kichik erlarni ijaraga olgan kishilar Rimda **kolonlar** deb atalgan.

Qadimgi Rim tarixida etrusklar alohida iz qoldirganlar. Qadimgi Rimliklar ularni «**tusklar**» yunonlar «**tirrenlar**», o`zlari esa o`zlarini «**rasen**»lar deb nomlaganlar. Midollan avvalgi VIII — VII asrlarda etrusklar Podus (Po) daryosining quyi oqimi bilan Tibr daryosi oralig'idagi erlarda yashaganlar. etrusklar jamiyati ham quldorlik jamiyati bo`lgan. Ularda hukmdorlar **luxomon** qaram kishilar **latunlar** deb atalgan.

### **Madaniyat, san`atga oid tarixiy atamalar.**

**Teatr** (yunon theatron—kurish joyi, tomoshagox) ma`noni anglatib san`at turi hisoblanadi. Unda saxna xaraqatli namoyish etiladi. Teart manbasi bo`lib Qadimgi ov va qishloq xo`jalik o`yinlari, oilaviy xalq, urf-odatlar xizmat qilgan. Qadimgi yunonistonda teatrning turli shakllari bo`lib, ular o`z an`analari va saxna texnikasiga ega bo`lgan. Teatr tomoshalarining xilma xil va boy shakllari Xindiston, Xitoy, Indoneziya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda ham mavjud.

**Komediya** (yunon komodia) — drama janrlaridan biri bo`lib, undagi qaxramonlar komik (kulgili) tarzda namoyish etilardi, tragediyaning aksi.

**Tragediya** (yunon tragodia — echki qo`shig'i) drama turi bo`lib, tragik (fojea) qaxramonlar ishtirokida namoyish etiladi. Tragediyaning asosini jamiyatdagi keskin ziddiyatlar, inson hayotining muammolari, shaxslar o`rtasidagi to`qnashuvlar tashkil qiladi.

Tragediya odatda bosh qaxramonning o`limi bilan yakunlanadi. Tragediyaning klassik janri Qadimgi Rimda esxil, Sofokl tomonidan yaratilgan.

**Amfiteatr** (yunon Amphitheatron) — Antik davr tomoshagoxi bo`lib, o`rtada saxna atrofida esa tomoshabinlar uchun zinasimon o`rindiqlar bo`lgan (masalan Rimdagi Kolizey amfiteatri).

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Atamalar jamiyat hayotida qanday o`rin tutadi?
2. Atamalarning qanday shakl va turlari mavjud?
3. O`rta Osiyodagi ilk qabilalar Vatanimiz tarixida qanday o`rin tutadi?
4. Ahamoniylar o`ukmronligi davrida iqtisodiy hayot qay darajada bo`lgan?

5. Yunon-makedon istilochiligi qanday o'zgarishlarga sabab bo'lgan?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T., 1998.
2. Axmedov B. Tarixdan qisqacha izohli lug'at. –T., 1977.
3. Bekmuhamedov X. Tarix terminlari izohli lug'ati. –T., 1978.
4. Boboeva M.K., Qurbongaliev R.S. Qadimgi dunyo tarixidan izohli lug'at –T., 1992.
5. BSE , izd.2, t.31., s21.,–M., 1955.
6. BSE , izd 2., t.42. –S. 302–304. –M.1956.
7. *Istoriya pervobitnogo obshestva epoxi pervobitnoy rodovoy obshine — M . 1986.*
8. Istoriya Drevnego Rima. –M., 1981.
9. Istoriya Drevney Gretsii. –M., 1972.
10. Rtveladze e.V. Velikiy SHelkoviy put'. –T., 1998.
11. Saidboboev 3. Tarixiy atamashunoslik. Ma`ruzalar matni. –T., 2000.
12. UME, 1–2 j. –T., 2000.
13. CHexovich O.D. Ob izuchenii terminologii istoricheskix istochnikov Sredney Azii // ONU. 1962, № 6.
14. Entsiklopedicheskiy slovar'. –M., 1987.
15. Entsiklopedicheskiy slovar'. –M., 1987.
16. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1—2 jild. –T., 2000.
17. Qadimgi dunyo tarixi I—IIjild. –T., 1975.

## **2–mavzu. O`rta Osiyo davlatlarining VIII — XVIII asrlardagi tarixiy atamalari**

**Maqsad:** Talabalarga islom dinining paydo bo'lishi va O`rta Osiyoda tarqalishi jarayoni hamda islom dini bilan bog'liq, arab tilidan o'zlashgan atamalar to'g'risida chuqur ma'lumot berish. SHuningdek, VIII - XVIII asrlar davomida qo'llanilgan siyosiy-harbiy, iqtisodiy, og'irlik va uzunlik o'lchov birliklari haqida etarlicha ma'lumotlar berish.

### **Reja:**

1. **Islom dinining paydo bo'lishi va O`rta Osiyoda tarqalishi.**
2. **Islom dini bilan bog'liq va arab tilidan o'zlashgan atamalar.**
3. **Iqtisodiy mavzudagi tarixiy atamalar.**
4. **Siyosiy—harbiy mavzudagi tarixiy atamalar.**
5. **Iqtisodiy mavzudagi tarixiy atamalar.**
6. **Og'irlik va uzunlik o'lchov birliklarini ifodalovchi atamalar.**

**Islom dinining paydo bo'lishi va O`rta Osiyoda tarqalishi.**

VII asrning ikkinchi yarmi — VIII asrning boshlarida O`rta Osiyoga arablarning xujumi ko`chaydi va natijada ko`plab hududlar arab hukmronligi ostiga o`tdi. Arablar O`rta Osiyo xalqlarini yangi din — Islomga kiritdilar. Xuddi shu davrdan arab tili va yozuv keng tarqaldi. Natijada tilimizga arab to`xtalar ekanmiz, istilochilarning Movarounnahrda o`rnatilgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash va uning barqarorligini ta`minlash uchun Islom dinini targ`ibotini va uni erli aholi o`rtasida ijtimoiy tabaqalardan qat`iy nazar, kengroq yoyishga ahamiyat berdilar. Bir nechta majusiy dinlarga topinuvchi va o`z diniga e`tiqodi kuchli bo`lgan Movarounnahrni e`tiqodli aholisini uzil — kesil buysundirishda yagona dinga — Islom diniga birlashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini arablar yaxshi tushunardilar. Islom dini boshda zo`rluk bilan aholi o`rtasida targ`ib qilindi. Islom dinining kirib kelishi, shubhasiz, O`rta Osiyo xalqlari hayotida yangi davrni boshladi.

Islom arab dunyosida paydo bo`lgan bo`lsada, uning huquqiy asosi O`rta Osiyoda shakllandi. Qur`onga sharhlar (Tavsir), Xadis ilmi va fiqx (Islom xuquqshunosligi) kabi Islom dinidagi alohida sohalarning paydo bo`lishi va taraqqiyotiga O`rta Osiyolik olimlar, ulamolar hissa qo`shdilar. Buni butun Islom olami ham e`tirof etib kelmoqda.

Prezidentimiz I.Karimov shunday degan edi: *«Men faxr bilan aytishim mumkinki, xalqimizning butun tarixi davomida xech qanday nizo, odamlarni millati va diniy mansubligiga qarab ayirish hollari bo`lmagan va biz xech qachon yo`l qo`ymaymiz»*. Aytish mumkinki, bu dinlararo bag`rikenglik — tolerantlikning ko`rinishidir.

**Tolerantlik** (lot Tolerantia — sabr) boshqalarning fikr, e`tiqod va erkinliklariga bag`rikenglik va sabr-toqat bilan munosabatda bo`lishdir.

### **Islom dini bilan bog`liq va arab tilidan o`zlashgan atamalar**

Ta`kidlash joizki, Islom dini bilan bog`liq yangi atamalar ham paydo bo`ldi. Avvalgi diniy atamalar sekin — asta o`z ta`sirini yo`qota bordi. Iqtisodiy hayotda ham yangi soliqlar solinishi bilan yangi atamalar paydo bo`ldi. Arablar Movarounnahrning iqtisodiy hayotini o`z qo`llarida jilovlab olish uchun sosoniylarning soliq tartibini joriy etdilar. Ularning nomlanishi arab tilidan kirib keldi.

**Islom** – dunyoda eng ko'p tarqalgan dinlardan biri bo'lib, unga e'tiqodda bo'lganlarni musulmonlar deb ataladi. Islom dini yagona xudo — Allohga e'tiqod qiladi. Islom dini VII asrda Arabistonda vujudga kelgan. Muhammad Payg'ambar islom dinining asoschisidir. Islom dini bugungi kunda arab davlatlarida, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Pokiston, Indoneziya, O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va boshqa bir qator mamlakatlarda asosiy din hisoblandi.

**Qur'on** – Musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Muhammad Payg'ambarning Makka va Madinada olib borgan og'zaki diniy targ'ibotlari to'plamidan iborat. Qur'onda islom qoidalari, e'tiqod talablari, xuquqiy va ahloqiy normalari o'z ifodasini topgan. Islom an'anasida Qur'on Alloh tomonidan Muhammad Payg'ambarga ramazon oyining 27 – kuni kechasi vahiy qilinib, ro'za tutilgan. Uning 27 — kuni kechasi «**laylot ul—qadr**», ya'ni qudrat kechasi, ilohiyot qudrati namoyon bo'lgan kecha deb ulug'lanadi. Qur'on kitobini «**Qur'oni Karim**», «**Qur'oni Masjid**» deb sifatlashadi.

**Movarounnahr** – arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi daryo ortidagi er, degan ma'noni bildiradi. Arablar O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin Amudaryodan shimolgacha qarab cho'zilgan O'rta Osiyo erlarini Movarounnahr deb atashgan.

**Avliyo** – Islom dinida Allohga yaqin kishi, homiy, «bandalarning homiysi» ma'nolarini bildiradi. Avliyo xudoning alohida iltifotidan bahra olib, ilohiy qudratga ega bo'lgan, odamlarning hayotiga, turmushiga ta'sir ko'rsata oladigan kishi hisoblanadi. Mana shuning uchun ham musulmonlar avliyolarning mozorlariga sig'inishib, ulardan madad so'rashadi.

**Azon** – Islomda xar kuni besh maxal o'qiladigan namoz vaqtini e'lon qilish va unga da'vat qilish. Namozga xar bir masjidida maxsus kishi — **muazzin** tomonidan azon aytib chaqiriladi.

**Amir** – Islom dini qabul qilingunga qadar arablarda amir so'zi qabila boshlig'i, harbiy boshliq degan ma'nolarni bildirgan. Arablar ko'p joylarni bosib olib, o'z dinlariga o'tkazgandan so'ng arab halifaligiga qaram bo'lgan mamlakatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimni, qo'shin qo'mondoni va yirik lashkarboshilarni amir deb atashgan.

**Amir al—mo`minin** – mo`minlarning hukmdori Ilk Islom davrida halifalarning keng qo`llanilgan unvoni. Bu unvonni dastlab halifa Umar olgan. Keyinchalik barcha halifalar degan ma`noni anglatadi.

**Anbiyoi — izom** – Ulug' payrambarlar degan ma`noni anglatadi.

**Ansorlar** – Islom tarixida 622 yilda Makkadan Madinaga ko`chib kelgan musulmonlarga va ularning Payg'ambari Rasululloh Muhammad sallolohu alayhi vasallamga yordam bergan va islom dinini qabul qilgan madinalik **avs** va **xazraj** qabilalarining a'zolariga nisbatan qo`llanilgan nom. Ansorlar Makkadan qochib kelgan muxojirlar bilan birga ilk musulmonlar jamoasini tashkil kilgan.

**Baytullox** – Makka Islom dinining yagona markaziga aylanganligidan keyin Olloxning uyi — Ka`baga berilgan nom.

**Baytulmol** – Islom mamlakatlarida davlatga qarashli qimmatbaho buyumlar, mol—mulklar hamda egasiz qolib davlat ixtiyoriga o`tgan mol— mulk va shu mol— mulk saqlanadigan maxsus joy xazina.

**Bid`at** – Islom dinidagi rasmiy ta`limotlarga qarshi yangi fikr va aqidalar Islom Muhammad (S A V )dan keyin paydo bo`lgan unsur va qoidalar.

**Buroq** – rivoyat bo`yicha me`roj kechasi Makkadan Baytul muqaddasga keyin osmonga Muhammad (CAB )ni olib ketgan otning nomi.

**Umra** – Islom an`anasida kichik xaj Ka`ba ziyoratiga boriladigan muayyan kunlardan boshqa vaqtda Makkaga borib xaj qilish «**kichik xaj**» deb hisoblangan va umra deb atalgan.

**Fatvo** – Islomda muftiy yoki ulamolar kengashi tomonidan diniy, xuquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masalalarda beriladigan qaror hukm yoki izoh. Fatvo diniy jamoalar, muassasalar va musulmonlar tomonidan bajarilishi kerak. Fatvo Qur`on, xadislari va shariatga yoki ilgari berilgan fatvolarga asoslanishi kerak.

**Fiqx** – musulmon xuquqshunosligi, shariat qonun—qoidalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi Islom ilohiyotining bir sohasi. Fiqx diniy xuquqshunoslik sifatida ikki sohada — shariat manbalarini ishlab chiqish (usul al—fiqx) va shariatni aniq sohalarga tadbiiq qilish (furur` al—fied)dan iborat.

**Halifa** – o`rinbosar, noib, muavin Musulmon jamoasi va musulmon teokratik davlati (Arab halifaligi)ning diniy va dunyoviy boshlig'i. U Muhammad Payg'ambarning o`rinbosari, ummaviylar davridan boshlab esa Allohning erdagi

noibi hisoblangan. Birinchi to'rt halifa (Abubakr, Umar, Usmon, Ali) «**al—Xulafolar—roshidun**» nomi bilan mashxur bo'lganlar. Ular Muhammad payg'ambardan so'ng arab halifaligini boshqarganlar

1. Abubakr (632–634)
2. Umar (634–644)
3. Usmon (644 – 656)
4. Ali (656 – 665)

Ummaviylardan keyin abbosiylar, shuningdek fotimiylar sulolasi vakillari ham halifa unvoni bilan hokimiyatini boshqarganlar.

**Sayid** – arablarda musulmon davri boshlangunga qadar qabilaning saylanadigan rahbarining unvoni bo'lib, boshliq mas'ul shaxs degan ma'noni bildirgan. Muhammad Payg'ambarning amakivachchasi Alining otasi Abu Tolib bir vaqtlar quraysh qabilasining sayidlaridan bo'lgan. SHuning uchun bu unvon Muhammad Payg'ambarning nevaralari, Alining o'g'illari, Hasan va Husaynning butun avlodlari ismiga qo'yiladigan faxriy unvon hisoblangan. Sayidlarning qiziga uylangan kishining farzandlari ham sayid hisoblangan. Mana shuning uchun ham musulmon dunyosida, jumladan Movarounnahrda ham ko'pincha hukmdorlar ham o'z avlodlarining mavqeini ko'tarish maqsadida sayidlar qiziga uylanishga harakat qilishgan. Mang'itlar sulolasining so'nggi vakili Sayd Olimxon ona tomonidan Alining avlodi hisoblangan.

**Xo'ja** – tom ma'noda, asosan YAqin va O'rta SHarq. xalqlari o'rtasidagi feodal ijtimoiy tabaqa. Xo'jalar sayidlardan keyingi o'rinda turgan. Keng ma'noda feodal jamiyatdagi hukmron tabaqalar vakili. Xo'jalarning kelib chiqishi xaqida turli fikrlar mavjud. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda xo'jalar dastlabki to'rt halifa — Abu Bakr, Umar, Usmon, Alidan tarqalgan deyilsa, boshqa manbalarda arablarning istilochilik yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarining nasli deb hisoblanadi. Xo'jalar Islom oqsuyak tabaqasi sifatida ma'lum imtiyozlarga ega bo'lganlar. Ular ko'p hollarda o'lim, tan jazosi, urushlarda qatnashishi hamda soliq to'lashdan ozod etilganlar. Xo'jalar qizini fuqaroga berish man etilgan.

**SHariat** – Islom diniy xuquq tizimi. Unda sof xuquqiy masalalardan tashqari, ahloqiy normalar va amaliy talablarga ham qonun tusi berilgan.

**Tarovix** – dindorlar tomonidan ramazon oyi davomida, ya'ni ro'za to'tish kechalari o'qiladigan qo'shimcha namoz.

**Munofiqlar** – Islom tarixiga xos atama bo'lib, ikki yuzlamachilikni anglatgan. Islom dinining yuzaki qabul qilib, o'zi esa avvalgi qabilaviy diniga sig'inishni davom ettirgan arablarga nisbatan qo'llanilgan.

**Murid** – pir yoki eshonga qo'l berib, ularni o'zining rahnamosi deb bilgan shaxs. Muridlar o'z pirlariga itoat etishi, xizmat qilish va ularning izidan borishi lozim bo'lgan.

**Noyib** – O'rta asrlarda musulmon davlatlarida o'lka yoki viloyat hukmdori. Oltin O'rdada noyib xonning yirik viloyatlaridagi yordamchisi.

**Sadaqa** – musulmonlarda faqirlarga xayr—exson tariqasida beriladigan xadya. Sadaqa qattiq kasallik, yomon tush, qo'qqisdan biror falokatta yo'liqish natijasida yuz beradigan kulfat va musibatning oldini olish maqsadida berilgan. SHuningdek, biror xursandchilik munosabati bilan, sayoxat yuzasidan sadaqa berish ham rasm bo'lgan.

**Ro'za** – Islomning farz hisoblangan marosimlaridan biri. Qur'oni Karimda yozilishicha, ramazon oyi davomida Alloh Muhammadga Qur'onni vaxiy qilib yuborgan, shuning uchun har bir musulmon 30 kun saxardan shomgacha ro'za to'tishi kerak bo'lgan. SHariatda ro'za to'tishni erkaklar uchun 12 yoshdan, ayollar uchun 9 yoshdan belgilangan. Unda ko'rsatilishicha, chiyomilish, chekish, gul hidlash, ovqat iste'mol qilish, dori ichish bilan ro'za buziladi. Bu marosim Qur'oni Karim, xadis va shariatda gunohlardan qutulish, savob orttirish uchun eng yaxshi yo'l deb talqin qilinadi. Ro'zadan xomilador emizikli ayollar, og'ir bemorlar va safarga chiqqanlar ozod etilgan.

**Salla** – Musulmonlarda boshga o'raladigan mato. Asosan erkaklar o'raydi. Oq, yashil kul rang matolardan ko'pincha dokadan iborat bo'lib, do'ppi, telpak ustidan o'raladi. Kishi safarda, yo'lda vafot etgan, jangda xalok bo'lgan paytlarda sallasidan kafan qilishga mo'ljallangan. Salla o'rash usullari matosi kishilarning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligiga qarab belgilangan. Masalan, o'zlarini sayidlar deb hisoblovchilar va xojilar yashil matodan salla o'raganlar.

**Sunna** – Muhammad Payg'ambarning ko'rsatmalari va oyatlari xaqidagi xadislar, rivoyatlar. Islomda faqat Muhammad ibrati an'anasi deb e'tirof etilib,

Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas manba hisoblanadi. Sunna VII asr o'rtalarida yig'ila boshlagan.

**So`fi** – 1. Masjidida azon aytib, namozga chorlovchi shaxs. Muazzin atamasining sinonimi. Muazzin xalq tilida «so`fi» deb ham ataladi. 2. Namozxonlar safini tartibga soluvchi. 3. So`fi tariqat va sulukda bo`lgan murid.

**Laylat—ul qadr** – ramazon oyining 27—kunga o`tar kechasi Islom diniga siginuvchilar xar yili shu kechada Alloh xar bir insonning ibodat paytida iltijo qilgan tilagini hisobga olib, uning takdiri xaqida hukm chiqaradi, deb tasavvur kiladilar Mana shuning uchun ham Laylat ul–qadr kechasining Qur`on o`qib, Allohga iltijo qilib, duo va ibodag qilib o`tqazish rasm bo`lgan.

**Masjid** – sajdagox, musulmonlarning ibodat joylari. Musulmonlar jamoa bo`lib, namoz o`qiydigan joy. Masjidlar asosan musulmonlarning kundalik besh vaqt namoz o`qishi uchun mo`ljallangan muqaddas joy. Juma va Xayit namozlari esa jome` masjidlarida o`qiladi. Birinchi masjidni Madinada Muhammad Payg`ambar qurdirgan.

**Imom** – arabcha so`z bo`lib, namozda jamoatning oldida turib namozni boshqaruvchi kishi. SHuningdek, Islom dinida musulmonlarning rahbari boshlig`i demakdir Imom atamasi nixoyatda keng mazmuni bo`lib quyidagi ma`nolarda ishlatilgan va ishlatilmokda 1. Sunniylikda barcha musulmonlarning oliy rahbari 2. Sunniylikka shariat mazxablarining asoschisi, 3. SHialikda eng yuksak rahnamo, ya`ni Xazrati Ali va uning avloddari 4. Sunniylikda ham, shialikda ham masjidida namozni boshqarib boruvchi dindor — masjid imomi.

**Madrasa** – Musulmon ilohiyotining masalalarini sharhlab berib turadigan markaz. U Madrasa sifatida arablarda VII — VIII asrlarda paydo bo`lgan. Keyinchalik ayrim masjidlar qoshida ilohiyot maktablari tarkib topib, Madrasa deb atala boshlangan. Madrasalar xonlar va yirik er egalari va boshqa davlatmand kishilar tomonidan qurdirilgan. Mutavalli vaqfdan tushgan daromadni mudarris, mullavachcha, imom va boshqalarga taqsimlangan. Madrasaga maktabni tugatgan o`spirinlar qabul qilingan. O`rta Osiedagi madrasalarda arab va fors tishlida yozilgan «Avvali ilm» kitobi o`qitilgan. Ayrim madrasalarda tibbiyot, aruz ilmi falsafa, geografiya va boshqa fanlar ham o`qitilgan. Madrasaning xar bir bosqichida o`qish muddati 3–4 yil davom etgan.

**Mavlid** – Muhammad Payg'ambarning tug'ilgan kuni bilan bog'liq diniy bayram. Rabi al-avval oyining 12 kuni nishonlanadi Musulmon mamlakatlarida mavlud kuni duolar, Payg'ambar sha'niga madxiyalardan iborat she'rlar o'qiladi sadaqalar beriladi, dindorlarning yigilishlari o'tkaziladi

**Maddox** – XX asr boshlariga qadar O'rta Osiyo hududida odam gavjum maydonlarda, joylardagi ochik maydon va choyxonalarda hamda saroylarda odamlarni to'plab, ularga aziz avliyolarning karomatli mo'izalarini izohlab beruvchi, diniy qonun-qoidalarini sharhlab tushuntiruvchi diniy notik. Maddox xizmati evaziga tinglovchilaridan nazr yig'ib olingan.

**Majlis** – rasmiy doiralarda quyiladigan masalani muxokama qilish uchun bo'ladigan yigilish va muxokama jaraeni.

**Mazxab** – shariat mazxablari. Islomda diniy xuquq tizimlari va yo'nalishlari VII – IX asrlarga kelib shariatning shakllanishi jaraenida xuquqshunoslik, fikr sohasida juda ko'p mazxablar yuzaga kelgan. Hozirgi vaqtda sunniylikda 4 ta mazxab – xanafiya, malikiya, shofi'i, xanbaliya, shialikda bitta mazxab — ja'fariya saqlanib qolgan SHariat mazxablari diniy aktalardan farq qiladi. Mazxablar umuman diniy xuquq doirasidan chiqmagan holda shariat masalalarida engilroq yoki qattiq hukm chiqarish bilan bir—biridan farq kiladi. Hozir O'rta Osiyoda xanafiya mazxabi hukmron

**Makruh** – shariat tushunchalaridan biri. Qat'iyon taqiq qilinmagan, lekin nomaqbul hisoblangan va rad etilgan xatti— harakatlar makruh hisoblangan va bu uchun jazo belgilanmagan

**Malikiylar** – Islomning sunniy oqimidagi mazxablardan biri bo'lib, Malik bin Anas asos solgan. Bu mazxab tarafdorlari xuquq masalalarida ratsionalistik uslubga, ya'ni aqlga asoslangan holda talkin qilishga qarshi chiqqan. Dastlab Xijoz va Madinada, keyin boshqa mamlakatlarda tarqalgan

**Imomiylar** – shialikda asosiy oqimlaridan birining tarafdorlari, ya'ni Ali avlodiga taalluqli 12 imomni tan oluvchi mu'tadil shialar Imomiylar 11 imom Xasan al-Askariy vafotidan (873 yil) keyin uning yosh o'g'li Muhammadni oxirgi 12 chi imom deb tan olganlar. Rivoyatlarga ko'ra, bu imom yuqolgan. Imomiylar uni «yashiringan imom», ya'ni maxdiy e'lon qilganlar. U qaytib kelishi bilan adolat

tantana kiladi, deb hisoblaydilar. «YAshiringan imom»ga e`tiqod imomiylarning asosiy aqidalaridan biridir. Imomiylar shialarnish ancha ko`p tarqalgan qismidir.

**Ismoiliylar** – VIII asr o`rtalarida arab halifalshida shia oqimi doirasida shakllanib X—XI asrlarda yaqin va o`rta sharqda keng tarqalgan diniy maqsad tarafdorlari Mazxab shialarining imom Ja`far al—Sodikning katta o`g`li Ismoil nomi bilan bog`liq. Imom Ja`far katta o`g`li Ismoilni mahrum qilib kichik o`g`li Muso al—Kozimni voris qilib tayinlangandan keyin bundan norozi bo`lgan Ismoil tarafdorlari Ja`far vafotidan so`ng uning o`g`li Muhammad ibn Ismoilni imom deb tan olganlar. Keyingi davrlarda halifalikda ko`tarilgan juda ko`p qo`zg`olonlar va taxt uchun kurashlarida ismoiliy ta`limoti dinii niqob bo`lib xizmat qilgan.

**Zimmiylar** – Islom dini hukmron bo`lgan mamlakatlarda yashab turuvchi, ammo boshqa dinlarga mansub bo`lgan musulmonlar himoyasidagi aholi, yoxud shartnoma kishilari. O`rta asrlarda arab halifaligida musulmon bo`lmagan aholiga ma`muriyat bilan ikki o`rtada tuzilgan shartnoma asosida shaxs va mulk daxlsizligi hamda o`z dinlariga erkin sindirishi xuquqni ta`minlash haqidagi kafolat. Islom davlati o`z himoyasida saqlab turganligi zimmiylar jon solig`i — juz`ya va er solig`i xiroj to`lashga majbur bo`lganlar.

**Zoxid** — VIII—X asrlarda Movarounnahrda molu—dunyoga rag`bat va xoxishi bo`lmagan kishi tarki dunyo qilgan va hayot lazzatlaridan voz kechgan kishi. Zoxidlar musulmonlarni bu dunyo rohat farogatidan voz kechishga, jabr zulmga chidashga undaganlar. Zoxidlik so`fiylikning ayrim oqimlari bilan bog`liq bo`lgan.

**Iyd, iyd ayomi** — musulmonlarning diniy bayramlari Iyd atamasining bir oz buzilgan o`zbekcha talaffuzi xayitdir. O`tmishda etti kun davom etadigan iyd al—qurbon, ya`ni qurbon xayiti (ba`zi manbalari 3 yoki 4 kun bo`lgan) va uch kun davom etadigan iyd as—fitr, ya`ni ro`za xayiti kunlari orasida iyd ayyomi deb yuritilgan.

**Ilohiyot** — diniy aqidalar va ular x:aqidagi ilohiy ko`rsatmalarni o`z ichiga olgan diniy ta`limot. Ilohiyot hozir ham diniy Madrasa, institut va universitetlarda o`qitiladi. Islomda ilohiyot ilk shakllanishi davridan boshlab Kalas deb nomlangan

Iqtisodiy mavzudagi tarixiy atamalar (**arablar davri**).

**Xiroj** — YAqin va O`rta SHarq mamlakatlarida, jumladan, O`rta Osiyoda davlat tomonidan undirilgan er solig`i. Xiroj arablar tomonidan joriy qilingan. Xiva va Qo`qon xonliklarida hamda Buxoro amirligida joriy yig`ish uchun har bir

viloyatlarga sarkor, devonbegi va kotib saylangan. Xiva xoni Muhammad Raxim I xirojni pul bilan undirishni joriy qilgan. Bunda xiroj olingan hosil miqdoridan emas, balki er egasining xo`jaligi va er maydoniga qarab olingan. Qo`qon xonligi Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin xiroj bu erda natura o`rniga pul bilan yiriladigan bo`lgan.

**Mutavalliy** — Vaqf mulkiga va undan keladigan daromadga vasiylik qiluvchi, uni taqsimlovchi diniy amaldor. Vaqf erlarni ijaraga berish, vaqf mulkida xo`jalikishlarini yuritishni ham mutavalliy bajargan.

**Zakot** — Islom dini besh asosiy talablaridan biri bo`lib, mol— mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr—exson, soliq. SHariatga muvofik muaiyan boylikka ega bo`lgan katta eshdagi musulmon zakot beradi. Zakot miqdori pul daromadlaridan qirqdan bir ulushiga teng. Dehqonlar va cho`ponlardan olinadigan zakot miqdori birmuncha yuqori bo`lgan. Zakot kambag`allar, etim—esirlar kasallar va xech kimi yo`q, ayollar o`rtasida taqsimlanishi lozim bo`lgan.

**Vaqf** — davlat tomonidan shuningdek, ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjidlar, madrasalar, ixtieriy daromaddan foydalanib turish, ammo sotmaslik sharti bo`lib o`tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mol—mulk ya`ni er—suv, bino va boshqalar vaqf deyiladi. Vaqfdan keladigan daromadlar diniy muassasalar va ularda xizmat kiladigan din peshvolariga berilgan.

**Iqto`** — o`rta asrlarda YAqin va O`rta SHarq mamlakatlarida Hukmdor tomonidan feodalga katta xizmatlar evaziga in`om qilingan chek er. Odatda, Iqto` umrbod berilmay, hukmdor uni istagan vaqtda qaytarib olib, boshqa kishiga tortiq qilish mumkin bo`lgan. Iqto` xaqidagi dastlabki ma`lumotlar VII asr oxiriga mansub arab manbalarida uchraydi. IX asrga kelib halifa tomonidan arab amiriga idora qilish uchun berilgan viloyatlar ham iqto` deb atalgan.

**Ushr** — musulmon mamlakatlarida natura shaklida undirilgan soliq. Ushr solig`i xar yili dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik maxsulotlari va boshqalardan olingan.

### **Siyosiy – harbiy mavzudagi tarixiy atamalar.**

O`rta Osiyo mamlakatlarining tarixiy atamashunoligi ogzaki no`tkning rivojlanishi bilan bog`liq. SHu bilan birga mintakada fors (eroniy) atamalarining ham ta`siri kuchli bo`lgan. Bundan tashqari XII — XIV asrlarda ko`chmanchi mo`g`ullar

bosqini va keyinroq ko'chmanchi o'zbeklarning kirib kelishi bilan bog'liqdir. Ushbu davr atamalarining eng ko'p qo'llanilganlarini keltirib o'tamiz.

**Devon** — somoniylar davrida boshqaruv shakli bo'lib, vazirlar maxkamasi vazifasini o'tagan. Devonbegi esa vazirlar maxkamasining bosh ma'muri bo'lgan. Somoniylar davrida shahar hokimi **rais** deb atalgan. Viloyat hokimlari esa ba'zan **vazir** deb atalgan.

**Muxtasib** — musulmon mamlakatlaridagi amaldor. Ko'pincha sayidlardan tayinlangan. U aholining urf — odatlarga amal qilish hamda bozorlardagi narx — navo va o'lchov asboblarning to'g'riligi ustidan nazorat qilib turgan XIX — XX asrlarda Buxoroda muxtasib rais deb ham atalgan.

**Gurxon** — horaxitoy xonlarining fahriy laqabi.

**Keshik** — XIII asrda mo'g'ullar qo'shinidagi zahira qism gvardiya, guruh.

**Doruga** — harbiy ma'mur.

**Izofa** — zahira qism.

**Otaliq** — dastlab saljuqiylar sulolasi davrida (1038—1194) xon e'tiborini qozongan kishilarga berilgan mansab. Otaliq «Ota o'rniga ota» degan mazmunga ega bo'lib, uning vazifasi shaxzoda yoki xonzodalarni tarbiyalash va ular ixtiyoridagi ulusni balog'atga etganlariga qadar boshqarishdan iborat bo'lgan. Tarixda ba'zi otaliqlar hokimiyatni o'z qo'llariga olgan hollar ham bo'lgan. CHunonchi, ashtarxoniyalar sulolasi hukmronligi davrida (1599—1753) Balxda Maxmudbiy otaliq (XVIII asr boshlari), Mangitlar sulolasi hukmronligi davrida (1753—1920) Buxoroda Muhammad Raxim otalik (1753— 1758) mana shunday yo'l orqali hokimiyatni egallagan.

**Sohibqiron** — 1. Quyosh tizimidagi katta sayeralardan ikkitasini bir — birini tusish paytida to'g'ilgan odam. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatli yulduzlar Zuxra va Mushtariy sayeralari bir-birlariga yaqinlashgan paytda tug'ilgan ekan. Munajjimlarning fikriga ko'ra, bunday odam baxtli, ulug' martsyuali bo'lishi muqarrar sanalgan. Amir Temurning Sohibqiron deb atalishi ham shundan. Sohibqiron so'zining asl ma'nosi «baxtier podshox», «qudratli podshox» demakdir. 2. SHarq mamlakatlarida obro'li, g'olib podsholarga berilgan unvon. O'rta Osiyoda dasglab Amir Temurga shunday unvon berilgan. Ma'lumki, Amir Temur o'zining harbiy muvaffakiyatlariga o'zining kuchli qo'shini bilan erishgan. U qo'shinni

o`ntalik askariy birikmalardan iborat lashkarlardan tuzgan. Lashkar ush minglik bo`lsa — **tuman**, minglik esa — **xazora**, yuzlik — **xushun**, unlik esa — **xayl** deb nomlangan. Ularga boshchilik qilgan lashkarboshilar esa **tuman ogasi**, **mirikazora**, **qo`shinboshi**, **aylboshi** deb yuritilgan

**Amir** — Mo`g`ullar istilosidan so`ng Oltin Urda, keyin O`rta Osiyo va eronda mug`ul va turk qabilalari birlashmasi — ulus boshlig`ining unvoni ham amir deb atalgan. Sohibqiron Temurning unvoni ham amir bo`lib, tarixda Amir Temur deb yuritilgan. XVIII asr oxiridan boshlab, Buxoroda mang`it sulolasiga mansub bo`lgan hukmdorlar ham o`zlarini amirlar deb yuritishgan.

**Amirlik** — musulmon mamlakatlarida amir tomonidan boshqariladigan mamlakat XVIII asrning o`rtalaridan boshlab Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb yuritilgan.

**Xon** — turkiy xalqlar va mo`g`ul hukmdorlarining unvoni. Dastlab qabila boshlig`i, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar va xorazmshoxlar davrida viloyat yoki shahar hokimi, mo`g`ul feodal imperiyasida ulus boshlig`i davlatlarda oliy hukmdor xon, podshoxlik qilmagan. CHingiziylarda esa sulton deb yuritilgan Qo`qon, Buxoro (1753 yilgacha) va Xiva xonligida hukmdorlar o`zlarini xon deb ataganlar.

**Xonlik** — xon tomonidan boshqariladigan davlat. O`rta Osiyoda XVI asr oxirida ikkita xonlik — Buxoro va Xiva xonligi vujudga kelgan. XVIII asrda Qo`qon xonligi vujudga kelgan. XVIII asr oxirning oxirgi choragidan Buxoro —amirlik deb yuritilgan.

**Munshi** — O`rta Osiyo xonliklari davrida xonlar yoki ayrim hokimlarning shaxsiy kotibi. Munshi lavozimiga odatda, ma`lumotli va chiroyli ezadigan kishilargina olingan. Munshilar olim va fozil kishilar bo`lganligi uchun oddiy kotiblardan farq qilgan. Ular zimmasiga xon va amirlarning maktub va farmonlarini yozish yuklatilgan. Tarixiy asarlarning aksariyati ana shu munshilar qalamiga mansub. Munshi lavozimida bo`lgan kishilar munshi so`zini taxallus sifatida o`z nomlari ketiga qo`shib qo`yganlar.

**Beklarbegi** — O`rta Osiyoda mavjud bo`lgan yuqori ma`muriy unvon va lavozim Viloyat, katta shaxdr xdkimlari ana shu unvonga ega bo`lishgan. Bu unvon ko`chmanchi xalqlar orasida ko`p ishlatilgan. Beklarbegi lavozimi O`rta Osiyoda

XIX asr oxirigacha saqlangan. Beklarbегining asosiy vazifasi soliq va turli boshqa feodal majburiyatlarining o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash xon farmonlarini amalga oshirish tegishli masalalarni biy, otalilar, oqsoqollar kengashi bilan kengashib xal etishdan iborat bo'lan. Beklarbegilar qo'l ostidagi viloyatlarda alohida vazir shayxulislom, sadr, jonishin (beklar begining muovini) kabi mansablar ham bo'lib, ular bevosita beklar begiga bo'ysunganlar.

**Amiri lashkar** — Temuriylar davlatida keng tarqalgan eng yuqori oliy harbiy unvon. Keyinroq XIX asrda Qo`qon xonligida ham Oliy Bosh Qo`mondonga nisbatan ushbu unvon qo`llanilgan

**Qushbegi** — XV — XVI asrlarda podshox va xonlar qushxonasining mutassadisi bo'lgan. Uning zimmasiga ovni tashkil qilish va o'tqazish vazifalari yuklatilgan.

**Qozikalon** — Buxoro amirligidan dindorlar va mullaarning boshlig'i, ya'ni raisi bo'lgan. SHu bilan birga bu davrda barcha musulmon davlatlarida bo'lgani kabi, Buxoroda ham xuquq masalalari dinga qarashli bo'lib dindorlar qo'lida ekanligi sababli qozikalon barcha xuquq masalalari va armiya ma'muriyatining ham raisi hisoblangan.

**Parvonachi** — XVII — XVIII asrlarda Buxoro xonligida mavjud bo'lgan mansab, vazir muovini, farmon ijro qiluvchi. Parvonachi xon farmonlarini yozib tegishli kishilarga etkazib turgan. YUqori mansabga tayinlangan amaldor parvonachi tomonidan bitilgan farmonni uch kun mobaynida o'z sallasiga qistirib yurishlari lozim edi.

**To`qsabo** — harbiy unvon XVI — XVIII asrlarda O`rta Osiyo xonliklarida xon bayrqq'ni qo`riqlagan maxsus harbiy qism boshlig'i. XIX asrda umuman bir polkdan iborat bo'lgan harbiy qism boshlig'i.

**Nozir** — o`rta asrlarda O`rta Osiyo xonliklarida saroy ta`minoti va uning xarj qilinishini nazorat qilib turuvchi mansabdor. XX asr boshlarida Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida savdo, sanoat, harbiy va boshqa sohalar bo'yicha xalq nozirlari tayinlangan bo'lib, ular o`sha soha bo'yicha ishning borishiga javobgar shaxs hisoblanganlar.

**Iqtisodiy mavzudagi tarixiy atamalar (IX –XVIII asrlar).**

Iqtisodiy mavzudagi tarixiy atamalar ham xilma—xil va ko`pchilikni tashkil qiladi. Birgina temuriylar davrida aholidan bir necha yig'implar olingan. Ularni to`plovchilar, masalan, hosil miqdorini belgilovchilar — **soxib jamoa**, soliq yig'uvchilar — **muxassiloni**, kirimni boshqaruvchilar — **zobitona**, suv taqsimlovchilar — **mirobona** deb atalgan.

**Qopchur** — ko`chmanchi xalqlardan va qabilalardan undirilgan soliq. Qopchur solig'ining miqdori yuz bosh hayvondan birini, ba`zan kirkdan birini tashkil etgan.

**Kalon** — XIII asrdagi er SOLIG'I. Kalon hosildan 10 dan 1 xajmda olingan.

**SHulen** — XIII asrda olingan oziq — ovqat solig'i.

**Suyurg'ol** — biror hukmdor tomonidan alohida xizmat ko`rsatgan shaxslarga berilgan in`om. Suyurg'ol berilgan er nasldan — naslga meros bo`lib o'tgan. Uning egasi davlat soliqlaridan ozod etilib olgan daromadi va mahalliy aholidan o`z ixtiyoricha foydalanish huquqiga ega bo`lgan. O`rta Osiyoda Suyurg'ol Amir Temur hukmronligi davri (1370— 1405)da keng tus olgan. Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning ayrim viloyatlarini shu erlarning sobiq egalari, o`z o`g'illariga, nevaralariga, ba`zan alohida xizmat ko`rsatgan amirlarga, qo`shin boshliqlariga Suyurg'ol qilgan. XVI asrdan boshlab Suyurg'olning avvalgi tartibi o`zgardi. SHayboniylar hukmronligining so`nggi yillari va ashtarxoniylar hukmronligi davrida ayrim qishloqlar er maydonlari, xatgo shu erlardan undirilgan soliqlarning bir qismi ham Suyurg'ol tariqasida beriladigan bo`ldi. XVIII — XIX asrning birinchi yarmida suyurg'ol xarakteri tubdan o`zgarib, uning faqat merosiyli saqlanib qoldi.

**Tarxon** —1. O`rta asrlarda turkiy xalqlardagi faol nomi, 2.O`rta Osiyo xonliklarida feodallarning davlat soliqlaridan ozod qilingan, er—suv, mol—mulklari.

**Sarrof** — shahar ko`chalari va rastalarida o`irib, kishilarning yirik pullarini maydalab, qimmatbaho buyumlarini pulga almashtirib beruvchi shaxs. Sarroflar chet eldan kelgan savdogarlarning pullarini mahalliy pullarga almashtirib berish, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush va boshqalarni aniqlash, ularning bahosini belgilash, ayrim kishilarning omonat pullarini, buyumlarini ma`lum muddatgacha saqlab berish kabi ishlar bilan ham shug'ullanganlar. Ilgari O`rta Osiyoning xar bir shaxrida sarroflik bilan shug'ullanuvchilar bo`lgan.

**Amlok** — katta er egalari, mulklar, er—suv, kishi tasarrufidagi narsa va buyumlar amlok deyilgan. Buxoro amirligida soliqni taqsimlash birligi hisoblangan.

XVI — XIX asrlarda Buxoro va Qo`qon xonliklarida feodal er egaligining bir turi bo`lib, davlat oldidagi xizmatlari uchun shaxzodalar, lashkarboshilar va amaldorlarga in`om qilingan er — suv amlok deyilgan.

**Begar** — O`rta Osiyoda o`rta asrlarda mavjud bo`lgan majburiy ishlab berish majburiyati bo`lib, mehnatkash xalq xon va mahalliy hukmdorlar tarafidan davlat va feodallarning turli qurilishlari, jumladan, qal`a, saroy, yo`l qurilishi, kanal va ariqlar qazish kabi ishlarda tekinga ishlab berishga majbur qilingan. Masalan, Abdullaxon II ning (1583—1598) hukmronli davrida, uning maxsus farmoni bilan mashxur Juyboriy xo`jalaridan Xo`ja Sa`dning erlariga Vaxshdan suv chiqarish uchun ariq qazishga Xisor, Dexnov, Qabodien va SHaxrisabzdan 10 ming kishi safarbar qilingan.

**Iqto`** — o`rta asrlarda YAqin va O`rta SHarq mamlakatlarida hukmdor tomonidan feodalga katta xizmatlar evaziga in`om qilingan chek er. Odatda Iqto` umrbod berilmay, hukmdor uni istagan vaqtda qaytarib olib, boshqa kishiga tortiq qilish mumkin bo`lgan. Iqto` xaqidagi dastlabki ma`lumotlar VII asr oxiriga mansub arab manbalarida uchraydi. IX asrga kelib halifa tomonidan arab amiriga idora qilish uchun berilgan viloyatlar ham Iqto` deb atala boshlagan. Amir o`zi hukmronlik qilaetgan ushbu viloyatlar solig`ini butunlay yoki qisman o`zlashtirish xuquqiga ega bo`lgan. Iqto` erlari davlat mulki hisoblangan, lekin IX asrdan boshlab feodalning xususiy mulkiga aylana boshlagan. Temuriylar davrida Iqto` o`rnida tiyul va Suyurg`ol, boburiylar saltanati davrida esa jog`ir atamallari qo`llanilgan.

**Osiyo puli** — tegirmon puli ham deyilgan. Buxoro amirligida xar bir suv tegirmonidan yiliga 20 tangadan 100 tangachaga miqdorida olinadigan soliq.

**Alaf puli** — O`rta Osiyo xonliklarida yaylov, bedazor, mevali bor va uzumzorlardan olinadigan soliq.

**Bazzoz** — ip — gazlama bilan savdo qiladigan do`kondor qadimda bunday do`kondorlar O`rta Osiyo bozorlarida ko`p bo`lgan. Bazzozlar gazlamalarni ot — aravalarga ortib, uzoq qishloqlarga olib borib sotishgan.

**Bakovul** — turli davrda turli xil ma`nolarni anglatgan 1.XVI — XIX asrlarda belgilangan joylarda savdogarlarning tamg`a, ya`ni boj solig`ining to`plab o`tishlari ustidan nazorat qilib turgan kichik mansabdagi harbiy xizmatchi,

2.XV asrdan boshlab podsho, xon va lashkarga ovqat tayirlash ustidan nazorat qilib turuvchi harbiy mansabdor. Lashkarga maosh va ulufa, ya'ni oziq-ovqat taqsimlash ham bakovullar zimmasiga yuklatigan. Ular bovurchilardan bir daraja YUqori hisoblangan,

3. XVIII — XIX asrlarda va XX asrning birinchi choragida hozirgi Buxoro, Samarqand, Qashkadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududlarida tuylarda taom tayirllovchi pazanda ham bakovul deb atalgan. Pazandalar ustidan nazorat qilib turuvchi shaxs esa bakovulboshi deb atalgan,

4.Hozirgi kunda respublikamizning Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari to'ylarida kurash, uluq (ko'pkari), poyga musobaqalarini boshqaruvchilar, hamda tuylarda taom tayirlash ustidan nazorat qiluvchi kishilarni ham bakovul deb atashadi.

**Avorizot** — XIII asrdan O'rta Osiyoda mavjud bo'lib, er egasi yoki hokimning xo'jaligida ishlab berish majburiyati.

**Arbobona** — Buxoro amirligida arboblar foydasiga xalqdan yig'ib olinadigan soliq.

#### **Og'irlik va uzunlik o'lchov birliklarini ifodalovchi atamalar.**

**Barid** — 1 CHopar, xat eltuvchi, pochta'on, 2 XIV — XVI asrlarda O'rta Osiyo xalqlarida keng qo'llanilgan masofa o'lchovi bo'lib, ikki farsax, ya'ni taxminan o'rtacha 12 km ga teng yo'l bo'lgan.

**Bolish** — mo'g'ullar imperiyasida tillo pul birligi bolish, 8 misqol, u 2 donga teng bo'lgan.

**Botmon** — SHarq mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyoda Qadimgi davr va o'rta asrlarda mavjud bo'lgan og'irlik o'lchovi birligi. Botmon turli davrlarda turli joylarda miqdori o'zgarib turgan. Masalan XIX asrda bir botmon Xivada 20,16 kg dan 40,95 kg gacha, Buxoro va Samarqandda –8 pud (1 pud 16 kg) ya'ni 131,44 kg Fargonada – 8–10 pud ya'ni 131,44 kg dan 163,800 kg gacha, Toshkentda – 10,5 pud ya'ni 171,99 kg ga teng bo'lgan. SHuningdek, O'rta Osiyoda botmon sifatida er o'lchovi sifatida ham qo'llanilgan, ya'ni bir botmon og'irlikdagi bug'doy sepilishi mumkin bo'lgan er bir botmon hisoblangan bu taxminan bir gektarga teng satx o'lchov belgisi bo'lgan.

**Gaz** — SHarq mamlakatlarida taxminan 62 sm dan 91,5 sm ga teng bo'lgan uzunlik o'lchov birligi.

**Dinor** – o`rta asrlarda Arab halifaligi hududida ishlatilgan tilla pul. XIV asrda Movarounnahrda bir dinor ikki misqol kumushga teng bo`lgan. Bir misqol 4,53—4,55 grammni tashkil qilgan.

**Dirham** — o`rta asrlardagi arab kumush tangasi. XIV asrda Movarounnahrda dirham 3g`1 (uchdan bir) misqol og`irlikdagi kumush tanga bo`lgan. Og`irligi 3,12 grammga teng.

**Dong** — biron narsaning oltidan bir qismi, dinor yoki dirhamning oltidan bir qismiga to`g`ri keladi (bir dirham 2 kirot, bir qirot 0,19 gr ga teng), XIV – XIX asrlarda bir Buxoro dongi 0,8 kg ga teng bo`lgan.

**Jav** — og`irlik o`lchovi, arpa donasi, 0,045 grammga teng bo`ladi.

**Zar`** — uzunlik o`lchovi, 107 sm ga teng.

**Zira`** — masofa o`lchovi, taxminan 79,8 sm ga teng.

**Istor** – og`irlik o`lchovi to`rt yarim (21 gr) misqolga teng.

**Kurux** — masofa o`lchovi, taxminan 2 km.

**Misqol** — og`irlik o`lchovi birligi. SHarq mamlakatlarida qimmatbaho toshlarning vaznlarini aniqlash uchun ishlatilgan o`lchov birligi. VI — VIII asrlarda Samarqandda bir misqol 4,6 grammga, o`rta asrlarda O`rta Osiyo hududida bir misqol 4,25 grammga teng bo`lgan. XIX — XX asrlarda Farg`onada bir misqol 4,53—4,55 grammga teng bo`lgan og`irlik o`lchovi hisoblangan.

**Nimcha** — og`irlik o`lchovi, 400 gr dan ortiq.

**Kol** — 4, 53—4, 55 grammni tashkil etgan.

**Tanob** – O`rta Osiyo xonliklarida ekin maydonini o`lchash uchun ishlatiladigan yuza birligi 1 tanob 3600 m kv.

**Farsax (farsang — parsang, porasang)** — SHarqda, jumladan O`rta Osiyoda Qadimdan ishlatilib kelgan masofa o`lchov birligi. Bir farsax 9—12 ming qadamga yoki 6—8 km ga teng bo`lgan.

**CHaksa** — O`rta Osiyo hududida Qadimdan to XX asr boshlariga qadar ishlatilib kelingan og`irlik o`lchov birligi. Turli joyda turlicha vazni bildirgan, Xo`jand atroflarida qariyb 1 kg, Namanganda — 5,3 kg, Qo`qon atroflarida — 4,6 kg yoki 5,1 kg bir chaksa x, isoblangan.

**Jarib** — 958 kv.m.ga teng er maydoni.

Mavzu bo`yicha nazorat savollari:

1. Arablar istilosi qanday oqibatlariga olib kelgan?
2. Islom dinining kirib kelishi Movarounnahr aholisi hayotiga qanday ta'sir qilgan?
3. Toxiriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot qay tarzda edi?
4. Mo'g'ullar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
5. Temuriylar hukmronligi davrida boshqaruv tizimida qanday islohotlar amalga oshirilgan?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Axmedov B. Tarixdan qisqacha izohli lug'at. –T., 1977.
2. Baykova N.B. O nekotoryx vzoimootnosheniyax v sfere russkoy sredneaziatskoy torgovoy terminologii // ONU. 1963.N3.
3. Bekmuhamedov X. Tarix terminlari izohli lug'ati. –T., 1978.
4. Bobur Z.M. Boburnoma. –T., 1990.
5. Ivanov P.P. Iz oblasti Sredneaziatskoy xozyaystvennoy terminologii. 'Izv. AN. OON., ser VII, 1935 №8.
6. Istoricheskaya entsiklopediya. T. 1—12. –M., 1961—1972.
7. Islom spravochnigi. –T., 1989.
8. Miller B.V. Persidsko— russkiy slovar'. –M., 1953.
9. UME. 1–2 j. –T., 2000.
10. Fomchenko A.P. O'rta asrlar tarixidan izohli lug'at. –T., 1979.
11. Choriev Z. Tarix atamalarining qisqacha izohli lug'ati. –T., 1999.

### **3–mavzu. O'rta asrlar Yevropa mamlakatlarining tarixiy atamalari.**

**Maqsad:** Talabalarga o'rta asrlar davomida Yevropa mamlakatlari mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, siyosiy-harbiy mavzudagi tarixiy atamalarning paydo bo'lishi hamda ularning qo'shni mamlakatlarga tarqalishi jarayoni haqida etarlicha ma'lumot berish.

#### **Reja:**

- 1. Ijtimoiy — iqtisodiy mavzudagi atamalar.**
- 2. Diniy mavzudagi tarixiy atamalar.**
- 3. Siyosiy—harbiy mavzuga oid atamalar.**

O'rta asrlar davri uzoq davrni — milodning V—XVII asrlarini o'z ichiga olib, uni dunyoning barcha xalqlari o'z boshlaridan kechirganlar. Ma'lumki, Qadimgi dunyo tarixida quldorlik jamiyati asosan SHarq mamlakatlarida o'zining yuksak cho'qqisiga erishgan edi. Uning so'nggi davrida yuksak rivojlanishi markazi asta sekin G'arb dunyosiga ko'chdi.

O'rta asrlar tarixidagi eng muhim voqealar qatorida xristian va islom dinlarining paydo bo'lishini alohida ta'kidlash lozim. Xuddi ana shu o'rta asrlarda buyuk

geografik kashfiyotlar ham sodir bo`lib o`tdiki, u Yevropa xalqlari hayotida yangi davrni ochib berdi. Kapitalistik munosabatlar, ilk kapitalistik korxonalar ham o`rta asrlarning so`nggi davrida shakllandi. Lekin o`rta asrlar davri urushlar, ocharchilik va tabiiy sharoitlar ancha qiyin kelgan yillar bilan ham izohlanadiki, albatta, bu ham o`sha davr tarixida o`zining mash`um asoratlarini saqlab qolgan.

O`rta asrlar tushunchasini mazmunan boyitgan feodalizm — kishilik jamiyati taraqqiyotida V asr oxiridan va XVII asrning o`rtalarigacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Feodalizm o`z taraqqiyoti yo`lida uch bosqichni bosib o`tdi. Feodalizm genezisi (V asr oxiridan XI asrgacha), rivojlangan feodalizm (XI — XV asrlar), so`nggi feodalizm (XVI asr va XVII asrning birinchi yarmi). Jahonning ayrim mintaqalarida feodal munosabatlari saqlanibgina qolmay, balki uning hukmron mavkei keyingi davrlarda ham davom etdi va endi uning mazmuni (kishilik jamiyati tarixi masshtabida) uning o`sib borayotgan darajasi bilan emas, balki maydonga kelayotgan va tobora mustahkamlanib borayotgan kapitalistik munosabatlarning darajasi bilan belgilanadigan bo`lib qolgan edi.

### **Ijtimoiy — iqtisodiy mavzudagi atamalar.**

**Feod** — (lot.) O`rta asr G`arbi Yevropasi manbalarida er, mansab va daromadlarni belgilashda qo`llanib kelingan lotincha termin. G`arbi Yevropa feodalizm davrida sen`or tomonidan harbiy xizmatni o`tash va boshqa bir qator majburiyatlarni bajarish sharti bilan foydalanish uchun meros bo`lib o`tadigan qilib in`om qilingan er—mulk. O`rta asrlarda Frantsiyada feod «**f`er**», Angliyada — «**fi**», Germaniyada esa «**len**» deb atalgan.

**Barshchina** — kapitalizm davrigacha bo`lgan er rentasi shakllaridan biri: krepostnoy dehqonning pomeschik xo`jaligida xaq olmasdan majburan mehnat qilish: ishlab berish rentasining ruscha nomi. Barshchina va unga mos keladigan xo`jalikni barshchina usulida tashkil etish feodalizm davrida barcha mamlakatlarda tarqalgan edi. Xo`jalikning barshchina sistemasi bo`lganida krepostnoy dehqon xaftaning muayyan kunlarida shaxsiy mehnati bilan unga tegishli bo`lgan erni amalda va xuquqiy jixatdan o`ziga tegishli ish quroli yordamida ishlar, xaftaning qolgan kunlari esa pomeschik erida pomeschik uchun ishlab berar edi. Er egasi qo`shimcha vaqtni o`z foydasiga o`zlashtiradi. Ilk o`rta asr davrida G`arbi Yevropa dehqonlarini barshchina usulida ekspluatatsiya qilish kengaya borib, XI — XIII

asrlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va buning natijasida shaharning qishloqdan ajralib chiqish boshlashi, sinfiy kurashning keskinlashuvi, dehqonlarning feodal erlaridan shaharlarga va yangi erlarni qidirib, ommaviy ravishda boshqa joylarga ketib qolishlari ta'siri ostida obrok sistemasi barshchina sistemasini siqib chiqara boshladi. Ishlab berish rentasi oziq-ovqat rentasi bilan, so'ngra esa pul rentasi bilan almashtirildi. XIV—XV asrlarda Yevropaning ko'pchilik mamlakatlarida feodallarning dehqonlarga yangi xujumi boshlanib, feodal zulmi kuchaytirildi va barshchinani qisman tiklash yo'lida harakat qilindi. Ularning bu urinishlariga dehqonlar bir qator yirik qo'zg'olonlar bilan javob berdilar va Angliya, Frantsiya kabi mamlakatlarda feodallar barshchinani qat'iy tiklash niyatlaridan voz kechishga majbur bo'ldilar. Natijada uzil—kesil obrok sistemasiga o'tdilar. Dehqonlarni barshchina usulida ekspluatatsiya qilish qoldiqlari Pol'sha, Vengriya va Ruminiyada XX asrgacha saqlanib qoldi.

**Obrok** — feodal er rentasining ikki formasini ya'ni maxsulot (natura obrogi) va pul (pul obrogi) shakllarini bildirgan atama. Bu ikkala shakldagi obrok ham dehqon xo'jaligida ishlab chiqariladigan qo'shimcha maxsulotning (yoki uning pul ekvivalentining) feodal tomonidan o'zlashtirilishini bildiradi.

**Al'menda** — germanlarda o'rta asrlarda qishloq jamoalarining a'zolari umumiy foydalanadigan er—mulklari (o'tloqlar, o'rmonzorlar, xaydaladigan erlar). Al'menda —mulklari qishloq, jamoalari asoratga solinganidan keyin ham saqlanib qoldi. XI —XIII asrlarda al'menda ancha qisqardi, chunki aholining o'sishi va boshqa sabablarga ko'ra al'menda hisobiga erlar bo'lib beriddi. Bundan tashqari feodal al'mendani yakka o'zi boshqarishga, uni o'z domeniga qo'shib olishga intildi. Krepostnoylik qishloqlariga tovar—pul munosabatlari kirib kelishi bilan al'mendaning ahamiyati oshadi, u shiddatli sinfiy kurash ob'ektiga aylanadi. Al'menda uchun kurash XIV — XVI asrlarda barcha dehqon qo'zg'olonlarida katta rol o'ynaydi. Kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi al'mendadan foydalanishda tub burilishni keltirib chiqardi. Angliya lordlari uni uz mulkiga aylantirdilar, G'arbi Yevropaning boshqa mamlakatlarida al'menda bo'lib yuborildi, bunda feodal — pomeschik uning katta qismini qo'lga kiritib qoldi.

**Aristokratiya** — hukmron sinfnin imtiyozli tabaqasi. Feodal jamiyatda aristokratiya feodallar hukmron sinfinin unvonli. YUqori tabaqasi. Absolyutizm

davrida aristokratiya tarkibiga eng yirik ruhoniylar va dunyoviy er egalari ham emas, saroy dvoryanlarini ham qoʻshgan edilar. Angliya (XVII asr) va ayniqsa Fransiya (XVIII asr) burjua revolyutsiyalari feodal aristokratiyaga zarba berdi, ammo ular cheklangan revolyutsion boʻlganliklari sababli feodalizm qoldiqlarini tamomila tugatmadilar, aristokratlar esa ilgari imtiyozlarini va erlarini bir qismini saqlab qoldilar. Burjuaziya hukmronligi davrida aristokrat muhim siyosiy rol oʻynashini davom ettirdi.

**Bank** (oʻrta asrlarda) — feodal davrida tovar—pul munosabatlarining rivojlanishi banklarga zaruriyat keltirib chiqardi. Bank operatsiyalari sudxoʻrlik va pul maydalash yoki ayirboshlash ishi bilan bogʻliq edi, chunki tarkibida turli miqdorda oltin va kumush boʻlgan xar xil pullar mavjudligi tufayli ayrim mamlakatlar va feodal knyazliklari pullarini boshqa mamlakat pullari bilan ayirboshlab turishi kerak edi. Oʻrta asrlarda bank ishi dastavval pul munosabatlari barvaqtroq rivojlana boshlagan Shimoliy Italiya respublikalarida vujudga keldi. Italiya banki pul ayirboshlash, sudxoʻrlik, bir mamlakatlarida ham rivojlandi. Xususiy shaxslar (asosan italʼyanlar va yaxudiyalar) bilan bir qatorda bank operatsiyalari bilan (ayniqsa, sudxoʻrlik bilan) Rim kuryasi va ruhoniylar ritser ordenlari ham shugʻullandi. Bank operatsiyalari, ayniqsa, ssuda (qarz) berish qaltis ish edi, chunki yirik feodallar va qirollar koʻpincha qarzni qaytarishdan bosh tortardilar, natijada bankir xonavayron boʻlardilar. Florentsiya bankirlari Medichiga xatto qirollar va imperatorlar ham qaram boʻlib qolishgan edi, ularning oʻzlari esa Florentsiyaning hukmronlari (tiranlari) boʻlib qoldilar.

**Benefitsiy** — Gʻarbiy Yevropada ilk oʻrta asr davrida saroyda, maʼmuriy organlarda koʻpincha harbiy sohada muayyan xizmat qilish formasidir. SHu sababli odatda benefitsiy deganda erga harbiy (ritsarlik) xizmatini oʻtash sharti bilan egalik qilish tushuniladi (bu prekariydai farqli oʻlaroq, asosan, dehqonchilik tipidagi er egaligi edi). Benefitsiy umrbod beriladi. Er olgan kishining belgilangan shartlari bajarmasligi er egasining benefetsiyini bekor qilishga sabab boʻlardilar.

Yer olgan kishi vafot etganida benefitsiy yoki yangi shartnoma asosida vorisga oʻtkazilardi yoki ilgari er egasiga k,aytarib berilardi. Benefitsiyning tarqalishi Franklar davlatidagi agrar tuzumda VIII asrda roʻy bergan oʻzgarishning ifodalaridan biri boʻldi. Mulknii tamomili inʼom qilish oʻrni «benefitsiy» sifatida umrbod

foydalanish uchun sovg'a qilish egalladi. Benefitsiyning vujudga kelishi franklar jamiyatining ijtimoiy strukturasi katta ta'sir ko'rsatdi. Benefitsiylarning harbiy qatlami vujudga kelib, u erga eglik qilish jixatidan qirol hokimiyatiga bog'langan holda yangi ijtimoiy zaxirani yaratdi. Benefitsiyni k, irollargina emas, balki boshqa yirik feodallar ham berardilar. Natijada ayrim feodallar o'rtasida erga egalik xuquqi sohasida aloqalar vujudga keldi. SHu tarzda benefitsiy franklar davlatining mustahkamlanishiga xizmat qildi. Ammo feodallashish jarayonida benefitsiyalar uz mulklarini merosga aylantirishga tobora ko'proq intiladilar, bo'nga birinchi galda yirik er egalari muyassar bo'ldi. XI — XII asrlarda benefitsiyning umrbod beriladigan in'omdan merosga qoldiriladigan feodal mulkiga — feodga aylanishi feodallashish jarayonining muhim tomonlaridan biri bo'ldi. Ilgari qirol bilan chambarchas bog'langan benefitsiy egalari tobora mustaqil bo'la borib, ularning ko'plari tamomila erkin bo'lib olishdi. Yirik benefitsariylar qirol qoldirgan qudratliroq bo'lib qoldilar, bu esa qirol hokimiyatining zaiflashuviga va davlatning bo'linib ketishiga sabab bo'ldi. Karl Martell boshlagan hamda uning o'g'li Pipin va nabirasi Buyuk Karl davom ettirgan agrar to'ntarishning natijasi ana shunday bo'ldi.

Benefitsiyga Rus'da «milost'» (exson), keyinchalik pomest'e, Vizantiyada — proniya, arab davlatlarida iqto, Hindistonda — jagir atamaları taxminan muvofiq keladi.

Katolik cherkovida benefitsiy — cherkov lavozimini va u bilan bog'liq bo'lgan daromadlarni bildiradi.

**Gayda** — Angliyada ilk o'rta asr davrida bir oilaga tegishli jamoa eri. Erning o'rtacha xajmi 120 akr xaydalgan erni tashkil kiladi (1 akr— 0,4 gektarga teng). Xaydalgan er bilan bir qatorda gaydaga yaylov erlari ham kirardi.

**Ganza** — XIV— XVI asrlarda (ragman 1669 yilgacha) Lyubek boshchiligida bo'lgan shimoliy nemis shaharlarining savdo ittifoqi ganzadir. XI — XII asrdagi nemis savdogarlarining vorisi sifatida vujudga keldi. Nemis savdogarlari SHimoliy va SHarqiy Yevropa savdogorlar nisbatan zaif bo'g'gan sharoitda nemislarning slavyan mamlakatlarining mustamlakaga aylantirish sohasidagi muvaffakiyatlardan foydalanib va nemis ritsarlik ordenlarining harbiy kuchlariga olgan—edilar. XIII asrning boshlarida SHimoliy nemis shaharlarining ayrim guruhlari, boshqa mamlakatlarda savdo imtiyozlarini qo'lga kiritdilar va u erda

(avvalo Golland, Visbi shaxrida) o'z kontoralarini asosladilar, bu erdan nemis savdogarlari Novgorodga kirib keldilar. XIII asrning ikkinchi yarmida SHimoliy va Boltiq dengizlari o'rtasida qo'ltiq bo'ylab o'tadigan yo'lni himoya qilish va birgalikda pul chiqarish uchun Lyubek, Gamburg, Lyuneburg, SHtral'zund va boshqalar o'rtasida bitim tuzildi. 1356 yili «**nemis Ganzasi**» degan nomni olgan va 70 shaharni birlashtirgan ittifoq 1367 yilda shaharlarning birinchi umumiy s'ezdida uzil—kesil shakllandi. Ganza shaharlarida iqtisodiy hayotning negizi asosan savdoda bo'lib, hokimiyat savdogarlar patritsasi qo'liga o'tgan edi. Ittifoq chet ellar bilan savdoni monopolizatsiya qilibgina qolmay, patritsiylar hukmronligini ham saklar edi. Ganza mustaqil siyosiy organizmga aylanib, Germaniya imperiyasining tarkibiy qismlaridan bo'lib qoldi. Uning qudrati Daniya bilan urushda (1367– 1370) namoen bo'ldi, bu urush Ganzaning to'la g'alabasi bilan tugallandi. Bu — Ganzaning eng ravnaq topgan davri bo'ldi. Uning tanazzuli XV asr o'rtalarida boshlandi. Ganza shaharlarida tsex hunarmandlarining qo'zg'olonlari ko'tarildi. Ganzaning ayrim a'zolari o'rtasida raqobat kuchayib, bu narsa Germaniyadagi mustahkamlanib olgan hududiy knyazlarga Ganza shaharlarini buysundirishga imkon berdi, natijada turli viloyatlardagi Ganza shaharlari o'rtasida aloqa zaiflashib qoldi. Angliya va Niderlandiyada sanoat va savdoning o'sishi ularga Ganzada ustunlik qilish imkonini yaratdi. XV asr oxirlarida markazlashgan Rus' davlati tarkib topaetgan davrda Ivan III Novgorodni Moskvaga qo'shib olgandan keyin (1478) Ganza savdogarlari shahardan haydab chiqarildi. Amerikaning va Xindistonga savdo yo'lining ochilishi, jahon savdosi markazlarining Atlantika okeaniga ko'chishi Ganzaga uzil—kesil zarba berdi. Ganza shaharlarining oxirgi s'ezdi 1669 yilda bo'ldi.

**Qacp (qal'a)** — feodal hukmronning istehkomli turar joyi. Feodal jamiyatda qasr krepostnik — feodalning harbiy bazasigina bo'lib qolmay, feodal er mulkining xo'jalik markazi sifatida ham katta rol' o'ynagan. Dushman xujum qilgan vaqtlarda qasr atroflaridagi aholiga boshpana hamda atrofdagi erlarga va u erlardan olib o'tiladigan maxsulotlardan o'lpon yig'ish va savdagorlarni talash imkonini berar edi. Sen'orning tayanchi bo'lgan qasr atrofidagi aholining doimo daxshatda saqlab, sen'orga aholini siyosiy jixatdan buysundirish va ekspluatatsiya qilish imkonini berardi. XIV asr o'rtalarida g'arbiy Yevropada o't ochuvchi qurollarning tarqalishi

qasrning harbiy ahamiyatini asta—sekin yo`qotib bordi, feodal tuzumning burjuaziya tuzumi bilan almashtirilishi esa uni xo`jalikva siyosiy markaz ahamiyatidan ham maxrum etdi.

**SHerif** — frank davlatida Graf qanday funktsiyalarni (harbiy, sud, ma`muriy—politsiyachilik) ado etgan bo`lsa, Angliyada shunday funktsiyalarni ado etuvchi mansab.SHerif grafliklarning boshida turgan. Qadimgi aslzodalar nasabi bo`lgan — el`dermen bilan bir darajada bo`lib qoladi.

**SHlyaxta** — Pol`shada dvoryanlik. Dastlab shlyaxta — bu ritsarlik, oliy feodallarning quyi guruhi (yirik oliy feodallar — majnovladlardan farq qiladigan). XIV — XVI asrlarda shlyaxtaning soslovie sifatida shakllanish jaraenida oliy feodallarning quyi tabaqasi shlyaxtalari uning tarkibiga kirmay qoldi. Lekin uning tarkibiga magnatlar (oliy feodallarning YUqori tabaqasi) kiritilgan edi XVI — XVIII asrlarda Pol`sha — Litva davlatlarida — Rech` pospolita shlyaxta respublikasining davlat tuzumi karor topadi. XVIII asrda Pol`shaning bo`linishidan so`ng shlyaxta qoidaga ko`ra rus dvoryanlari bilan tenglashtiriladi. Rech` pospolitada, ayniksa, Pol`shaning Avstriyaga o`tgan qismida shlyaxtaning oliy unvoni (graf, baron va boshqalar)ni olish keng yoyiladi.

**Sexlar** — feodalizm davrida hamkasblarini feodallarning hamlasidan saqlab qolish va mahsulot ishlab chiqarishi, uni sotishda yagona ustunlikni o`z qo`lida saqlab qolish maqsadida, ma`lum kasb bo`yicha shahar hunarmandlarining birlashmasi tsexlar ma`lum bir ijtimoiy ierarxiyasiga ega bo`lardi. Usta, usta yordamchisi — xalfa va shogirdlarga ega bo`lardi. Faqat ustalargina to`la xuquqli a`zosi bo`la olardi. TSexlarning faoliyati faqat maxsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotish bilangina chegaralanib qolmasdan, balki o`rta asr hunarmandining shaxsiy oilaviy ijtimoiy hayotini ham qamrab olar edi. Xar bir tsex o`z patroni xo`jayiniga ega bo`lib, bir vaqtning o`zida feodal shaxridagi sinfiy kurashning barcha bosqichlarida va ayniksa, XIV asrning «**tsex revoluytsiyalari**» davrida katta rol` o`ynagan harbiy tashkilot bo`lib ham hisoblanar edi. O`rta asr tsexlarining kelib chiqishi sanoatning dehqonchilikdan va shaharning qishloqdan ajralishi bilan bog`liq bo`ldi. TSexlar Italiyada IX — X asrlarda, Frantsiya, Germaniya va Angliyada XI — XII asrlardan boshlab paydo bo`la boshladi. Ko`pchilik g`arbiy Yevropa mamlakatlarida tsexlarning eng taraqqiyot cho`qqisiga etgan davri XIII – XIV

asrlarga to'g'ri keladi. TSexlar odatda mahalliy bozor uchungina maxsulot ishlab chiqaradigan mayda feodal hunarmandchilik ishlab chiqarishi edi. TSex nizomlarida ustalar, usta yordamchilarining ishlash soatlari (ish vaqti), xom ashyo sifati, ishlab chiqarish texnologiyasi, tayyor buyumlarning sifati va miqdori, maxsulotlarni sotish joylari va shartlari hamda xar bir ustaning o'z ustaxonasida ishlashi mumkin bo'lgan usta yordamchilari va stanoklarning soni ko'rsatib quyilgan bo'lar edi. TSexlar o'zlarining dastlabki taraqqiyoti davrlarida katta rol' o'ynagan edilar Ular hunarmandlarning iqtisodiy va xuquqiy mavqelarini mustahkamlardi. TSexlar XII—XV asrlarda G'arbi Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy jixatdan taraqqiy topishiga yordam berdi. Ammo tsex XVI — XVIII asrlarda, ya'ni kapitalizm rivojlanish davriga kelib mamlakatlarning taraqqiyoti yo'lida FOB bo'lib qoldi. TSexlar mayda hunarmandchilik ishlab chiqarishini saqlab qolishga harakat qilgan holda yangi kapitalistik xo'jalik shakllarining rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

**Paj** — O'rta asr Yevropasida aslzoda sen'orlar, yirik feodallarga xizmat qiluvchi dvoryan yigit, mahram.

**Paladin** — O'rta asrlarda G'arbi Yevropada podsho saroyidagi amaldor, to'ra.

**Parlamentlar** — feodal Frantsiyasida oliy sud muassasalari va ma'muriy muassasalar. Dastlab qirolning sud va ma'muriy ishlar bo'yicha kengashi vazifasini o'tadi. Lyudovik IX davridayoq (XIII asr) yirik feodallar yustitsiyasi bilan kurashda qirol yustitsiyasini markazlashtirish va ko'chaytirish quroli bo'lib xizmat qildi. Filip IV CHiroyli 1303 yilda Parijda parlamentni bir yilda ikki marta yig'iladigan ancha muayyan tashkilotga aylantirdi. Parlamentlar taraqqiyoti o'rta asr dunyoviy yuristlarning, ya'ni legistlarning faoliyati bilan bog'langan. Parij parlamentlari bilan bir qatorda provintsiyalarda oliy sud bo'lib hisoblangan provintsiyal Parlamentlar ham paydo bo'ldi. Parlamentlarga a'zolik, Genrix IV (1589– 1610 yillar) zamonidan boshlab sotila boshladi va faoliyat xuquqi sifatida meros bo'lib o'ta boshladi. Parlament a'zolarining axvoli xususiy mulk xarakteriga ega bo'lgan xuquqni aks ettirgani uchun Parlamentlar ma'lum darajada mustaqillikka ega edilar va ular ba'zi qirol xukumati bilan qattiq nizolashib qolar edilar.

**Magnatlar** — G'arbi Yevropada, ayniksa, feodal — krepostnoy Pol'shasi va Vengriyadagi yirik feodallarning nomi.

**Manufaktura** — kapitalistik ishlab chiqarishning yirik mashina sanoati paydo bo`lmasdan ilgari shakli. Amerikaning kashf etilishi va Xindistonga dengiz yo`li ochilishi dastlabki jamg`arish protsessini tezlashtirdi. Ishsiz qolgan juda ko`p ishchilarning mavjuddigi va mablarlarning jamg`arilayotganligi o`ziga xos kapitalistik ishlab chiqarish — manufakturaga o`tish uchun sharoit yaratib berdi. Manufaktura quyidagi asosiy belgilarga ega:

a) kapitalistning ayrim ishchilar mehnatini bir korxonaga birlashtirishi;

b) ishlab chiqarishda kul mehnatining ustunligi;

v) *korxonada mehnatning aniq taqsimlanishi. Manufakturada mehnat taqsimoti ishda chaqqonlik va tezlikni oshirish, ish vaqtidan to`la foydalanish va ish asboblarni maxsuslashtirish orqali samarasi kapitalist tomonidan o`zlashtiriladigan mehnat ish unumdorligini oshirdi. Manufaktura maxsulot bahosini kamaytirish yo`li bilan ishchi kuchi bahosini pasaytiradi, ya`ni zaruriy mehnat ulushini kamaytiradi va kapitalist tomonidan o`zlashtiriladigan qo`shimcha mehnat ulushini ko`paytiradi. Mehnatning manufaktura taqsimoti individual ishchi mehnatini batamom kapitalistga bo`ysundiradi. Manufaktura ishlab chiqarishi keyinchalik aniq mehnat taqsimoti, mehnat qurollarining maxsuslashuvi, malakali ishchilarning etishib chiqishi bilan mashinalashgan yirik sanoatga aylana bordi.*

**Patariya** — XI asrda SHimoliy Italiyada, ayniqsa, Milanda shahar aholisining kambag`allashib ketgan tabaqasining xalq harakati. Pataraiya SHimoliy Italiya shaharlarida .kommunalarning tashkil bo`lishiga yordam qildi.

**Perlar** — Frantsiya va Angliyada oliy aristokratlar namoyandalarining unvoni. O`rta asrlarda kelib chiqqan. TSirol hokimiyatining kuchayishi bilan perlarning ahamiyati pasayib ketdi, perlar unvoni Frantsiyada 1789 yilda bekor qilindi. Angliyada perlar unvoni saqlanib qoldi. Buni meros qilib olgan shaxslar lordlar palatasida qatnashish xuquqiga ega bo`ldilar.

### **Diniy mavzudagi tarixiy atamalar.**

IV — VI asrlarda German xalqlarining buyuk ko`chishida g`oyat muhim rol o`ynadi, bu ko`chish natijasida G`arbi Rim imperiyasi hududida varvarlar qirolliklari tashkil topdi. I—II asrlarda paydo bo`lgan Xristian dini uchta asosiy tarmoqqa bo`linib ketdi: Pravoslav, Katolik va Protestan diniy mazxablari. 1054 yilda Xristian cherkovi SHarqiy (provoslav) va G`arbi (katolik) cherkoviga bo`lindi.

**Pravoslav dini** — asosan greklarda, bolqon slyavanlarida, ruminlarda tarqalgan va Rossiyada chor samoderjaviyasi davrida davlat dini bo`lib hisoblangan. Xristian dini asoslari IV — XI asrlar o`rtasida Vizantiyada rivojlandi. (Pravoslav cherkovining grek— SHarqiy nomi ham shundan kelib chiqqan.)

**Katolik dini** — yoki Rim katolik cherkovi asosan janubi — G`arbi va Markaziy Yevropa hududida, Markaziy va Janubiy Afrika aholiey o`rtasida tarqalgan. Xristian dini mazxablaridan biri katolik dinining markazi Rim cherkov boshlig`i esa Rim episkopi, erdagi papadir. Katolik dini XI asrga kelib mustaqil diniy tashkilot sifatida shakllandi, Katolik dini o`zining o`rta asrlar tarixida ommani ezish.xurofot tarqatish, dunyoviy bilim soxiblarini kuvg`inga solish (Galileyni badkor qilish, J. Brunoni gulxanda yondirish) quroli bo`lib xizmat qilib keldi.

Papalik ital`yan savdo respublikasi bilan ittifoqlikda salb yurishlariga rahbarlik qildi. Katta pul zaxiralariga ega bo`lgan rim— katolik cherkovi (ayniqsa monastirlar) o`rta asrlarda yirik sudxurlarga aylanib ketishdi. O`rta asrlardaek bir qator mazxablarga kirib borgan va keyin rim katolik cherkoviga qarshi karatilgan xaraqatlar ayrim SHimoliy va G`arbi Yevropa mamlakatlaridan katolik dinini siqib chiqarishga olib keldi. CHERkov bu ommaviy xaraqatlarga qarshi ayovsiz reaksiya bilan javob berdi. Katolik cherkovi XIII asrda frantsiskanlar va domtsnikanlarni hamda XVII asrda esa — qattiq «**harbiy**» intizom asosida tashkil etilgan iezo`tlar ordeni kabi monarxlarning kurashchan ordenlarini ishga solib, barcha kuchlarni kurashga safarbar etdi.

**Papa** — Rim episkopi, katolik cherkovining boshlig`i. Papa apostol Petrning noibi hisoblanardi. Unga din va ahloq masalalarida gunohsiz deb nisbat berildi. Papa oliy ruhoniy kardinallar tomonidan odatda o`z ichidan saylab qo`yiladi.

**Kardinal** — katolik chekovining oliy mansabdori. Kardinallar majlisi — **konklav** papani saylaydi.

**Papa viloyati** (yoki CHERkov viloyati) — o`rta Italiyadagi poytaxti Rim bo`lgan cheklanmagan oliy hukmdor — papa boshchiligidagi davlat (756–1870 i.). 1870 yilda Rimning Italiya qirolligiga qo`shilishi natijasida papa davlati yo`q bo`lib ketdi.

**Kostel** — katolik cherkovining nomi.

**Bulla** — muhr bosilgan davlat va cherkov aktlarini tantanali shaklda eʼlon qilishning Gʻarbi Yevropadagi eskicha nomi. Bu nom hozir ham papa hokimiyatidan chiqadigan tantanali aktlarga nisbatan qoʻllaniladi.

**Nuntsiy** — papa elchisi. Bir qator mamlakatlarda nuntsiy diplomatik korpusning boshligʻi hisoblanardi.

**Protestantizm** — XVI asrdagi reformatsiya natijasida Rim – katolik cherkovidan ajralib chiqqan lyuteranlik, kalʼvinizm kabi xristian diniy taʼlimotining umumiy nomi. Protetantlar deb dastlab SHpeyerda (1528) chakirilgan german imperiyasi seymi aʼzolarining reformatsiya harakatiga qarshi kurash xaqidagi koʻpchilikning harakatiga qarshi norozilik bilan chiqqan (protest) ozchilik qismini atashgan edi. Protestantlar Austurdagi (1530) reyxstagda Martin Lyuter tomonidan tuzib chiqilgan yangi liniy taʼlimot asosini takdim etdilar. Keyinroq reformatsiyaning hamma tarafdorlari Protestantlar deb ataladigan boʻldi. SHvetsariyada, Frantsiya va Polʼshada TSvingli va Kalvin tarafdori yoki reformatorlar ham Protestantlar deb atalgan. AQSH, Angliya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda XVI — XVII asrlarda protestantizm negizida vujudga kelgan baptistlar, menonitlar, kvakilar va shoʻnga oʻxshash juda koʻp sektalar mavjuddir.

**Indulʼgentsiya** — oʻrta asrlarda katolik cherkovi ish praktikasida qoʻllanilgan pul barobarida yoki cherkov oldida koʻrsatilgan xizmatlari uchun ayb va gunohlarini kechirish va cherkov jazosidan ozod etilganligi xaqida beriladigan yorliq. Indulʼgentsiya berish bilan uni sharm— xayosizlarcha sotish xalq ommasining gʻazabini keltirdi va bu hol reformatsiya oʻtqazishga qaratilgan harakatning kelib chiqishiga asosiy sabablardan biri boʻldi.

**Inkvizitsiya** — katolik cherkovida XII asrdan to XIX asrgacha mavjud boʻlgan bidʼatchilar ishi yuzasidan ish quruvchi maxsus cherkov sudi. Bu bidʼatchilar va antifekdalar xalq harakati qatnashchilarini sud, tergov qilish va jazolash muassasasi sifatida tashkil etilgan. Inkvizitsiya xar qanday erkin fikr qiluvchilarga, cherkov va u himoya kilayotgan feodal tuzumning xar qanday oppozitsiyasiga qarshi ayovsiz ravishda kurash olib bordi. XV asrning oxirlaridan boshlab faqat bidʼatchilarga va yaxudiyarlarga ham qarshi karatilgan davlat qirollik muassasasiga aylandi. Inkvizitsiya, ayniqsa, Ispaniyada xalqqa xaddan tashqari jabr oʻtkazgan.

**Abbat** — (bosh ruhoniy) boshchiligidagi katolik monastiri. CHerkovning yuqori boshqarish organlari — episkopga yoki papaga buysunadi, abbatga boshqa monastirlar qaram bo`lishi mumkin. Abbat G`arbi Yevropada VI asrda vujudga kelib, o`rta asrlarda diniy sohadagina emas, balki iqtisodiy va siyosiy hayotda ham muhim rol` o`ynadi. U qaram dehqonlarni shafqatsiz ekspluatatsiya qilgan. Abbat o`z tasarrufidagi qishloqlar, er-suvlar, o`rmonzorlar bilan birga feodal mulki (sen`or hisoblanib), feodal jamiyati tashkilotining mustaqil tarkibiy qismi edi. Reformatsiya davridan boshlab, o`zining ilgarigi ahamiyatini yo`qotgan bo`lsada, katolik mamlakatlarida saqlanib qolgan.

**Mitropolit** — mamlakatning barcha ierarxlari o`rtasida bosh o`rinda turadigan ayrim episkoplarning oliy diniy unvoni. Hozirgi paytda pravoslav cherkovida ayrim episkoplarning faxriy unvoni.

**Priorlar** — katolik cherkovidagi ayrim monastirlarning nozirlari.

**Pastor** — protestant ruhoniysi.

**Rekonkista** — V111–XV asrlarda Pirenei yarim oroli xalqlarining arablar va barbarlar tomonidan bosib olingan hududlarini jang orqali qaytarib olishi.

**Episkop** — xristian cherkovlarida yuqori lavozimli ruhoniy. Dastlabki xristian jamoalarida episkop jamoaning boy va e`tiborli kishilaridan saylanardi. CHerkovning xazinachisi bo`lardi. Keyinroq u oliy martabali ruhoniya aylandi. Pravoslav cherkovida episkop davlat hokimiyati tomonidan tayinlana boshladi.

**Klermon yig`ilishi** — 1095 yil noyabrida papa Urban II tomonidan Klermon shaxrida chaqirilgan cherkov yig`ilishi. Bu yig`ilishda cherkov erlari va boyliklarni egallab olish uchun turk — musulmonlarga qarshi salib yurish tashkil etishi xaqida qaror qilingan edi.

**Salib yurishlari** — G`arbi Yevropa feodallarining 1096—1270 yillarda katolik cherkovi tashabbusi bilan Falastindagi xristian Avlielarini musulmonlar dini hukmronligidan ozod qilish uchun olib borilgan bosqinchilik yurishlari.

**Sholastika** — o`rta asrlarda feodal jamiyatning diniy mafkraviy falsafasining umumiy nomi, sholastika xristian dini aqidalariga asoslangan.

**Teologiya** (ilohiyot) – xudo va uning fazilatlarini, diniy aqidalar to`rtisida muquddas kitoblar va cherkov rivoyatlari xaqidagi ta`limot.

**Guschilar harakati** — XV asrning birinchi yarmida CHexiya xalq ommasining feodal ekspluatatsiyasiga, katolik cherkoviga va chet el agressiyasiga qarshi olib borgan ko`p yillik kurashi. Guschilar harakatida CHexiya aholisining turli tabaqalari — dehqonlar, shahar hunarmandlari, burjuaziya va dvoryanlarning kattagina qismi qatnashgan edi. CHex dvoryanlari asosan nemis hukmronlari va katolik cherkovi qo`lida to`plangan cherkov mulklarining musodara qilishga, chex burjuasi esa nemis tirik burjuasini siqib chiqarishga intilar edi. Guschilarning bir qismi din sohasida cherkovni demokratlashtirish, ya`ni fuqaro bilan ruhoniylarning marosimlar o`qtazishdagi tengligini va chex tilida va`z aytishga yo`l quyilishini talab qilish bilan cheklandi. Dehqonlar bilan shahar hunarmandlari qat`iy talablar: din sohasida — Rim cherkovi bilan aloqani uzil—kesil uzish, ijtimoiy sohada erlarni musodara qilish, mulklardan voz kechish, soliq va o`lponlarni yo`qotish talablarini quyishdi. Guschilarning bu qismi o`zlarining istehkomli tayanchlariga aylantirgan joylarni nomi bilan Tabor so`zidan taboriylar deb atadilar. Taboriylarning sul kanoti adalitlar deb nom oldi. YAn Jelivkiy va YAn Jichka boshchiligida asosan hunarmand tabaqalarning 1419 yilgi Praga qo`zg`oloni uzoq davom etgan Guschilar urushlarining (1419—1434) boshlanishi bo`ldi. Avval Guschilarning barcha guruhlarini dushmanga qarshi birga harakat qilishdi. 1420 yilda YAn Jichka CHexiya taxtini da`vo qilgan german imperatori Sigizmund qo`shinlarini tor—mor keltirdi. Turli sinfiy tabaqalardan iborat guschilar tezda bo`linib ketishdi.

**Puritanlar** — Angliyada XVI asrning ikkinchi yarmida kelgan anglichan cherkovini katolitsizm qoldiqlaridan tozalashni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan diniy harakatning qatnashchilari. Puritanlarning diniy g`oyalari kal`vinizmning kuchli ta`siri ostida shakllandi. Puritanlarning sinfiy negizi:

- 1) boy savdo burjuaziyasi;
- 2) burjualashgan er egalari (yangi dvoryanlar) tashkil etdi,

Kal`vinizmning burjuacha mohiyati xech qaerda ingliz puritanchiligidagidek yaqqol namoyon bo`lmagan edi. XVI asr oxirida absolyutizmga qarshi puritanlarning diniy qopozitsiyasppozitsiyaga aylandi.

**Gadoylik ordenlari** — katolik monarxlari ordenlari. Papalikning faol yordamida kambaralchilikni targ`ib qilish va a`zolarining taqvodorlik bilan hayot kechirishini namuna qilish orqali tez—tez tarqalib boraetgan eretiklikni bartaraf etish

mumkin degan maqsad bilan XIII asrning birinchi yarmida tashkil etilgan edi. Gadoylik ordeni monarxlari uz nizomiga muvofiq shaxsiy mol—mulkka, uy-joyga ega bo`lmas va sadaqa orqaligina kun kechirar edilar. Kambag'allikda yashash axdiga hamma vaqt ham rioya qilinavermas edi. Gadoylik ordeni hozirgi kunda ham mavjud, ammo ular faqat nomigagina «gadoylik qiluvchilar» holos. 1964 yilda gadoylik qiluvchilarning ordenining barcha ko`rinishlarida 79.133 kishi bor edi.

**Anafema** — cherkovdan xaydash va la`natlash, Anafema — xristianlar cherkovi o`rta asrlar mobaynida va yangi davrda ba`zi ijtimoiy tafakkurga qarshi kurash uchun qo`llangan ijtimoiy va diniy terror qurolidir. Masalan, Rim papalari 1846 yildayok kommunistik fikrlarni anafema qildilar, so`ngra buni bir necha bor tasdikladilar. Rossiyada provoslaviya cherkovi dehqon qo`zg`olonlarining yo`lboshchilari Bolotnikov, Razin, Pugachyovni anafema qildi.

**Messa** — katolik lituriyasi (xristianlarning ertalab yoki peshin chogi cherkovda qiladigan ibodati).

**Monarxomaxlar** — XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asr boshlarida G`arbi Yevropada qirol absolyutizmiga qarshi chiqqan yozuvchi pulitsistlar. Monarxomaxlar podsho hokimiyatining ilohiy yo`l bilan kelib chiqqanligini inkor etganlar va suverenitet xalqqa tegishli bo`lib va u shartnoma bo`yicha hokimiyatni monarx ixtiyoriga beradi va u shartnomani buzgan takdirda uni taxtdan ag`darib tashlashi yoki uni xatto o`ldirish hukmiga ham ega deyishar edi. Monarxomaxlar «xalq deb xalq ommasini emas, balki yo burjuaziyani, yoki dvoryanlarni tushunishar edi».

**Monahlik** — ko`pchilik dinlarda ruhoniylarning alohida bir ko`rinishi. Monahlik qiluvchilar, ya`ni monaxlar o`zlarining oldiga asketik maxsus cheklashlar, jumladan, oila qurmaslikka o`xshash cheklashlar qo`yadi, Monahlik hamisha oliy cherkov ierarxiasining buyuk tayanchi bo`lgan. CHerkov va davlat homiyligi monahlikning rivoj topishiga va monastirlik jamoasi — dastlab erlar, keyinchalik xotin— qizlar, xatto aralash monastirlarning kelib chiqishiga olib keldi. Yirik monastirlar abbatlik deb ataladigan bo`ldi. Monastirlar cherkovga feodal tuzumidan ancha ta`sirchan kuchga ega bo`lgan qattiq intizom o`rnatilgan apparat, uyushgan kuchlarni berdi. Feodal jamiyatning hukmron sinfi tomonidan qo`llab — quvvatlangan monastirlarning ta`siri va boyligini oshirishga, ularning qullarida katta er mulklari va krepostnoylarning to`planib qolishga yordam berdi. Ular Rossiyada

shunday Sergievlarning daromadi XVII asr boshlariga kelib butun Moskva davlatining barcha daromadini uchdan bir qismini tashkil etgan. XVIII asrda esa 400 monaxga 625 ming krepostnoy dehqon to`g`ri kelar edi. g`arbiy Yevropa o`rta asrlar cherkovi monahlikni rivojlanishini xar taraflama rag`batlantirar va papa abslyutizmning tarafdorlari sifatida chindan monahlik ordenlarining jumladan, frantsiskanlar va dominikanlar ordenining kelib chiqishiga xar taraflama imkon bergan edi. Reformatsiya davrida ayrim mamlakatlarda burjuaziya yoki knyaz`, hokimiyati protestantizm bilan birlashib monahlikni yo`q qilib yubordi, monastir` erlari va mulklarni musodara qildi. Kontrreformatsiya tiklashda katta rol` o`ynaydi.

**Moriskilar** — arablar Ispaniyadan kuvib chiqarilgandan so`ng Ispaniyada qolib ketgan va xristianlikni majburan kabul qilgan, ammo yashirin ravishda islom diniga siginib yuradigan arab aholisining bir qismi. Ular doimo oqsuyaklar va cherkov hokimiyati nazoratida bo`lishar, inkvizitsiya ta`qib qilib turar edi. 1609–1610 yillarda moriskilar Ispaniyadan quvib yuboriladi. Ularning ko`pchiligi SHimoliy Afrikaga kelib joylashadi. Bu Ispaniya iqtisodiga katta zarba bo`lib tushgan edi.

#### **Siyosiy—harbiy mavzuga oid atamalar.**

**Munitsipiylar** — Rim imperiyasidagi o`zini uzi boshqaradigan shahar okrugi. *Xalq*, majlisi, shahar senata va a`zolari dekurionlar yoki kuriollar deb ataladigan shahar kuriyasi. Munitsipiylarning organlari bo`lib hisoblangan.

«**Muqaddas Rim Imperiyasi**» — 962 yilda Germaniya podshosi Otton 1 tomonidan SHimoliy va O`rta Italiyaning buysundirilishi natijasida asos solingan va 1806 yilgacha davr so`rgan o`rta asr imperiyasi.

**Anglo—sakslar istilosi** — german qabilalari — angllar, sakslar, yutlarning Yevropa kit`asidagi Britaniyaga kuchib borishi va uni zabt etishidan iborat uzoq jarayondir.

Anglo – sakslar istilosi V asr o`rtalarida boshlandi va VI asr oxirlarida Britaniyaning tamomila bo`ysundirishi bilan tugallandi. Anglo—sakslar istilosi davrida brittlar deyarli tamomila qirg`in qilindi yoki ular Uel`sga, SHotlandiyaga va qit`aga siqib chiqarildi, ammo ular qisman istilochilar bilan qo`shilib ketishdi.

**Anglo — sakslar** — Angliya hududida VII — X asrlarda anglo — sakslar istilosidan keyin, angllar, sakslar va yut qabilalari aralashuvi jarayonida tashkil topgan va kel`t elementlarini o`z ichiga olgan. Anglo—sakslar elati germanlar zabt

qilgan hududda o`rnashib olishlari davrida urug`—qabila aloqalarining buzilishi hamda orolning shimolida va g`arbida urittlarga qarshi, VIII asr oxirlarida esa skandinavlarning xujumiga qarshi kurashda ularning jipslashuvi sharoitida shakllandi. Avvaliga anglo — sakslar ettita qirollikni tashkil qildilar. Janubiy — SHarqda yutlar qirolligi kent, sakslarning uchta qirolligi. G`arbda Uesseks, janubda Sesseks, SHarqda esseks, anglar qirolligi – SHarqiy Angliya va Nortumbriya hamda o`rtadagi qirollik — Mersiya. Ana shu ettita tarqoq qirolliklar hukm surgan davlatlar tarixda yuncharxiya, ya`ni etti davlatlik davri nomi bilan mashxur. IX asrda barcha qirolliklar bipa Angliya qirolligiga birlashdi.

**Kopun** — Skandinaviya xalqlarida dastlab harbiy yo`lboshchi, feodalizm rivojlangandan so`ng esa podsho.

**Korteslar** — feodal Ispaniyasi va Portugaliyada soslovieli vakillar majlisi. Korteslar degan nom birinchi marta 1137 yil Kastiliyada uchragan. Ispan korteslari ham G`arbning barcha soslovieli vakillar muassasasi kabi hamma aholining manfaatlarini emas, balki faqat dvoryanlar, ruhoniylar manfaatini ifoda etgan. SHaharlar vakillik qilish xuquqini ancha kech oldi. Korteslar davlat hayotiga doir barcha muhim ishlarni o`z qo`llariga olganlar va qirollarning qattiq nazorati ostida tutganlar Absolyutizmning rivojlanishi bilan korteslar batamom barbod bo`lgan.

**Korrexidorlar** — Ispaniya va uning mustamlakalaridagi ma`muriy va sud lavozimi. XIII asrda Avstriyada ta`sis etilgan.

**Korsarlar** — urush vaqtida hukumat ijozati bilan dushmanning savdo kemasini bosib olgan, xususiy dengizchilar.

**Oq gullar bilan qizil gullar urushi (1455—1485)**— Plantegenlarning qirol sulolasidagi ikki yunalish Lankaster (gerbida — qizil gul) va York (gerbida — oq gul) o`rtasidagi ingliz toj—taxti uchun olib borilgan qonli feodal usulining krizisini va xususan yirik mulk xo`jaligi krizisini boshidan kechirayotgan edi. Feodal aristokratiyasi xo`jalik faoliyatidan tobora ko`proq chetlasha boshladi: ular yashashning asosiy manbai qirol saroyining in`omlari, asosiy mashg`ulot esa saroydagi ig`vo — g`iybatlar va feodallar o`rtasidagi urushlardan iborat bo`lib qoldi. Feodal magnatlari o`zaro shiddatli urush boshlab, bir — birlarini xonavayron qildilar va qirib tashladilar. Lankasterlarni asosan kolok SHimol va Uel`s baronlari, Yorklarni esa mamlakatning iqtisodiy jixatdan ancha rivojlangan janubi —

SHarqdagi yirik feodallarning bir qismi qo'llab — quvvatladi. Savdo va hunarmandchilikning tulik rivojlanishidan, kuchli hokimiyat o'rnatishdan manfaatdor bo'lgan yangi dvoryanlar va badavlat shaharliklar Yorklarni qullab—quvvatladilar. Yorklar gertsogi Richard Lankasterlar «qirol» Genrix VI ga qarshi urush boshladi va uni 1460 yilda Nogemton tor—mor keltirib, asirga oldi. Richard vafotidan keyin Ok gul tarafdorlariga uning o'g'li eduard boshchilik qildi. eduard Londonni zabt etgandan keyin eduard IV nomi bilan podsho deb e'lon qilindi. Ammo urush ilgariidek shiddat bilan davom etardi. Genrix VI ni uning tarafdorlari ozod qilib olishdi. Genrix VI ning Frantsiyaga kochib ketgan rafikasi Margarita 1464 yilda frantsuz podshosi Lyudovik XI ning madadiga tayanib, qo'shinlar bilan Angliyaga kaytib keldi, ammo mag'lubiyatga uchradi, eduard IV ning o'zboshimchaligi va feodallar erkiga barham berish yo'lidagi urinishlari uning ilgari tarafdorlarini o'ziga qarshi qilib qo'ydi. Angliyadagi yirik feodal magnatlaridan biri graf Uorvik yordamida Genrix VI yana taxtga chiqib oldi, Eduard esa hokimiyat o'g'risi deb e'lon qilindi (1471). Ammo T'yukaberi yaqinidagi jangda eduardda lankasterlarga qaqshatqich zarba berdi. Genrix VI xal qiluvchi jangdayok yana asir olinib, qirol turmasi Tauerda vafot etdi. eduard IV qirol hokimiyatini g'oyat mustahkamladi va parlamentni ahyon—ahyondagina chaqirib, hukmronlik qildi. Uning vafotidan keyin 1483 yilda ukasi Richard III taxtni qo'lga oldi va eduard IV ning yosh o'g'illarini qatl qildi. Richard III ortikcha qatlarga va tazyiklarga yo'l qo'yganligi sababli lankasterlarni ham, yorkchilarni ham uziga qarshi qilib qo'ydi. Ular lankasterlardan chiqqan Genrix Tyudor tevaragiga birlasha boshladilar. Bosvort yaqinidagi jangda Richard III mag'lubiyatga uchradi va o'ldirildi. Genrix Tyudor Genrix VII degan nom bilan Angliyaning podshosi bo'ldi va Tyudorlar sulolasiga asos soldi. Oq gullar bilan qizil gullar urushi feodal zodagonlari kuchiga putur etkazdi, ularning ko'p qismi kirib tashlandi. Angliyada absolyutizm davri boshlandi.

**Ministeriallar** — o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada qirol' hamda ruhoniy va oksuyak feodallarning xo'jalikva ma'muriy xizmatlarini ado etuvchi xizmatkorlar.

**Marka** — 1) German territorial yoki qishloq jamoasi. Jamoa dehqonchiligida erlarga ishlov berish individual tartibda olib borilgan: xovli qo'rg'onlari xususiy mulkka ajratib berilgan: qolgan erlar esa xovli — joylarga qarab taqsimlab olingan, chetdan yoki devor bilan o'rab olingan, uni buzish esa jarima to'latishi bilan

jazolangan. Bunday tarmoklarga: xaydaladigan erlar, uzumzorlar, ba`zan o`tlok va o`rmonlar kirgan;

2) O`rta asrlarda G`arbi Yevropada maxsus harbiy va ma`muriy bulaklarga ajratilgan bo`lib, markgraflik uz maydoni jixatidan graflikda anchagina katta bo`lib, markgraflik boshida turgan graflar ko`pincha harbiy boshliqlardan bo`lgan. CHunki ular bu chegara viloyatlarning mudofaasi xaqida ham qayg`urishlari kerak edi.

**Ritsarlik** — o`rta asr G`arbi Yevropasida harbiy er egaligi sosloviesi. Feodal munosabatlari shakllana borgan sari ritsarlar alohida soslovie sifatida ajralib chiqq boshladi. Uning vujudga kelishi arablar, vengerlar va normanlar xujumidan mudofaa qilish zarurati turilishi tufayli tezlashgan edi. Otliq armiyani tashkil etgan ritsarlikning asosiy sotsial vazifasi ekspluatatsiya qilinayotgan dezdonlarning itoatda saqlashga karatilgan edi. Ritsarlar o`zlarining sen`orlari bo`lgan ancha yirik feodallardan ularning armiyasida otliq harbiy xizmatni ado etish sharti evaziga olgan pomest`elarini idora kilar edilar. Ritsarlar XIII asrga kelib harbiy tashkilot xarakterini oldi. Ritsarlar salib yurishlarida faol ishtirok etdilar va bu yurishlar davomida bir qator diniy ritsarlik ordenlari ta`sis etildi. O`t otuvchi qurollariing paydo bo`lishn tufayli og`ir qurollangan ritsar otliq armiyalari uz ahamiyatini yo`qota boshladi

**Gertsog** — dastavval Qadimiy germanlar qabila zodagonlari saylaydigan harbiy boshliq, ilk o`rta asr davrida G`arbi Yevropada — qabila knyazi, feodal tarqoqligi davrida — katta hudud egasi. O`rta asr oxirlarida va yangi davrda gertsog — G`arbi Yevropada dvoryanlik unvonlaridan biri.

**Gyozlar** — XVI asrlardagi Niderlandiya burjua revolyutsiyasi davomida:

1) mamlakat erkinligi va din erkinligini Ispaniyadan «qonuniy vositalar» yordamida himoya qilish maqsadida Niderlandiyada 1565 yil tashkil topgan ittifoq a`zolarining nomi;

2) Niderlandiyaga hukmronlik qiluvchi ispanlarga qarshi quruqlikda (o`rmon geelari) va dengizda (dengiz gyozlari) kurash olib borgan xalq qo`zg`olonchilari — partizanlarning nomi. Dengiz gyozlari katta rol` o`ynab, ispan kemalariga xujum qildilar va Ispaniya bilan Niderlandiya o`rtasidagi dengiz aloqalarini deyarli tamomila to`xtatishga erishdilar. 1572 yil 1 apredda dengiz gyozlarining Gollandiya orollaridan biriga borib, Bril` shaxrini egallashlari SHimoliy Niderlandiyaning yangi

qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. bu qo'zg'olon Ispaniya zulmidan ozod bo'lish bilan tugallandi.

**Graf** — ilk feodalizm davrida G'arbda qirol tayinlaydigan okrug boshlig'i. Feodalizm boshlanishi bilan graflar deyarli mustaqil voris hukmronlarga aylanishdi. Feodalizm to'la ravnaq topgan davrda graflar ba'zan yirik feodallarga beriladigan faxriy unvon. Absolyutizm qaror topishi bilan graflik merosga o'tadigan dvoryan unvonlaridan biri.

**Yengilmas armada** — Ispaniya tomonidan Angliyani bosib olish uchun 1588 yilda tuzilgan (130 yirik va 30 kichik kemalar va 2,5 mingdan ortiq qurol aslaxalardan iborat) yirik harbiy flot. 1588 yil 30 mayda Yengilmas armada noshud flot boshlig'i gertsog Medina Sidoniya boshchiligida Angliyaga 19 ming soldatdan iborat desant tashlamoq uchun Lissabondan yo'lga chiqdi. 1588 yil iyul — avgust oylarida beso'nakay ispan kemalari Angliya flota (admiral Xouard boshchiligida) bilan bo'lgan to'qnashuvda kuchli zarbaga uchradi. Ispaniya kemalari orkaga kaytayotganda ularning ko'pchiligi dengiz dovulidan xalok bo'ldilar. Ispanlar bu yurishda 75 kema va 10 ming kishi yo'qotdi.

Yengilmas armada xaloqati ispanlar qudratini bo'shashtirib yubordi.

**Jakeriya** — 1358 yil Frantsiyada dehqonlarning feodallarga qarshi qo'zg'oloni. U uz nomini «Jakbanom» («Oliy—Jak») lakabidan olgan. Frantsuz feodallari dehqonlarni ana shunday deb atardilar. O'sha davrdagi boshqa dehqon harakatlari singari Jakeriyaning asosiy sabablari pul xo'jaligining rivojlanishi va shu tufayli mehnatkashlar ommasini ekspluatatsiya qilishning kuchayishi bo'lgan. Frantsuz dehqonlari 1347—1353 yillardagi vabo oqibatlaridan hamda YUz yillik urush olib kelgan umumiy vayronagarchilikdan nixoyatda azob chekar edilar. Bu qozg'olon 1358 yil ko'klamida Pikardiyada boshlanib, butun SHampanni qamrab oldi va Parijgacha etib keldi. Bu qo'zg'olon et'ven Marsel' boshchiligidagi. Parij qo'zg'oloni bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. Jakeriya qo'zg'oloniga Gil'om Kal' boshchilik qilgan dehqonlar harakati uyushmagan holda edi. Dehqonlar qo'zg'olonidan chuchigan uning sinfiy dushmanlari — feodallar jiplashib, qo'zg'olonni tezda bostirdilar. qishlok aholisi ommaviy qirg'in qilindi. Ammo katta Jakeriya bostirilganidan keyin ham Frantsiyada YUz yillik urush mobaynida dehqonlar yana 2 marta qo'zg'olon ko'tardilar.

Jakeriya soʻzi dehqonlar stixiyali qoʻzgʻolonlarini ifodalovchi soʻz boʻlib kolli.

**Sezarepatizm** — bir odam qoʻlida ikkita oliy hokimiyat: dunyoviy (imperatorlik) va cherkov (papalik) hokimiyatning birlashuvi.

**Toʻsib olish (Gʻov tutish)** — pomeschiklar — er egalari tomonidan dehqonlarning jamoa erlarini bosib olish protsessi. Bu jarayon feodal qishloqlarga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi bilan bogʻlikdir. Toʻsib olishning klassik mamlakati Angliya edi.

Angliyada Toʻsib olishning boshlanishi XV asrning oxiriga toʻgʻri keladi. Bozorda jun narxining oshuvi kunchilikni rivojlantirishga, xaydaladigan erlarni ham yaylovga aylantirishga olib keladi va bu hol oʻrab olishning kuchayishi uchun bir turtki boʻldi. Toʻsib olish orqali erlarni bosib olishda pomeschiklar va Angliya qishloqlarining toʻq tabaqalari ishtirok etdilar. Oʻrab olish XVI asrdayoq qishloqlarning kuchli ravishda tabaqalashuviga va kambarallashuv, ersizlanishiga olib keldi. XVIII asrga kelib oʻrab olish katta miqyoslarda olib borildi va dehqonlarning oilaviy ravishda erdan ayrilib qolishga olib keldi. Dehqonlar ommasi Toʻsib olishga kuchli qarshilik koʻrsatdilar. Toʻsib olish bir necha bor dehqonlar qoʻzgʻoloniga olib keldi. Toʻsib olish Angliyada dehqonlar sinfining batamom boʻlinib ketishi va yollanma ishchilar juda katta sinfning vujudga kelishiga olib keldi.

**Turnir** — oʻrta asrlarda koʻpchilik Yevropa mamlakatlarida qoʻllanib kelingan ritsarlar harbiy musobaqasi. Turnirlarda oʻrta asr harbiy kuchlarining asosiy negizini tashkil etuvchi ritsarlarning jangovar sifatlari namoyish etilardi. Bu Turnirlar Frantsiyadan kelib chiqqan. Turnirlar feodal aʼyonlarining keng ishtirokida ommaviy ravishda oʻtkaziladi. Turnirning oʻtkazilishi maxsus kodes yordamida tartibga solinib turilar va uning bajarilishi ustidan iroedlar nazorat qilib boradilar. XIII asrdan boshlab turnirlar qonli harakatga ega bula boshladi va koʻpincha toʻqnashuvchilarning ogʻir yaralanishi yoki xatto ulimi bilan tugar edi. XVI asrdan shaharliklar va dehqonlar ommasi ichidan yollanib tuzilgan piyoda oʻqchilar paydo boʻlgach, otliq ritsarlar uz ahamiyatini yoʻqotdi va turnir oʻtqazish ham shu bilan birga barham topdi.

**Uniya** (lot. — birlashma) — monarxiya davlatining bitta monarx hokimiyati ostida birlashuv formasi. Uniya koʻpincha nomustahkam xarakterda boʻlar, umumiy monarx hokimiyati esa nominal darajada boʻlar edi. Ayrim hollarda bitilgan shaxsiy

uniyalar keyinchalik mustahkam birlashuvlarga yoki davlatning to'la ravishda bir — biriga qo'shilib ketishiga olib kelgan edi. Cherkovlar bo'linib ketganidan keyin Rim papaligida provoslav cherkovining bot rol' uynashini saqlab qolgan xodda, ammo ibodat qilish va marosimlarni o'tqazish ona tilida olib borish sharti bilan provoslav cherkovini katolik cherkovi bilan birlashtirish uchun cherkov uniyalari tuzishga urinishlar ham bo'lgan

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

- 1. O'rta asrlarda Yevropa xalqlari iqtisodiy hayotida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?**
- 2. O'rta asrlarda Yevropada joylashgan davlatlarning o'zaro munosabati qay darajada edi?**
- 3. Buyuk geografik kashfiyotlar Yevropa xalqlar hayotiga ta'sir qildimi?**
- 4. Yevropada o'rta asrlarda dinga munosabat qay holatda edi?**
- 5. Yevropada kapitalistik munosabatlarning shakllanishi qay tarzda namoyon bo'lgan edi?**

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Istoricheskaya entsiklopediya. T. I — 12. —M., 1962—1972.
2. Semenov V.P. O'rta asrlar tarixi. —T., 1973.
3. Fomchenko A.P. O'rta asrlar tarixidan izohli lug'at. —T., 1979.
4. Entsiklopedicheskiy slovar'. —M., 1987.
5. UME. 1–2–jildi. —T., 2000.

**4–mavzu. O'rta Osiyo xonliklarining tarixiy atamaları (XIX—XX asr boshlari).**

**Maqsad:** O'rta Osiyo xonliklarining geosiyosiy o'rni va XIX-XX asr boshlarida mazkur xonliklarning ma'muriy tizimi, harbiy, diniy hamda iqtisodiy sohaga oid tarixiy atamaları haqida to'laqonli ma'lumot berish.

**Reja:**

- 1. O'rta Osiyo xonliklarining geosiyosiy o'rni.**
- 2. Xonliklarning ma'muriy tizimdagi mansablari.**
- 3. Harbiy va diniy mavzudagi tarixiy atamalar.**
- 4. Soliq va majburiyatlarni ifodalovchi tarixiy atamalar.**

**O'rta Osiyo xonliklarining geosiyosiy o'rni.**

Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'rni, aholiey va tabiiy resurslari jixatidan muhim mavkega ega edi.

XIX asrga kelib Buxoro amirligining hududi qariyib 200 ming kv.km.ni tashkil etdi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning soʻl qirgʻogʻidan boshlanib, Sirdaryogacha choʻzilib qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik SHarqda Pomir togʻlaridan gʻarbda Xiva xonligi chegaralarigacha boʻlgan hududni egallardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnixon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, shuningdek, Turkmaniston hududiga kirgan Murgʻob daryosi voxalaridagi erlar ham Buxoro amirligiga qarar edi.

Xiva xonligi janubda eron, sharada Buxoro amirligi, Gʻarbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh boʻlgan Suvsiz va poensiz Korakum, qizilkum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qoʻygan edi. Amudaryo soxillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Koʻhna Urganch, Xazorasp, Koʻngʻirot, Xoʻjayli, Kurdar (hozirgi CHimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. Xiva shaxri Oʻrta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri boʻlib, 1598 yildan boshlab xonlikning poytaxti boʻlgan.

Qoraqalpoklar yashaydigan Amudaryoning quyi xavzasi va Orol dengizining janubiy qirgʻoqlari ham Xiva xonligi tasarrufida edi.

XIX asrning birinchi yarmida Qoʻqon xonligi hududiy jixatdan Oʻrta Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik SHarqda SHarqiy Turkiston, gʻarbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh boʻlgan. Qoʻqon xonligi bilan Rossiya oʻrtasida Mirzachul va Muyunkul chullari yastanib etgan.

Xonlikning janubiy chegaralari Korategin, Kulob, Darvoz, SHurnon singari togʻli oʻlkalarni oʻz ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez — tez toʻqnashuvlar boʻlib turgan.

Qoʻqon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli oʻlaroq, sersuv daryolar, sulim vodiylar, serhosil erlarga boy edi. Xonlikning markazi Qoʻqon, Margʻilon, Oʻzgan, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar joylashgan Farrona vodiysi edi. Toshkent, Turkiston, CHimkent, Avliyoota, Pishpak, Soʻzak, Okmachit kabi yirik shaharlar ham Qoʻqon xonligi tasarrufida edi.

### **Xonliklarning maʼmuriy tizimdagi mansablari.**

Xonliklarda ma`muriy boshqaruv tizimi bilan bog`liq tarixiy atamalar bir—biridan farq qiladi.

Amir Buxoro amirligining oliy hukmdori, ya`ni cheklanmagan xoqimiyat egasi bo`lgan. Uning xuzurida ijroiya hokimiyatni saroy a`yonlaridan quyidagilar amalga oshirgan:

**Qushbegi** — oliy mansab bo`lib, amirdan keyingi birinchi amaldor hisoblangan, ayni vaqtda amirning o`rinbosari sanalgan. Mang`itlar sulolasi davrida barcha viloyat hokim va beklari Qushbegiga bo`ysungan, amir poytaxtda bo`lmagan vaqtda u amirlikning barcha ishlarini boshqargan. Qushbegi, shuningdek, Buxoro viloyatining hokimi ham hisoblangan. Qushbegi ham poytaxt arkida yashagan. Qushbegi mansabidan keyingisi otaliq bo`lgan.

Amirlikdagi keyingi mansab — **qushbegiyi** — **poymondir**. U, asosan, moliya ishlarini boshqargan, ayni vaqtda butun amirlik hududidagi zakot yig`uvchilar boshliri hisoblangan. SHu boisdan ba`zan uni **zakotchiyi** — **kalon** deb yuritishgan.

**Amaldori mexmonxona** amir kabulxonasidagi ishlarni tashkil etgan.

**Dodxox**—amir saroyining yuqori lavozimlaridan biri bo`lib, u Buxorodagi YUqori xizmat doirasida 10—toifadagi amal yoki mansab xigoblangan. U arz, iltimosnomalarni qabul qilib, ularga yozma va ogzaki javob kaytargan.

Amir saroyining yirik mansabdorlaridan **biri** — **mirzaboshi** devonxona hokimi, mirzalar boshliri hisoblangan.

**Xazinachi** – amir xazinasini muxofaza qilgan.

Tashrif buyurgan xorijiy mexmon va elchilarni kutib olish bilan **udaychi** shurullangan.

**Kutvol** — davlat qurilishlariga javobgar shaxs bo`lib, ark qurilishi, qal`a devorlari va imoratlarini ta`mirlash uning zimmasida edi.

**Parvonachi** – amir farmonlarini yozib olib, ularni tegishli shaxslarga etkazgan, vazir muovini sifatida farmon ijrosi bilan shug`ullangan.

Amir oshxonasining bosh oshpazi **farroshboshi**. Mehmonlarni kutib olish, dasturxon yozish, taom keltirish bilan shurullanuvchi **dasturxonchi**, amir otxonasini boshqaruvchi **miroxur**, jamoat tartibini saqlash va uni tashkil etuvchi **mirshab** kabi mansablar ham bo`lgan. Mirshablar boshlig`i — **mirshabboshi** deyilgan.

**Beklik** — Buxoro amirligida bek tomonidan idora etiladigan ma'muriy hudud. Buxoro amirligi XX asr boshlarida 27 ta beklikdan iborat bo'lgan. Bek — O'rta Osiyo xonliklarida shahar yoki viloyat boshlig'i. Bek o'zi boshqaradigan beklikda cheksiz huquqqa ega bo'lib, u faqat amirga bo'ysungan. Shuningdek, bek so'zi aslzoda, hukmdor, janob, ma'nolarida ishlatilgan.

Xivada xon Devoni bir necha tarmoklarga bo'lingan. **Bosh vazir va vazirlar, qushbegi, otaliq, rais, kozi kalon, shayxulislom, mirzaboshi, to'pchiboshi, inok, devonbegi, xazinachi, moliya ishlari vaziri, saroy munshisi, yasovulboshi, maxramboshi** kabi mansablar shaxsan xar tomondan tayinlangan. Xonlikdagi eng katta mansab va unvonlar— **inoq, otalik va biy** mansablari bo'lgan.

Qo'qon xonligida ham bir necha saroy unvon va mansablari bo'lgan Oliy darajali unvon va mansablar: **otalik, beklarbegi, biy, devonbegi, xazinachi, inok, eshikorasi, parvonachi, dodxox, dasturxonchi, sarkor, sharbatdor, oftobachi, korovulbegi, tunqator, qushbegi.**

O'rta darajadagi unvon va amallar: **kitobdor, risolachi, bakovul, mirzaboshi, sarmunshi, maxtari zakotzona, miroxur, shirovul.**

Past darajadagi mansablar: **salomoga, mirzo, fayzi, munshi, surnaychi, karnaychi, dafchi, chovkuchi, jarchi (boshi), shotir, zinbardor (egarchi), jilovdor.**

### **Harbiy va diniy mavzudagi tarixiy atamalar.**

Harbiy ishlar bilan bog'liq atamalar ham xilma — xildir. Buxoro amirligida harbiy ishlarni to'pchiboshilari lashkar mansabidagi kishi boshqargan bo'lib, bu unvon ikkita bo'lgan: biri to'pchiboshi lashkar, vaziri xarb (harbiy vazir) nomlari bilan atalib, Buxoro shaxri harbiy gornizonining boshlig'i bo'lgan. Ikkinchisi to'pchiboshiyi arki—oliy ya'ni qal'a artilleriyasining boshlig'i bo'lib, u poytaxt qal'asiga komendantlik qilgan.

Qurol—aslaxa omborining boshlig'i **jevachi** deb yuritilgan.

Xivada poytaxt xavfsizligini saqlash **to'pchiboshi**, Ichan—qal'a va Dishan—qal'a **kutvoli** (komendanta) zimmasida bo'lgan.

Qo'qon xonligida harbiy ishlarga asosan **mingboshi**, beklklardagi sarbozlarga **beklar** qo'mondonlik kilardilar. Urush boraetgan davrlarda ham eng tajribali

mingboshini **amiri lashkar** (oliy bosh qo`mondon) k,ilib tayinlar, uning xuquq va vakolatlari yanada oshirilar edi.

Diniy atamalarga to`xtaladigan bo`lsak, Buxoro amirligi hayotida **qozikalon** alohida ahamiyatga molik bo`lganligiga duch kelamiz. **Qozi**— **shar`if**, xaqam, xuquqiy ishlarni xal etib, vasiylikka, vasiyatning bajarilishiga, meros taqsimotiga doyr ishlarni amalga oshirgan. Vaqfni ham qozi nazorat qilgan. Qozi hukmi qat`iy bo`lib, uning yuzasidan amirgagina shikoyat qilish mumkin bo`lgan.

**Qozi-ul-kuzzot** —qozikalon o`rinbosari bo`lgan.

Amirlikda ilohiyot ilmida erishgan yutuklari uchun maxsus 3 ta ilmiy unvon belgilangan. Ularning oliysi **o`rok**, keyingisi **sudur** va oxirgisi **sadr** deb atalgan.

Qo`qon xonligida diniy mansablarning eng oliysi **shayxulislom** bo`lib, uni 1818 yil Umarxon joriy etgan. **Xoja**—**kalon** fiqh olimining faxriy unvoni.

**Halifa** — o`rinbosar (bu erda xonlikdagi turli tariqatlarning rahbarlariga nisbatan ishlatilgan).

**Mufti**—fatvo beruvchi.

Xivada ham **shayxulislom**, **qozi kalon**, **rais** kabi diniy mansablar mavjud bo`lgan.

### **Soliq va majburiyatlarni ifodalovchi tarixiy atamalar.**

Xonliklarning soliq va majburiyatlariga oid atamalari ham turlichadir.

Buxoroda hosildan olinadigan soliq—**xiroj** deb atalib, uni yiguvchilar amin va qishloq oqsoqoli hisoblangan.

Bog`lar, bedazorlar, poliz ekinlari uchun olingan soliq, turi **tanobona** yoki alaf pul deb atalgan.

**Zakot** solig`i savdogarlar mollari umumiy miqdorining 40 dan 1 ni tashkil etgan.

Xiva xonligida 25 xilga yaqin soliq turi bo`lgan.

**Salg`ut** solig`i — erdan foydalanganlik uchun; **alg`ut**, **alg`ut birla** – to`la xo`jalikish qurollari, hovli va xokazolar uchun; **miltiq puli**— xonlik qo`shini uchun; **tarozi puli**, **mirobona**, **darvozabon puli**, **mushrifona**— hosil etilib, o`rim—yig`im oldidan er maydoni va hosil miqdorini aniqlab beruvchi amaldor uchun to`lanadigan; **afanak puli** solig`i – xonning farmoni va boshqa muhim xabarlarni etkazganlik uchun to`lanadigan solik; shuningdek ommaviy ishlardan ozod etilganlik uchun

to'lanadigan soliq va ruhoniylar foydasiga berilishi lozim bo'lgan soliqlar ham mavjud edi.

Qo'qon xonligida soliq Buxoro va Xivaga qaraganda ko'proq bo'lgan. Asosiysi dehqonchilik maxsulotlaridan olinadigan **xiroj** va hunarmandlar, savdogarlardan undiriladigan zakot bo'lgan.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. O'rta Osiyoda xonliklarning tashkil topishiga nimalar sabab bo'lgan?
2. Xonliklarning ma'muriy boshqaruv tizimi qay holatda bo'lgan?
3. Xonliklarda harbiy mavzuda qanday atamalar vujudga kelgan?
4. Xonliklarda diniy mavzudagi atamalar kundalik hayotda qanday ahamiyatga ega edi?
5. Xonliklarning iqtisodiy xolati qay darajada bo'lgan?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azamat Z. O'zbek davlatchiligi tarixi. –T. 2000.
2. Vil'danova A.B. Podlinnik buxarskogo trakttata o ginax i zveniyax.
3. Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal er egaligi va davlat tuzilishi. –T., 1959.
4. Mirza Badi' Devon. Majma' ul–arkom Faksimil rukopisi. Vvedenie, perevod, primechanie i prichanie i prilozhenie A.B. Vil'danovoy.—M., 1981.
5. Nabiev R.N. Iz istorii Kokandskogo xanstva. –T., 1973.
6. Pis'mennie pamyatniki Vostoka // Ejegodnik, 1968–M., 1970.
7. YUldashev M.YU. K istorii krest'yanskogo zsmlevlodeniya v Sredney Azii // ONU. 1964, №7.
8. O'zbekistonning yangi tarixi. 1–jild. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. –T., 2000.
9. XX asr Xiva davlat xujjatlari. –T., 1960.

#### **5–mavzu: Yangi va eng yangi davrning tarixiy atamalari.**

**Maqsad:** Talabalarga Yangi va Eng yangi tarix davrida siyosiy, iqtisodiy, diplomatiyaga oid zamonaviy atamalarning paydo bo'lishi hamda dunyo bo'ylab keng tarqalishi haqida etarlicha ma'lumot berish. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi va tarixiy atamalarga e'tiborning kuchayishi, ularni qaytadan tiklanishi haqida batafsil ma'lumot etkazish.

#### **Reja:**

1. **Siyosiy mavzudagi tarixiy atamalar.**
2. **Iqtisodiy mavzudagi tarixiy atamalar.**
3. **Diplomatiyaga oid tarixiy va zamonaviy atamalar.**
4. **Mustaqillikning e'lon qilinishi.**

## 5. Tarixiy atamalarning tiklanishi.

Ushbu davrning atamalarini tahlil qilib, shuni kuzatish mumkinki, ularning ko'pi yangi va eng yangi davrda paydo bo'lgan. Ularning ko'pchiligiga lotin, arab va yunon, shuningdek, g'arb va SHarq tillaridan o'zlashgan atamalardir.

Xalqaro atamalarni tarixiy atama sifatida kirib kelishiga xalqaro maydonda faol ishtirok etayotgan davlatlarning o'rnini bilan baholash to'g'ri bo'lardi. Bu kabi atamalarga ingliz, golland, frantsuz, nemis, ital'yan tilidan kirib kelgan atamalarni kiritishimiz mumkin. Agar o'rta asrlarda ma'lum bir atama aniq ma'noni anglatgan bo'lsa, yangi va eng yangi davrga kelib ular kengroq ma'nodagi aniq tavsiflovchi xususiyatiga ega bo'ldi.

Hozirda qo'llanilayotgan atamalarning rivoji XIX va ayniksa, XX asrda davlatlar va xalqlarning siyosiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyatning rivoji, masalan, urush va tinchlik muammolari, ilmiy—texnika inqilobi, ishlab chiqarishning jadal rivoji, kommunikatsiyalar, ruhiy dunyoning milliy jihatlarining rivoji, milliy uzligini tanish mamlakatlar va xalqlarning yaqinlashish elementlari bilan uygunlashgan holda ko'pgina tarixiy jarayonlarni uygunlashtirdi. Xuddi shu davrda ko'plab xalqlar umumbashariy muammolar — kolonializmlar, jahon urushlari va turli irhiy kamsitishlarga duch keldi. Totalitar, shovinistik, ekstremistik aqidalarga qarshi kurashni ifodalovchi atamalar ham aynan shu davrda paydo bo'ldi.

Xalqaro atamalarni tartibga keltirish va uni aniqlash ishlari ko'pgina mamlakatlar (AQSH, Frantsiya, Angliya)da olib boriladi. Turli xalqaro tashkilotlar (YUNESKO, Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot, Xalqaro elektrotexnika komissiyasi va xokazo) turli tillardan olingan atamalarni muvofiklashtiradi.

### **Siyosiy mavzudagi tarixiy atamalar.**

**Konstitutsiya** (lotincha so'zdan olingan bo'lib, tuzilma degan ma'noni bildiradi) davlatning asosiy qonuni bo'lib, jamiyat va davlat qurilishi, mahalliy vakillik organlari tamoyil va tartiblarini izga solib turuvchi hamda fuqarolarning xuquq, erkinliklari aks etgan xujjat. Jahonda birinchi Konstitutsiya 1787 yilda AQSHda, 1831 yilda Bel'giyada, 1874 yilda SHveytsariyada qabul qilingan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, 1992 yil 8 dekabrda o'z Konstitutsiyasini qabul qildi. U 26 bob, 128 moddadan iborat. Konstitutsiya uziga xos xususiyatlari bilan boshqa qon o'nlardan ajralib turadi. Ular:

- 1) hamma qonunlar Konstitutsiyadan kelib chiqib va unga zid kelmasligida;
- 2) Konstitutsiyaning holati doim birinchi va asos soluvchi hisoblanishida;
- 3) Konstitutsiya joriy qonunlar tizimini belgilashda;
- 4) Konstitutsiyaning kabul qilinishidagi xususiyatlarda, qonunlar kabul qilishda Oliy Majlis depo'tatlarining ko'pchilik ovozi talab qilinsa, Konstitutsiyaga o'zgartishlar kiritishda Oliy Majlis deputatlarining 3/2 qismidan ko'prori qatnashishi shart;
- 5) Konstitutsiya kabul qilishda uning xar bir moddasi ovozga qo'yiladi;
- 6) Konstitutsiya jahon mamlakatlarida o'zgarmaydigan barqaror Qonun hisoblanadi.

Jahonning rivojlanishi yo'lida g'ov bo'luvchi eng jirkanch illat bu — terrorizm bo'lib qoldi. Terrorning yovuz maqsadlarini xalqimiz 1999 yil 16 fevralda o'z boshidan kechirgan edi. 2001 yil 11 sentyabrida AQSHdagi terroristik harakatlar ham uning chuqur ildiz otayotganligidan darak beradi. Ammo hozirda butun dunyo hamjamiyati ushbu illatga qarshi keskin kurash olib bormokda.

**Terror** (lot. tpror — qo'rquv, daxshatli) —daxshatli oqibatga olib keluvchi siyosat bo'lib, siyosiy maqsadlari uchun zo'ravonlik yo'li bilan chora ko'rish.. Terrorizm bu raqiblarini jismonan yo'q qilishga asoslangan siyosiy harakat usulidir.

**Parij Kommunasi** — 1871 yilning 18 martida Parijda Uchinchi respublika xukumatiga qarshi xalq inqilobi. Bunga bonapartchilar rejimi va 1870—71 yillardagi frantsuz—pruss urushida Frantsiyaning mag'lubiyati sabab bo'ldi. 28 martda e'lon qilingan Kommuna 28 mayga qadar yashagan.

**Konfederatsiya** (lot. confederatio — ittifoq, birlashma) — Davlat boshqaruv shakli bo'lib, konfederatsiyaga kirgan davlatlar o'z mustaqilligi, davlat boshqaruv organlarini saqlab qoladi. Konfederatsiyaga faqat ma'lum maqsadlar uchun birlashiladi (ya'ni harbiy, tashqi siyosat va xokazo). SHveytsariya tarixiy konfederatsiya shakliga misol bo'la oladi.

**Federatsiya** (so'nggi lot. Foederatio dan — ittifoq, birlashma) —davlat tuzilish formasi bo'lib, unda huquqiy jihatdan muayyan siyosiy mustaqillikka ega bo'lgan bir

necha davlat tuzilishlari bitta ittifoq davlatini tashkil etadi. Federatsiya hududi federatsiyaga kirgan davlatlar hududidan tashkil topgan. Bu davlat tuzilishining xar biri o'z konstitutsiyasini qabul qilish huquqiga ega. Federatsiya bilan unga kirgan shtatlar, respublikalar, kantonlar o'rtasidagi vakolat yagona konstitutsiya bilan chegaralanib qo'yiladi. Federatsiyaning ittifoq birliklari o'zlarining huquqiy va sud sistemalariga egadir. Ko'pgina federatsiyada bir vaqtning o'zida yagona ittifoq grajdanligi va ittifoqdosh birliklar grajdanligi ham mavjuddir. Burjua federatsiya milliy — hududiy birlikni kat'iy hisobga olmagan holda tuziladi. Burjua federatsiyasi odatda bir necha davlat tuzilishining ittifoqi sifatida vujudga keladi (AQSH, GFR, Avstriya va xokazo).

**Totalitarizm** (lot. Totalis — butun, hammasi, to'la) — davlat boshqaruvining shakllaridan biri bo'lib, jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan to'la davlat nazoratini o'rnatilganligi bilan xarakterlanadi. XX asrning 20— yillarida Germaniya va Italiya fashizmning rasmiy mafkurasiga aylandi.

**Emigratsiya** (lot. Emigrare dan olingan boshqa erga ko'chish) — iqtisodiy, siyosiy va boshqa sabablar bilan o'z vatanidan majburan yoki ixtiyoriy suratda boshqa mamlakatga ko'chib ketish. Hozirgi zamon kapitalistik jamiyatida emigratsiyaga asosan ishsizlik, (Masalan, 1978 yillarda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 12 millionga yaqin chet zlik ishchi bor edi.) iqtisodiy qiyinchiliklarni, milliy kamsitishlar, siyosiy ta'qiblar sabab bulmokda.

**Brifing** (ingl brifing) — aynan matbuot vakillarining instruktaji, qisqacha kengashi bo'lib, unda bu ish uchun maxsus vakil qilingan shaxslar muayyan masala bo'yicha xukumatning pozitsiyasini bayon qilib beradi yoki xalqaro munozaralarda, yigilishlarda, konferentsiyalarda ishtirok etayotgan tomonlarning bu anjumanlarining borishi to'g'risidagi, ularning qarashlarini bayon qilib beruvchi axborot va x.okazo.

**Millatlar Ligasi** (1919—1946) – xalqlarning tinchligi va xavfsizligi yo'llaridagi hamkorlikni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilot. Fashist davlatlar ittifoqiga befarq qaraganligi uchun ikkinchi jahon urushi boshlanganidan keyin amalda o'z faoliyatini to'xtatdi.

**Boshqaruvning parlament shakli** (parlament — fr. Parlez — gapirmoq) — qonun chiqaruvchi va ijroiya organlarining va vazifalari aniq taqsimlanganda

parlamentning imtiyozli mavkyaga ega bo'lishi. Parlament deputatlari hukumatni shakllantiradilar, bosh vazirni va konstitutsiyaviy nazorat organlarini saylaydilar.

**Konservatorlar** (lot. «conservator» — «muxofazakor», «saqlovchi») — konservativ qarashlar maslakdoshlari, u yoki bu islohotlar yoxud o'zgarishlarga qarshilar.

**Interventsiya** — bir yoki bir necha davlatning boshqa davlat ichki ishlariga zo'ravonlik bilan aralashuvi, uning suverenitetini buzish.

**Dominion** (ingl. Dominion — mulk, hokimiyat) — Britaniya imperiyasi tarkibida bo'lgan, ingliz qirolini o'z rahbari deb e'tirof etuvchi davlat (1867 yildan Kanada, 1901 yildan Avstraliya ittifoqi, 1097 yildan YAngi Zelandiya va boshqalar.).

**Reyxstag** (nem. Reich — davlat, Tag — majlis) — 1867 yildan 1945 yilgacha Germaniya parlamentining nomi. YA lpi saylov xuquqi asosida saylangan xukumat Reyxstag oldida javob bermas edi. 1933—1945 yillarda u rasman saqlanib, hukumat bayonotlarini (reyxstag nomidan) e'lon qilish va qulay vositaga aylandi.

**Reyxsrat** (nem. Reich — davlat, Rat — kengash) — 1919—1934 yillarda Germaniya parlamentining o'lka va viloyatlar vakillaridan iborat bo'lgan, qonunchilik va boshqaruv masalalari bo'yicha mas'ul palatasi. Natsistlar tomonidan 1934 yilda Germaniyaning federativ tuzilishi bekor qilingan paytda tarqatib yuborilgan.

**Reyxsver** (nem. Reich — davlat, Werh — mudofaa) — 1919—1935 yillarda Germaniya qurolli kuchlari. 1919 yilgi Versal' tinchlik shartnomasi asosida tashkil etilgan. 1935 yil 16 martda Germaniya bir tomonlama tarzda Versal' shartnomasining harbiy moddalarini bekor qildi va yalpi harbiy majburiyatni joriy etdi.

**Xunta** (ispan. Junta — yigin, birlashma) — xukumatni g'ayriqonuniy ravishda egallovchi va diktatorlik usullari bilan hukmronlik qiluvchi fitnachilar guruhi (Ispaniya, Lotin Amerikasi mamlakatlari). 1991 yil avgustida Moskvada ham sobiq SSSRni saqlab qolish maqsadida GKCHPchilar urinish qilgan edi. Ammo bu xunta demokratik kuchlar tomonidan bartaraf etilgan edi.

**Antisemintizm** — millatchilikning semit xalqi yahudiylarga qarshi qaratilgan ko'rinishlaridan biri.

**Koalitsiya** (lot. Coalitio, coales care dan — birlashish) — davlatlar, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va boshqa tashkilotlarning umumiy siyosiy, harbiy,

iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun tuzgan uyushmasi, ittifoqi, bitimi. Ikkinchi jahon urushi jarayonida antigitlerchi koalitsiya tashkil topdi.

**Aparteid** (aparxeyd) — (afrikaane (bursk). Apartheid — alohida— alohida yashash) Janubiy Afrika Respublikasining hukmron reaksion doiralari tomonidan Afrikaning tub aholisiga ko`proq, Hindistondan ko`chib kelgan kishilarga nisbatan olib borilayotgan shafqatsiz irqiy kamsitish va segregatsiya siyosati. Afrikaliklarni rezervatlarda (1959 yilda bantustanlar deb atala boshladi) yashashga majbur kdladilar, ular grajdanlik xukukidan maxrum qilganlar, ok tanlilarga qaraganda ancha kam ish haki olardilar va xokazo. Alohida — alohida yashash tartibini buzish jinoiy tartibda ta`qib qilinadi. BMT qabul qilgan bir kancha xujjatlarda aparteid insoniyatga nisbatan qilingan, xalqaro xuquq printsiplarini, jumladan, BMT Ustavi maqsadlari va printsiplarini buzuvchi, tinchlikka va xalqlar xavfsizligiga jiddiy taxdid soluvchi jinoyat deb e`lon qilindi.

**Natsizm** — Germaniya fashizmining nomlaridan biri. Germaniya fashistlar natsional—sotsialistlar partiyasi nomidan kelib chiqqan.

**Kolloboronistlar** (fr. Collaboration — hamkorlik) — Ikkinchi Jahon urushi davrida fashist bosqinchilari bilan hamkorlik qilgan shaxslar.

**Tred—yunionlar** (ingl. Trade — xunar, kasb va union — birlashma) — ingliz kasaba uyushmalari harakatidagi oqim. Asosiy maqsadi hayotning shart—sharoitlarini yaxshilash uchun kurash.

**Neokolonializm** — imperialistik davlatlar va monopoliyalarning imperializmning mustamlakachilik sistema barbod bulayotgan sharoitda mustamlaka qaramligidan ozod bo`lgan mamlakatlar ustidan yangi, ancha tadbirli usullar bilan o`z hukmronligini saqlab qolish va bu mamlakatlar xalqlarini ekspluatatsiya qilishga qaratilgan mustamlakachilik siyosati. Neokolonializm Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning xaqikiy mustaqillik tomon harakatiga, bu mamlakatlarda chet el monopoliyalari mulkining natsionalizatsiya qilinishiga va iqtisodiyotning davlat sektoriga aylaniiga to`squinlik qiladi. Neokolonializm hukmronlikning uslublari rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy va siyosiy shartlar asosida «yordam» berishni, teng xuquqli shartnomalar va bitimlar tuzishni, bu mamlakatlarni imperialistik davlatlar homiyligida turli blok va

ittifoqlarga tortishni, mustaqil rivojlanish yo`liga o`tib olgan mamlakatlarning ichki ishlariga aralashish, ko`girchok rejimlar tuzishni va xokazolarni o`z ichiga oladi.

«**Sovuq urush**» — bu atama Ikkinchi jahon urushidan keyin vujudga keldi, kapitalistik davlatlarning sobik Sovet Ittifoqi va boshqa sotsialistik mamlakatlarga nisbatan kullagan siyosati. «Sovuq urush» siyosatiga AQSH va G`arbdagi boshqa mamlakatlar eng reaksiey kuchlarining manfaatlari sabab bo`lgan, uning elementlari AQSH va Buyuk Britaniya hukmron doiralarining xatti — xarakatlarida Ikkinchi jahon urushi tugamasdan ilgariyoq namoyon bo`lgan edi. Ingliz siyosiy arbobi U. CHerchilning 1946 yil 5 martda Fultonda (AQSH) so`zlagan nutqi sotsializm dunyosiga G`arb tomonidan «Sovuq urush»ni oshkora e`lon qilish bo`lgan edi. Bu nuqta, aslida, «Sovuq urush» dasturida bayon qilib berilgan edi. 1947 yilda u sobiq SSSRga qarshi G`arbi Yevropaning harbiy blokini tuzish loyixasini ham ko`tarib chikdi. «Sovuq urush» uchun kuch ishlatish xavfini solish, diktatorlikka intilish, sotsialistik davlatlarga qarshi iqtisodiy blokada tashkil ztish va ko`poruvchilik faoliyati olib borishga urinish, qurollanish poygasini va harbiy tayyorgarlikni butun choralar bilan tezlashtirish, agressiv bloklar va ittifoqlarni tuzish «psihologik urush» xarakterini avj oldirish xarakterlidir. «Sovuq urush» va u vujudga keltirgan tashqi siyosiy kontseptsiyalar va doktrinalar — «zuravonlik siyosati», «kommunizmni uloqtirib tashlash», «urush yoqasida tutish» va boshqa G`arb mamlakatlari eng reaksion monopolistik doiralarining manfaatlariidan kelib chiqqan edi. Xalqaro keskinlikning oshib ketishi va jahon urushining boshlanib ketish xavfi «Sovuq urush» natijasi bo`ldi.

Kuchlar nisbatidagi o`zgarishlar asosida jahonda xalqaro munosabatlarning butun sistemasida qayta qurilish ro`y bermoqda. So`nggi yillarda «Sovuq urush»dan xalqaro keskinlikni yumshatish tomon, ijtimoiy tuzumi turlicha bo`lgan davlatlar o`rtasidagi munosabatlar amaliyotida tinch-totuv yashash printsiptini qaror toptirish tomon burilish qilishga erishildi.

«**London klubi**» — matbuotda qo`llaniladigan ibora bo`lib, yadro texnologiyasi, asbob—uskuna va materiallar etkazib beruvchi bir guruh davlatlarni bildiradi. Bu guruhga Rossiya, AQSH, Angliya, Frantsiya, Germaniya, .CHexiya, Pol`sha, YAponiya, Kanada, Italiya va ba`zi boshqa eksporterlar kiradi. eksporterlarning 1975—1977 yillarda Londonda bo`lib o`tgan qator kengashlarida

yadro asbob—uskunalarini va materiallarni eksport qilishga nisbatan baʼzi bir muhim printsiplarni qoʻllash toʻgʻrisida ana shu mamlakatlar oʻrtasida bitimga kelindi.

**Qurolsizlanish** — tadbirlar sistemasi boʻlib, ularning amalga oshirish urush olib borish vositalarini yuk qilishga yoki jiddiy qisqartirishga va jahon yadro urushi xaifini bartaraf etish uchun sharoich yaratilishiga olib keladi. qisman, yalpi va toʻla qurolsizlanish tushunchasi farq qilinadi.

**Anklav** (fr. Enclave lot. Inclavare dan — kulflab olish) — davlat hududining yoki davlatlar territoriyasi bilan xar tomondan oʻrab olingan qismi. Masalan, Leeto davlati JAR hududidagi anklav hisoblanadi. Agar bu qismni boshqa davlat hududi toʻla oʻrab olmagan boʻlsa va u dengizga toʻtashsa, bunda ayrim anklav xaqida soʻz yuritish mumkin

**Anneksiya** (lot. Annexio — qoʻshib olish) — bir davlatning hududining (yoki uning bir qismining) boshqa davlat tomonidan zurlik bilan bosib olinishi, qoʻshib olinishi. Xalqaro uyushmaning foydalanuvida boʻlgan erlarning (ochik dengiz, uning tubi, antartika va boshqalar) bosib olish ham anneksiya deb karaladi. Anneksiya hozirgi xalqaro xuquqni koʻpol buzishdir. Anneksiya tushunchasining taʼrifi 19)7 yil 26 oktyabrida eʼlon qilingan (8 noyabr) tinchlik toʻgʻrisidagi dekretda berilgan.

**Urush** — davlatlar yoki sinflar oʻrtasida ularning iqtisodiy va siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun olib boriladigan qurolli kurash, siyosatni zurlik vositalari bilan davom ettirish.

**Grajdanlik** — jismoniy shaxsning muayyan davlat bilan xuquqiy aloqasi. Xar bir grajdanin maʼlum xuquqlarga ega va badavlatiga nisbatan tegishli burchlarini bajarishi lozim. Bu xuquq va burchlar mamlakatning ichki qonunlari: konstitutsiya grajdanlik toʻtrisdagi qonun va boshqa xuquqiy aktlar bilan belgilanadi. Grajdanlik shaxsning faqat ichki xuquqidagina emas, balki xalqaro xuquqdagi xuquqiy holatini ham belgilab beradi. CHet elda boʻlgan grajdanlar uz davlati oldidagi burchlarini bajarishdan ozod etilmaydilar va shu bilan bir vaqtda oʻz davlati tomonidan diplomatik himoya qilinishdan foydalanadilar. Grajdanlikka ega boʻlish va grajdanlikdan maxrum boʻlish tartibi davlat qonuni va xalqaro bitimlar bilan belgilanadi. Bunda tugʻilish munosabati bilan Grajdanlikka ega boʻlishni hal qilayotganda ikkita printsip qoʻllaniladi. Bu printsiplar milliy va hududiy

printsiplardir. Milliy printsipga muvofiq bolaning grajdanligi, u qaerda tug'ilganidan qat'iy nazar, ota — onasining grajdanligiga bog'liq hududiy printsipda grajdandik bola to'g'ilgan joyga qarab belgilanadi va bu bola ota — onasining grajdanligi bilan bog'liq bo'lmaydi. Amaliyotda bu ikki printsip muayyan majburiy shartlarga rioya qilish bilan qo'shib olib boriladi.

**Imigratsiya** (lot. Immigrans (immigrantis) dan — joylashgan) – boshqa davlatlar grajdanlarining (immigrantlarning) biron mamlakatga vaqtincha yoki doimiy yashash uchun kelishi. Imigratsiyaga asosan siyosiy va iqtisodiy vajlar sabab bo'ladi. Dunyoning immigrantlar boradigan ko'p mamlakatlarida maxsus immigrantlik kvotalari joriy etilgan. Ana shu kvotalar doirasida chet el grajdanlarining har yilgi oqimi tartibga solib turiladi.

**Kazus belli** (lot. Casus belli — aynan urushga barona) — urush holati vujudga kelishi uchun bevosita rasmiy sabab. Kazus bellini urushga sabab sifatida urushning keltirib chiqargan xaqiqiy sabablardan farq qilish kerak. Masalan Saraevoda Avstriya ertsgerstsofi Ferdinandning o'ldirilishi 1914—1918 yillardagi Birinchi jahon urushi uchun Kazus belli bo'lgan edi. Urushning xaqiqiy sababi imperialistik davlatlarning dunyoni qayta taqsimlash uchun kurashi bo'lgan edi.

**Kapitulyatsiya** (lot. Capitulatio, capitulare dan — kelishish) — 1) mudofaa qilinayotgan ob'ektni dushmanga topshirish yoki qo'shinning asr tushishi. Kapitulyatsiya odatda kapitulyatsiya bo'lgan davlat zimmasiga siyosiy, iqtisodiy, harbiy va xokazo majburiyatlar yuklash bilan birga qushib olib boriladi;

2) So'zsiz kapitulyatsiya — to'la maglubiyatga uchragan dushmanning erdagi, dengizdagi va xavodagi kuchlarini rolib davlatlar tomonidan o'nga quyilgan shartlar asosida asirga tushishi va keyinchalik quolsizlantirilishi. Gitlerchilar Germaniyasining va militaristik Yaponiyaning 1945 yildagi maglubiyati kapitulyatsiyaga so'zsiz taslim bo'ladi.

**Kart—Blansh** (fr. carte blanche) — biror shaxs imzo chekib, boshqa shaxsga uni o'zi istagan mazmunda to'ldirish xuquqi berilgan toza blank. Cheklanmagan vakolat.

**Moratoriy** (lot. Moratorius dan — ushlab turuvchi) — ichki yoki tashqi majburiyatlarini bajarilishini uzaytirish. Moratoriy muayyan muddatga yoki alohida holatlar amal qilgan uchun o'rnatiladi. Moratoriy majburiyatlarga taaluqli,

qisman maxsus bo`lishi mumkin. Bank moratoriy — moratoriy turlaridan biri bo`lib, bunda kredit beradigan muassasalar xukumatning buyro`ti bilan ma`lum vaqtga yopib quyiladi. Masalan, Amerika dollarining 1971—1973 yillardagi deval`vatsiyasi vaqtida G`arbi Yevropadagi asosiy valyuta bozorlari bir necha marta epib quyiladi. YAdro portlatuvchilari moratoriysi moratoriyning asosiy turidir.

**Neytralizm** — boshqa davlatlar va bir guruh davlatlar bilan o`zining munosabatida betaraflikni asosiy printsip qilib e`lon qilgan davlat siyosati (SHveysariya, Turkmaniston).

**Neokolonializm** — imperialistik davlatlar va monopoliyalarning imperializmning mustamlakachilik sistemasi barbod bulayotgan sharoitda mustamlaka qaramligidan ozod bo`lgan mamlakatlar ustidan yangi, ancha tadbirli usullar bilan o`z hukmronligini saqlab qolish va bu mamlakatlar xalqlarini ekspluatatsiya qilishga qaratilgan mustamlakachilik siyosati. Neokolonializm Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlariing xaqiqiy mustaqillik (omon harakatiga, bu mamlakatlarda chet el monopoliyalari mulkining natsionalizatsiya qilinishiga iqtisodning davlat sektoriga aylanishiga sotsialistik orientatsiya yo`liga o`tishga va sotsialistik mamlakatlar bilan hamkorlikni metodlari rivojlanaetgan mamlakatlarga iqtisodiy va siyosiy shartlar asosida «yordam» berishni, teng xuquqli bo`lmagan shartnomalar va bitimlar tuzishni, bu mamlakatlarni imperialistik davlatlar homiyligida turli blok va ittifoqlarga tortishni, mustaqil rivojlanish yo`liga o`tib olgan mamlakatlarning ichki ishiga aralashish, qo`g`irchoq rejimlar tuzishni o`z ichiga oladi.

**Protetkoriyat** (lot. Protector dan — himoyachi, homiylik qiluvchi) — kuchli davlatning kuchsiz davlat ustidan rasmiy homiylik qilish. Amalda Protetkoriyat imperialistik davlatlar tomonidan iqtisodiy va giyosiy jixatdan kuchsiz mamlakatlarga majburan qabul qildirilar edi.

Protetkoriyat ko`pincha Protetkoriyat o`rnatilgan davlat hududining okkupatsiya qilish bilan birga amalga oshirilar edi. Protetkoriyat qaram mamlakatning to`la bosib olish va uziga qo`shib olishda ayrim hollarda faqat o`tish formasi bo`lard, holos. Xalqaro munosabatlar tarixida Protetkoriyat ko`pincha bir tomonlama akt o`rnatilar edi. Buyuk Britaniya 1914 yilda Misr ustidan Protetkoriyat o`rnatdi, aslida esa uni 1882 yilda bosib olgan edi. 1939 yilda gitlerchilar Germaniyasi CHexiya va

Moraviya ustidan Protektoriat o`rnatdi, aslida esa ular fashist agressorlarini qurboni bo`lgan edi,

**Repatriatsiya** (lot. Repatriate — vatanga kaytish) — urush yoki emigratsiya natijasida o`z mamlakatidan tashqarida qolgan harbiy asirlarni va grajdan shaxslarni vataniga qaytarish.

**Repressalii** (lot. Reprehendere — to`xtatib turish, to`xtatish, tanbeh berish) — xalqaro munosabatlarda biror davlat tomonidan o`zining xuquqlarini boshqa davlat buzganligiga javoban, ana shu davlatni o`zi qabul qilgan tadbirlarni bekor qilishga majbur qilish maqsadida qilingan tadbir yoki harakat.

**Ratifikatsiya** (lot. Ratus — tasdiklangan va fasere dan qilmok) — ahdlashuvchi davlatlarning muxtor vakillari tomonidan tuzilgan xalqaro shartnoma yoki bitimning olib davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiklanishi. Ratifikatsiya shartnomaga yuridik kuch beradi.

**Prolongatsiya** (fr. Prolongation, lot, Prolongare — chuzish, uzaytirish) – biron shartnoma, bitimning amal qilish muddatini cho`zish.

**Denonsatsiya** (fr Denoncer — e`lon k,ilish, bekor kilmok) — denonsatsiya qilish — bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga o`zlari o`rtasida tuzilgan shartnoma yoki bitimning bekor qilinganligi to`g`risida xabar qilish.

### **Iqtisodiy mavzudagi tarixiy atamalar.**

**Restitutsiya** (lot. Restitutio – tiklash) (xalqaro xuquqda) – urushayotgan davlat tomonidan dushman hududidan g`ayri qonuniy ravishda bosib olingan va olib chiqib ketilgan mulkni kaytarib berish. Restitutsiya tartibi tinchlik axdi yoki boshqa xuquqiy aktlar bilan belgilanadi.

**Kontsessiya** (lot Concessio – yon berish) – Davlatga tegishli tabiiy boyliklar, korxonalar va boshk.a ob`ektlarni xorijiy davlatlarga, kompaniyalar va ayrim shaxslarga ma`lum muddatga foydalanishga berish.

**Investitsiya** – sarmoyaning biron–bir korxonaga, ishga uzoq muddatga joylashtirish.

**Inflyatsiya** — qog`oz pullarning qadrsizlanish va real tovar taklifiga nisbatan muomalada ularning ko`payib ketishi bilan bog`liq bo`lgan qobiliyatning pasayish jarayoni.

**SHop-styuardlar** — Angliyadagi fabrikalarda tsex etakchilari, korxonalarda ishchilar tomonidan saylanadigan vakillar. Turmush darajasini yuksaltirish uchun ommaviy ishchilar harakatining tashkilotchilari. SHop-styuardlarning xarakatlari tred—yunionlarnikidan ko`ra keskinroq edi.

**Depressiya** (lot. Depiessio – tushkunlik) – ortiqcha ishlab chiqarish inkirozidan so`ng ro`y beradigan iqtisodiy turgunlik, tovarlarga talab kamligi, ommaviy ishsizlik bilan tavsiflanadigan davr.

**Konsortsium** (lot. Consortium — qatnashuv, uyushma) — bir necha bank yoki sanoat kompaniyalarining karzni birgalikda joylashtirish yoki umumiy qimmat turuvchi loyixani birgalikda amalga oshirish maqsadida vaqtinchalik kelishuv.

**Standardlashtirish** — xom—ashyo, ishlab chiqarish jarayonlarini, tayyor maxsulotlar va xokazolarga nisbatan davlat miqyosida yagona, qat`iy belgilangan me`yor va talablarni o`rnatish.

**Proteksionizm siyosati** (lot. Protectio — himoya, yashirish) – ichki bozorni chet elliklardan eksportni oshirish va importni cheklash, katta bojxona soliqlarini belgilash va boshqa qator choralar vositasida himoya qilish siyosati.

**Embargo** (isp, embargo – xibsga olish) – biror mamlakatdan maxsulotlar, valyuta olib chiqib ketishni yoki biror mamlakatga maxsulotlar, valyuta olib kirishni ta`qiqlab qo`yish, shuningdek, ajnabiy davlatga tegishli bo`lgan kemalar, yuklar va boshqa mulklarni ushlab turish. Urush vaqtida embargodan dushman davlatlarga qarshi iqtisodiy sanksiya uchun foydalaniladi. Tinchlik vaqtida davlatlar turli mamlakatlarga iqtisodiy va moliyaviy tazyiq o`tqazish uchun embargodan foydalanadilar.

**Proteksionizm** (fr. protectionnisme, lot. protectio dan — himoya, homiylik) – davlatning milliy xo`jalikni chet el raqobatidan muxofaza qilish yo`li bilan uni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy tadbirlar sistemasi. Bunga, masalan, chet el maxsulotlariga katta boj solish, o`z mamlakatining sanoatiga subsidiyalar berish va xokazolar kiradi. Mamlakatga keltiriladigan maxsulotlarga katta boj solib, burjua mamlakatlari ichkarisida monopol—yuqori baholarni saqlab qolishga va chet elga jahon bozoriga qaraganda ancha past baholarda mahsulot chiqarishga ko`maklashadi.

**G`arbiy kommunizm** — sovet davlatining fuqarolar urushi sharoitidagi ijtimoiy—iqtisodiy siyosatidir. Aholining boy qismi mol—mulkini olishni, yalpi

mehnat majburiyati joriy etishni, yirik, o`rta va qisman kichik sanoatni tez sur`atlar bilan davlat ixtiyoriga o`tqazishni nazarda to`vardi. Tijorat ta`qiqlandi, qishloq xo`jalik maxsulotlarining ortiqcha qismini davlatga topshirish majburiyat qilib qo`yildi.

**Natsionalizatsiya** (lot. Natio — millat, xalq) — er, sanoat, transport aloqa, banklarni va xokazolarni xususiy mulkdan davlat mulkiga o`tishi. Natsionalizatsiya xarakteri mamlakatda mavjud bo`lgan ijtimoiy tuzum bilan belgilanadi. Kapitalistik natsionalizatsiya — natsionalizatsiya qilingan korxonalar, tarmok va xokazo burjua davlati mulkiga aylanadi. Kapitalizmning mohiyati buning natijasida o`zgarmaydi, chunki ekspluatatsiya kola beradi, burjua davlati esa, kapitalistlar majmui sifatida chiqaveradi Kapitalistik natsionalizatsiya monopolistik kapital manfaatlari yo`lida amalga oshiriladi, ko`pincha u monopolistik foydalarni ko`paytirish, iqtisodni militarizatsiyalash vositasiga aylanadi va hokozolar. Kapitalizm sharoitida odatda etarli darajada daromadli bo`lmagan yoki hatto zarar keltiradigan korxonalar, ishlab chiqarish tarmoklari natsionalizatsiya qilinadi. Korxonalar egalariga, odatda, kompensatsiya to`lanadi.

**Integratsiya** (lot. Integratio, integer dan — butun) — biror bir qism va elementlarni bir butunga birlashtirish, iqtisodda xo`jalik hayotini internatsionalizatsiyalashning oliy formasi bo`lib, bo`nga xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashtirish ob`ektiv ravishda sabab bo`ladi. U turli mamlakatlarning o`zaro yaqinlashuvida va ularning korxonalari, tarmoqlari va hatto milliy iqtisodning yagona xo`jalik organizmiga birlashuvida ifodalanadi, hamda bu protsessni tartibga solib turuvchi iqtisodiy siyosatdir.

**Reparatsiya** (lot, Reparatio — tiklash) — agressiya qilgan davlat tomonidan xujumga uchragan davlatga agressiya natijasida etkazilgan zararini qoplash uchun to`planadigan tovon. Reparatsiya miqdori tinchlik axdi yoki boshqa huquqiy aktlar bilan belgilanadi.

**Anarxo— Sindikatizm** — ishchilar harakatida anarxizm g`oyalari ta`sirida bo`lgan oqim. Anarxo — sindikalistlar kasaba uyushmalarini ishchilar sinfini tashkillashtirishning muhim shakli deb kisoblanadi. Ishlab chiqarish vositalari kasaba uyushmalariga o`tishi shart. Bevosita harakat iqtisodiy ish tashlash, sabotaj, umumiy iqtisodiy stachka taktikasini qo`llashadi.

**O`nlar guruhi («Parij klubi»)** — xukumatlararo tashkilot. AQSH, Kanada, YAponiya, Bel`giya, Frantsiya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya, SHvetsiya va Angliya xukumatlari o`rtasidagi bitim natijasida 1961 yilda Parijda tuzildi. SHveytsariya ushbu tashkilotda rasman ishtirok etmaydi, biroq uning vakili bu tashkilotning kengashlarida muttasil qatnashib turadi. Tashkilot to`g`risidagi bitim kreditlar to`g`risidagi Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) bosh bitimi tuzilgandan keyin 1962 yil 24 oktyabrda kuchga kirdi. «Parij klubi»ning rasmiy maqsadi — tang hollarda manfaatdor mamlakatlarga o`z fondidan yordam berish yo`li bilan XVFning valyuta zaxiralarini ko`paytirishdir. Klubning bitim bilan belgilangan dastlabki fondi 6 milliard dollarni tashkil etgan, hozirda u bir necha bor ko`paygan.

O`nlar guruhi muntazam suratda amal kilmay, balki vaqti—vaqti bilan ikki darajada: vazirlar va lavozimlar darajasida o`tkazilib turadigan kengash shaklida amal kiladi. Vazirlar darajasida o`tkazilganda kengashda moliya vazirlari va markaziy banklarning boshqaruvchilari, SHveytsariya bankining prezidenta, XVFning boshqaruvchi direktori, Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish tashkilotining bosh kotibi, Yevropa iqtisodiy uyushmasi komissiyasi raisi o`rinbosari qatnashadi. Lavozimli darajadagi kengashlarda moliya vazirligi, markaziy banklar, yuqorida ko`rsatib o`tilgan xalqaro tashkilotlar apparatidan yuqori lavozimli amaldorlar qatnashadi. Kengash kat`iy ravishda maxfiy o`tkaziladi. O`nlar guruhi raisi lavozimini guruh qatnashchilari bo`lgan mamlakatlar moliya vazirlari navbat bilan egallab turadilar.

O`nlar guruhi amalda G`arbning valyuta moliya muammolarini tartibga solib turuvchi va XVFning siyosatini belgilab beruvchi organga aylanib qoldi. XVFning ko`p karorlari, jumladan, valyuta kurslarini belgilash, XVF oltin zaxirasini sotish, yordam berish shartlarini belgilash to`g`risidagi va boshqa karorlari ularni O`nlar guruhi tasdiqlagandan keyin qabul etiladi.

### **Diplomatiyaga oid tarixiy va zamonaviy atamalar.**

**Diplomatiya** (fr. diplomatic) — 1) davlat boshliqlari, shuningdek ularning maxsus organlarning davlatni tashqi siyosat sohasidagi maqsad va vazifalarini amalga oshirish sohasidagi, chet ellarda davlat, uning idoralari va grajdanlarning xuquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi rasmiy faoliyati. Diplomatiya davlat tashqi

siyosatining muhim vositasidir. Muzokaraalar, yozishmalar va davlatning chet eldagi kundalik vakilligi shaklida amalga oshiriladi

**Diplomat** (fr. diplomate) —

1) O'z davlatining chet eldagi davlatlar bilan rasmiy siyosiy aloqalar qilib turish bo'yicha vazifalarni amalga oshirib turuvchi mansabdor shaxs. Diplomat tashqi ishlar bilan shurullanuvchi idora yoki davlatlarning chet eldagi vakillarida mansabdor shaxs bo'lishi mumkin;

2) Muzokaralar olib borish san'atini biladigan, kishilar va ustalik bilan muomalada bo'luvchi shaxs.

**Diplomatik immunitet** — chet el diplomatik vakolatxonalariga va ana uyi vakolatxona xodimlariga beriladigan engilliklar, imtiazlar va afzalliklar: binolarning va harakat qilish vositalarining daxlsizligi, shaxsiy daxlsizlik, jinoiy va grajdanlik ishlari bo'yicha sudga tortilishdan ozod qilish, soliqlar va boj soliqlaridan ozod qilish, o'z xukumati bilan xabarlashib turish erkinligi, vakolatxona binosiga bayroq va gerb osish xuquqi va xokazolar yigindisi diplomatik immunitet diplomatik vakolatxonalar xodimlarining oilalariga ham taalluqli. Davlatning savdo vakolatxonasi va ularning xodimlari ham diplomatik immunitetdan foydalanadi.

**Diplomatik korpus** — 1) biror davlatda akkreditlangan chet el diplomatik vakolatxonalari boshliqlarining yig'indisi; 2) keng ma'noda — diplomatik vakolatxonalarning barcha diplomatik xodimlari va ularning a'zolari. Diplomatik korpus xuquqiy shaxs makomiga ega bo'lgan uyushma, tashkilot emas.

**Diplomatik kur'er** — mansabdor shaxs bo'lib, uning vazifasiga o'z davlatining tashqi ishlar bilan shug'ullanuvchi idorasidan ana shu davlatning chet eldagi diplomatik vakolatxonasiga diplomatik pochmani olib borish va u erdan olib kelish kiradi. Diplomatik kur'er diplomatik immunitetdan to'la foydalanmaydi, biroq hududidan o'tib ketadigan davlatlarda shaxsiy daxlsizlik xuquqidan foydalanadi va sud qilinmaslik xuquqiga egadir. Xalqaro odob tariqasida diplomatik kur'er shaxsiy bagajini bojxona karovidan o'tqazishdan va bojxona bojlari to'lashdan ozod qilinadi.

**Tashqi siyosat** — xalqaro maydonda davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni tartibga solib turuvchi siyosat. Tashqi siyosat ichki siyosat bilan chambarchas borlangan va davlat hamda ijtimoiy tuzumning xarakterini aks ettiradi.

**Elchi** — diplomatik daraja, xalqaro xuquqda qabul qilingan klassifikatsiyaga muvofiq I klass diplomatik vakil.

**Elchixonona** — 1) biron davlat xukumati tomonidan ikkala davlat uchun ham muhim boʻlgan masalalar boʻyicha diplomatik muzokaraalar olib borish uchun maxsus topshirik bilan boshqa davlatga yuboriladigan bir guruh kishilar;

2) Biron davlatning boshqa davlat hududidagi elchi boshchilik kiladigan doimiy vakolatxonasi boʻlib, u diplomatik aloqalarni amalga oshirish uchun ana shu davlatlar oʻrtasidagi kelishuvga muvofiq tuziladi.

**Agreman** — (fr. agreement — rozilik) — bir davlat xukumatining boshqa davlat doimiy diplomatik vaqilini oʻz mamlakatida qabul qilish toʻgʻrisidagi roziligi. Agramen ikkala mamlakat tashqi ishlar idoralari tomonidan yozma ravishda talab qilib olinadi va beriladi.

**Attashe** (fr Attache — aynan biriktirilgan) —1) kichik diplomatik daraja;

2) elchixonalarda va missiyalarda diplomatik tarkibdagi lavozimli kishi;

3) Biror boshqa (diplomatik boʻlmagan) muassasaning muayyan soha boʻyicha mutaxassis sifatida elchixonalarga yoki missiyalarga yuborilgan vakili (masalan, harbiy attashe, savdo attashesi).

**Viza** (fr. Visa, lat Visus dan – karalgan) — 1) Xar qanday shaxsning biror mamlakatga kelishi yoki undan ketishi mumkinligi toʻrtisida, shuningdek, chet ellik kishining biror davlat hududi orqali oʻtib ketishi toʻgʻrisida uning xujjatiga rasmiy belgi; 2) Xujjatdagi rasmiy yozuv boʻlib, u bu xujjatning tasdiklanganligini, ruyxatdan yoki tekshirishdan oʻtkazilganligini bildiradi.

**Ishonch yorligʻi** — davlat boshligʻi tomonidan diplomatik vakilga ana shu lavozimga tayinlanaetgan vaqtda beriladigan xujjat. Ishonch erliri diplomat boradigan davlat boshligʻi nomiga yoziladi. Ishonch erligi topshirilgan vaqtdan boshlab diplomatik vakil uz vazifalarini bajarishga kirishdi deb hisoblanadi

**Konsullik** (lot. Consul) — 1) Qadimgi Rimda (respublika davrida) saylab quyiladigan yuqori lavozimli kishi; 2) Hozirgi zamon xalqaro xuquqida – bir davlatning boshqa bir davlatning konsullik okrugi deb ataluvchi biron shaxrida uz davlatining xuquqiy, iqtisodiy va boshqa manf–aatlarini himoya etuvchi mansabdor kishi.

**Kommyunike** (hozirgi zamon xalqaro xuquqida) — bir davlatning boshqa davlatga muayyan hududidagi muassasasi bo`lib, unga konsul boshchilik qiladi.

**Protokol** (fr. Protocole, grekcha protokollon dan— manuskript uramiga yopishtirib quyilgan birinchi varak) —

1) Yigilishda, majlisda, surok vaqtida va xokazo bo`lib o`tgan gaplar yozilgan xujjat;

2) Biror fakt, xodisa xaqida guvohlik beruvchi xujjat;

3) Biror maxsus masala bo`yicha davlatlar o`rtasidagi yozma bitim;

4) Diplomatik pakt — turli diplomatik aktlarni amalga oshirish tadbirini va turli mamlakatlar diplomatlari o`rtasidagi va rahbar davlat arboblari o`rtasidagi munosabatlarni tashqi shakllarini tartibga solib turuvchi koidalar yig`indisi.

**Naturalizatsiya** (lot. Naturalis dan — tabiiy) — chet ellik kishi tomonidan biron mamlakatda fuqarolik olish.

**Nota** (lot. Nota, aynan — yozma belgi) — diplomatik amaliyotda bir davlatning ikkinchi bir davlatga rasmiy murojaati. Nota yordamida bir hukumatning huquqi yoki da`vosi, ikkinchi bir hukumatning noto`g`ri siyosati xarakteridan noroziligi bayon qilinishi mumkin, shuningdek notalar almashtirish yo`li bilan bitim tuziladi. Boshqa rasmiy diplomatik xujjatlar kabi nota ham informatsion xarakterga ega bo`ladi.

**Pakt** (lot. Pactum — bitim) — katta siyosiy ahamiyatga ega bo`lgan xalqaro shartnoma, bitim. Pakt xavfsizlik, xujum qilmaslik, o`zaro yordam kabi va boshqa tashqi siyosiy masalalarni solib turadi.

**Memorandum** (lot. Memorandum — esda saqlab qolishi lozim bo`lgan narsa) — diplomatik ezishma formulalaridan biri bo`lib notaga qaraganda odatda ahamiyati kamroq bo`ladi. Memorandum muzokara olib borilayotgan masalaning faktik yoki xuquqiy tomonlarini bayon qilish tarzida tuziladi va ko`pincha notaga tirkab quyilib, undap koidalarni rivojlantiradi va asoslab beradi.

**Preambula** (fr. Preambule, lat Preambulus — oldinda boruvchi) — xalqaro shartnoma yoki bitimning kirish qismi bo`lib, unda odatda prishshapl qoidalar va sabablar, shartnomani tuzish uchun asoslar bayon etiladi.

### **Mustaqillikning e`lon qilinishi.**

Olis va yaqin tarix bugungi kun va kelajak uchun ibrat darsligidir. Darvoqe, Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek: "*Vatan, Millat taqdiri hal bo`ladigan kaltis*

*vaziyatlarda to`g`ri yo`lni tanlay olish uchun, avvalo, tarixni va hayotning achchiq chuchugini bilish kerak ekan. Tarix insonning ko`zini ochar ekan. SHunda ko`p xatolarning oldini olish mumkin bo`lar ekan".*

O`zbekiston XX asrning surgu un yilliklari boshida o`z mustaqilligini e`lon qildi. Bu esa ijtimoiy—siyosiy, ma`navii, madaniy hayotimizda yangicha o`zgarishlar eshigini ochdi. O`zbekiston bir necha xalqaro tashkilotlarning a`zosi bo`ldi. Ko`plab davlatlar tomonidan tan olinib, o`zaro aloqalar yo`lga quyildi.

Aytish mumkinki, ushbu sharoitda millatimiz xalqlari tiliga ko`plab yangi atamalar jadal kirib keldi. Bular avvaldan ilgor davlatlarda qo`llanib kelingan bo`lsa—da, ammo mavjud bo`lgan shurolar tuzimi davrida bu kabi atamalar va ularning amaliyotiga aslo yo`l quyilmagan edi. Masalan, aktsiya, aktsiz, kommunikatsiya, dividend, monitoring, konsalting, birja, marketing va xokazolar. Ushbu atamalarning sohalari tiklanib, minglab kishilar uning tarmoklarida faoliyat ko`rsatmokda.

Ko`plab mavjud atamalarning ta`sir doiralari kuchaydi. Bunga misol qilib, demokratiya, Konstitutsiya, Ombudsman, parlament (Oliy Majlis) va hokazolarni kiritish mumkin.

Aytish mumkinki, XVIII asrda ilk bor AQSH da joriy etilgan Prezidentlik boshqaruvi hali sobiq SSSR davridayoq ilk bor O`zbekistonda joriy etildi. eski so`z deb qaralgan oqim atamasi ham bugungi mustaqil davlatimizda mahalliy ijroiya va boshqaruv organlari boshlig`i ya`ni viloyatlar, tuman va shaharlar boshliriga nisbatan qo`llanilmokda. Oqsoqol atamasi ham faqat mahallaning obruli kishisiga yanada aniqroq aytadigan bo`lsak o`z—o`zini boshqarish organlarida keng qo`llanilmoqda.

Tarix g`ildiragi kunu tun tinmay aylanmoqda. Uning shiddati shu qadar kuchliki biz insonlar uning har bir kunidan, xar bir yangiligidan boxabar bo`lib yashashimizni taqozo etmoqda ya`ni inson o`zgarishlardan, harakatdan to`xtab qolishi mumkin. Tarix esa harakatda, faqat oldinga intilmoqda.

Yillar davomida eskirgan — "arxaik" so`zlar deb qaralgan atamalar ham butun tilimizga kaytadan kirib kelmoqda. Bu esa xalqimiz tarixiy — milliy, ma`navii merosi bilan bog`liqligini aslo unutmashimiz kerak.

Yoshlar ham ana shu merosga munosib bo'lishga intilishlari lozim. Buning uchun dunyoqarashlarimizni, ilmimiz va iqtidorimizni yangilanayotgan dunyoga uyrunlashtirishimiz kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov aytganidek: «*Vaqt dunyo qarashimizni islox, qilishni qattiq talab qilmoqda*».

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Yangi davrda dunyoda qanday o'zgarishlar sodir bo'lgan?
2. Yangi va Eng yangi tarix davrida dunyoda iqtisodiy sohada qo'llaniladigan qanday atamalar paydo bo'ldi?
3. Diplomatik mazudagi atamalarning keng tarqalishiga nimalar sabab bo'lgan?
4. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi natijasida qanday yangi atamalar paydo bo'ldi?
5. Xozirgi kunimizda qaysi sohada yangi atamalarningvujudga kelishi kuzatiladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. –T., 1998.
2. Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmokda. –T. 1995.
3. Barkamol avlod orzusi. –T., 1999.
4. Bugaeva G.A. Kratkiy politologicheskiy slovar'. –T., 1995.
5. Diplomaticheskiy slovar'. T. 1–3. –M., 1984–1986.
6. Istoriya Parijskoy Kommuni 1871 goda. –M., 1971.
7. Istoriya pervoy Mirovoy voyni. 1914–1918. Tt.1 – Z.–M., 1975.
8. Kovalyov A.N. Azbuka diplomatii. – M., 1984.
9. Mustaqillik izohli ilmiy – ommabop lug'at. –T., 1998.
10. Novaya istoriya. – M., 1984.
11. Raxmatullaev SH. O'zbek tilining etimologii lug'ati. –T., 2000.
12. Slovar' inostrannix slov. – M., 1990.
13. Qisqacha siyosiy lug'at. –T., 1983.
14. O'zbekistonning yangi tarixi. 3 jild. Mustaqil O'zbekiston tarixi. –T., 2000.

## Mustaqil ish mavzulari

<b>№</b>	<b>Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga oid bilim va mavzulari</b>	<b>Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar</b>	<b>Bajarilish muddati</b>	<b>Hajmi (soatda)</b>
7.	Qadimgi dunyo tarixining tarixiy atamalari.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish	2-hafta	2
8.	O`rta Osiyoga arablar bosqini. Arab tilidan o`zlashgan tarixiy atamalar.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish	3-hafta	2
9.	O`rta Osiyo davlatlarining IX - XIII asrlardagi tarixiy atamalari.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish	4-hafta	2
10.	O`rta asrlar Yevropa mamlakatlarining tarixiy atamalari.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish	4-hafta	2
11.	O`rta Osiyo xonliklarining tarixiy atamalari (XIX-XX asr boshlari).	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish	5-hafta	2
12.	Yangi va eng yangi tarix davrining tarixiy atamalar.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish	5-hafta	4
	<b>JAMI</b>			14

## «So`g`diyona» boshqotirmasi

1	S	O`	G`	D	I	YO	N	A	
2	S	U	G`	D	A				
3	A	F	R	O	S	I	YO	B	
4	O	K	S	I	A	R	T		
5	R	A	V	SH	A	N	A	K	
6	S	P	I	T	A	M	E	N	
7	P	O	L	I	T	I	M	I	T
8	S	U	G`	U	D	A			

1. Zarafshon vohasidagi qadimgi davlat.
2. So`g`diyoning «Avesto»dagi nomi.
3. So`g`diyoning poytaxti.
4. Iskandar bosqini davrida So`g`diyona hokimi.
5. Iskandar sevib qolgan sug`d go`zali.
6. So`g`diyonda Iskandarga qarshi qo`zg`olon rahbari.
7. Zarafshon daryosining yunon manbalaridagi nomi.
8. So`g`diyoning Behustun yozuvidagi nomi.

## «Amir Temur» boshqotirmasi

1	X	O`	J	A	I	L	G`	O	R				
2	J	A	H	O	N	G	I	R	M	I	R	Z	O
3	B	I	B	I	X	O	N	I	M				
4	A	N	Q	A	R	A							
5	S	A	M	A	R	Q	A	N	D				
6	Z	A	N	G	I	O	T	A					
7	S	A	I	D	B	A	R	A	K	A			
8	M	I	R	Z	O	U	L	U	G`	B	E	K	
9	X	A	L	I	L	S	U	L	T	O	N		
10	A	B	U	S	A	I	D	M	I	R	Z	O	
11	A	L	I	YA	Z	D	I	Y					

1. Amir Temur tug`ilgan qishloq nomi.
2. Amir Temurning to`ng`ich o`g`li.
3. Amir Temurning suyuqli xotini
4. Yildirim Boyazidga qarshi jang o`tkazilgan shahar.
5. Amir Temur davlatining poytaxti.
6. Toshkent yaqinida Amir Temur qurdirgan maqbara.
7. Amir Temurning pirlaridan biri.
8. «Tarixi arba` ulus» asarining muallifi.
9. Amir Temurdan so`ng Samarqand taxtini egallagan shahzoda.
10. Amir Temurdan so`ng Movarounnahr va Xurosonni qayta birlashtirgan temuriy shahzoda.
11. «Zafarnoma» asarining muallifi.

5220200-tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishi 4-kurs talabalari uchun

**TARIXIY ATAMASHUNOSLIK fanidan  
TEST SAVOLLARI**

So'g'd yozuvi alfaviti necha harfdan iborat bo'lgan?	23 ta.	*25 ta.	28 ta.	31 ta.
Baqtriya aholisi bilan birgalikda Baqtriyani Salavkiylardan ajratib olib, yangi davlatga asos solgan xalq bu...	So'g'd.	Massaget.	Sak.	*Day.
"Avesto" jamiyatida hududiy qo'shnichilik jamoasi nima deyilgan?	Nmana.	Vis.	*Varzana.	Zantu.
Sariq, qora, qizil kabi urug'larga bo'lingan xalqni aniqlang?	So'g'd.	Day.	Yuechji.	*Qang'li.
Ilk O'rta asrlarda shahar va qishloq aholisi nima deb atalgan?	*Naf.	Ozodkor.	Kashovarz.	Korikor.
Qadimgi Yunon afsonalariga ko'ra "... oppoq otlar qo'shilgan oltin aravasida osmonga chiqqanida go'yo kunduz boshlanadi." Nutqlarni to'ldiring?	Ra.	*Gelios.	Apollon.	Demetriy.
Er osti ibodatxonalari qaysi dinda bo'lgan?	Zardo'shtiylik.	Animizm.	Politizm.	*Mitraizm.
"Asir olingan" degan ma'noni bildiruvchi so'zni aniqlang?	Plebey.	Vayshe.	*Ilot.	Kolon.
Mil. Avv. XIII asr boshlarida doriylar Yevrat daryosining o'ng sohilida qaysi shaharga asos soldilar?	Messey.	Lakonika.	Afina.	*Sparta.
Kimlar hukmdorlarni luxomon deb atashgan?	Ilotlar.	Spartaliklar.	*Etrusklar.	Plebeylar.
"al-Xulafo-ar-roshidun" nomi bilan mashhur bo'lgan xalifani aniqlang?	Abubakr.	Umar.	Usmon.	*Barcha javob to'g'ri.
O'zlarini sayidlar deb hisoblovchilar qanday rangda salla o'rashgan?	Oq.	*Yashil.	Kulrang.	Ko'k.
"Rabbi-al-avval" oyining 12-kuni bo'ladigan marosim?	*Mavlid.	Navro'z.	Laylatul-qadr.	Xayit.
Zimmiylar kimlar?	Payg'ambar yaqinlari	SHia mazhabi oqimi	Sunna mazhabi oqimi	*Musulmon bo'lmagan aholi
Yuz bosh hayvondan biri miqdorida olinadigan soliq turi?	Xiroj.	Zakot.	*Qopchur.	SHulen.

Osiyo puli deb ataluvchi Soliq kimlardan olingan?	Savdogarlardan.	Dehqonlardan.	Objuozlardan.	*Tegirm onlardan
XIII asrda O`rta Osiyoda mavjud bo`lgan "avorizot" nima edi?	Soliq turi.	*Ishlab berish majburiyati.	Og`irlik o`lchovi.	Uzunlik o`lchovi
Quyidagilardan eng kichik og`irlik o`lchov birligini toping?	Botmon	Pud.	*Jav.	Istor.
Feod-in`om qilingan er-mulk qayerda "len" deb atalgan?	Angliyada.	Fransiya da.	Avstriy ada.	*Germa niyada.
O`rta asrlarda germanlardagi "al'menda" nima edi?	O`tloqlar	O`rmonlar.	Haydal adigan erlar.	*A,V,S.
"SHerif" qanday vazifalarni bajargan?	Harbiy.	Sud.	Ma`muriy.	*A,V,S.
SHlyaxta-bu qaysi davlatdagi unvon hisoblanadi?	Rossiya.	Ukraina	Litva	*Polsha.
O`rta asr Yevropasida "paj" nima edi?	*Mahram	Unvon.	Soliq turi.	O`lchov birligi.
Rim papasini saylovchi kardinallar majlisi nima deb atalgan?	Kostel.	*Konklav.	Bulla.	Nuntsiy.
Dastlabki paytlarda xristian cherkovining xazinachisi nima deyilgan?	Kardinal.	Mitropolit.	*Episkop.	Abbat.
Puritanlar qaerda diniy harakatlarni olib borishgan?	*Angliya	Fransiya	German iya.	Italiya.
Urush Vaqtida hukumat ijozati bilan dushmanning savdo kemasini bosib oluvchi xususiy dengizchilar nima deyilgan?	Moriskilar.	Piratlar.	*Korre xidorlar	Gyozlar.
"Yengilmas armada" qaysi davlatga tegishli harbiy flot?	Angliya	Fransiya	*Ispaniya	Gollandiya.
Ritsarlar harbiy musobaqasi-turnir qaerda paydo bo`lgan?	Angliya.	*Fransiya.	German iya.	Italiya.
Davlat qurilishlariga javobgar shaxs nima deb ataladi?	*Kutvol.	Udaychi	Dodxox	Qushbegi.
Diplomatik amaliyotda bir davlatning ikkinchi bir davlatga rasmiy murojaati nima deyiladi?	Kommyunike	*Nota	Pakt	Memorandum
Urush yoki emigratsiya natijasida o`z mamlakatidan tashqarida qolgan harbiy asirlarni va fuqarolarni vataniga qaytarish nima deb ataladi ?	Imigratsiya	Restitut siya	*Repatriatsiya	Repress alii
Angliyadagi fabrikalarda tsex yetakchilari, korxonalarda ishchilar tomonidan saylanadigan vakillar	Tred-yunionlar	Kollobonistlar	Kart-blansh	*SHopstyuadlar

qanday nom ataladi?				
Dengiz ko'pigidan paydo bo'lgan yunon ma'budasini aniqlang?	Demetra	Afina	Gera	*Afrodita
Muhr bosilgan davlat va cherkov aktlarini tantanali shaklda e'lon qilishning G'. Yevropadagi eskicha nomi nima deyiladi?	Kostel	*Bulla	Nuntsiy	Messa
Skandinaviya xalqlarida dastlab harbiy yo'lboshchi, feodalizm rivojlangach podsho ma'nosni bildirgan tarixiy atamani toping?	*Kopun	Korsar	SHerif	Magnat
Atama so'zi qaysi so'zdan olingan?	*Marza	Tepa	Qirg'oq	Yo'l cheti
Kalakalash yo'li bilan hosil bo'lgan atamani aniqlang.	Polotno	CHang yutgich	Termometr	*Besh yillik plan
5 asrda atamashunoslik qaysi tilda shakllangan edi?	Roman	German	*Lotin	Ispan
Ver'f qaysi sohaga taalluqli atama?	Savdogarlik	*Kemasozlik	Bankirlik	Harbiy
Toli barzudan qaysi yozuv namunasi topilgan?	*So'g'd	Oromiy	Qadimgi turkiy	Forsiy
Xorazm Behistun yozuvlarida qanday shaklda qayd etilgan?	Xvariazm	*Xvarizmish	Xorasmiya	Xorazm
"Baxdi" atamasi qaysi yozma manbada qayd etilgan?	*Avesto	Bexistun yozuvi	Qadimgi yunon manbalari	Qadimgi rim manbalari
"Avesto" jamiyatida qabilalar jamoasi qanday nom bilan atalgan?	Nmana	Vis	Varzana	*Zantu
Quyidagilardan qaysi biri zaharli jonivorlarni vujudga keltirgan?	Axuramazda	*Axriman	Anaxita	Mitra
Ahamoniylar O'rta Osiyoni nechta satraplikka bo'lganlar?	2	*3	4	5
Mil. av. davrlarda O'rta Osiyoda jangovor bolta qanday nomlangan?	Ag'ianak	Tabar	*Sagaris	Bargistuvon
Arablar istilosiga qadar So'g'dda nechta ixshid hukmronlik qilgan?	7	9	11	*13
Aholining qaysi qatlami bo'dun nomi bilan atalgan?	Dehqonlar	*CHorvadorlar	Savdogarlar	Hunarmandlar
Mute qo'shchilar nima deyilgan?	Kashovar	Korikor	*Kashovar	Bantak
Quyidagi ma'budalardan qaysi biri Zevsning qizi hisoblanadi?	Afrodita	*Afina	Anaxita	Demetra
"Bandalarning homiysi" ma'nosini anglatuvchi so'zni aniqlang.	*Avliyo	Amir	Anbiyo	Ansor
"Mas'ul shaxs" ma'nosini bildiruvchi atamani aniqlang.	Murid	Noyib	*Sayid	Xoja

Quyidagilardan natura shaklida olinadigan soliq turini aniqlang.	Alaf puli	*Ushr	Iqto	Begar
Xonliklarda saroy ta'minotchisi nima deb atalgan?	*Nozir	Parvona chi	To'qsab o	Qushbe gi
Xon farmonlarini etkazuvchi mansab egasini aniqlang.	Nozir	*Parvon achi	To'qsab o	Qushbe gi
Xon bayrog'ini qo'riqlaydigan qism boshlig'i nima deyilgan?	Nozir	Parvona chi	*To'qsa bo	Qushbe gi
13 asrda hosilning 10dan 1 hajmida olinadigan er solig'i nima deyilgan?	Qopchur	*Kalon	SHulen	Suyurg' ol
Barid qanday o'lchov birligi?	Og'irlik	Hajm	Issiqlik	*Masofa
0.045 gr. ga teng bo'lgan o'lchov birligini aniqlang.	*Jav	Dong	Zar`	Zira`
Quyidagilardan masofa o'lchov birligini aniqlang.	Istor	*Kurux	Nimcha	Kol
Quyidagilardan og'irlik o'lchov birligini aniqlang.	Farsax	Kurux	Zar`	*CHaks a
Iqto, Jagir, Proniya kabi atamalarga muvofiq keluvchi atamani aniqlang.	Almenda	*Benefit siy	Gayda	Barshch ina
Bir akr qancha bo'ladi?	10 sotix	*40 sotix	1 gektar	2 gektar
Grafning funktsiyalari nimalardan iborat?	Harbiy	Sud	Ma`mur iy-politsiy achilik	*Barcha javoblar to'g'ri
O'rta asrlarda G'. Evropada podsho saroyidagi amaldorni aniqlang.	Paj	*Paladi n	Magnat	Graf
Vengriyada yirik er egalari nima deyilgan?	Paj	Paladin	*Magna t	Graf
Papa elchisi nima deb atalgan?	Kardinal	Kostel	Bulla	*Nuntsi y
Protestant ruhoniysinin aniqlang.	Mitropoli t	Prior	*Pastor	Episkop
Dastlab cherkov hazinachisi bo'lgan mansabni aniqlang.	Mitropoli t	Prior	Pastor	*Episko p
8-15 asrlarda Pireneya ya.o. xalqlarining arablar tomonidan bosib olingan hududlarni jang orqali qaytarib olish nima deyiladi?	*Rekonki sta	Salib yurishla ri	Guschil ar harkati	Messa
Ispaniya va uning mustamlakalaridagi ma'muriy va sud lavozimi qanday nomlangan?	Korteslar	*Korrex idorlar	Korsarl ar	Kopun
Ilk feodalizm davrida G'arbda qirol tayinlaydigan okrug boshlig'i nima deb atalgan?	*Graf	Gertsog	Ritsar	Baron

Ilk o'rta asrlarda G'. Evropada qabila knyazi nima deyilgan?	Graf	*Gertso g	Ritsar	Baron
Gil'om Kal qaysi harakatga boshchilik qilgan?	Guschilar	G'ov tutish	Salibchilar	*Jakeriya
Xonliklarda davlat qurilishlariga javobgar shaxs nima deb atalgan?	Udaychi	Parvona chi	*Kutvol	Jevachi
XX asr boshlarida Buxoro amirligida nechta beklik mavjud bo'lgan?	12 ta	15 ta	24 ta	27ta
Qurol aslaha omborining boshlig'i nima deyilgan?	Udaychi	Parvona chi	Kutvol	*Jevachi
Hukumatni g'ayriqonuniy ravishda egallovchi va diktatorlik usullari bilan hukmronlik qiluvchi fitnachi guruhlar qanday atama bilan izohlanadi?	*Xunta	Terror	Reyxsv er	Aparteid
1919-1935 yillardagi Germaniya qurolli kuchlari nima deyilgan?	Reyxstag	*Rexsver	Reyxsrat	Natsizm
Xudo va uning fazilatlarini, diniy aqidalar to'g'risida muqaddas kitoblar va cherkov rivoyatlari xaqidagi ta'limot fanda qanday nomlanadi?	Geologiya	Paleontologiya	*Teologiya	Arxeologiya
Guchilar harakati qaerda bo'lib o'tgan?	*CHexiya	Italiya	Germaniya	Angliya
Quyidagilar orasidan raqiblarini jismonan yo'q qilishga asoslangan siyosiy harakat usulini aniqlang.	Xunta	*Terror	Reyxsv er	Aparteid
Quyidagilar orasidan shafqatsiz irqiy kamsitish siyosatini aniqlang.	Xunta	Terror	Reyxsv er	*Aparteid
Germaniya parlamenti 1867-1945 yillarda qanday nomlangan?	*Reyxstag	Rexsver	Reyxsrat	Natsizm
1919—1934 yillarda Germaniya parlamentining o'lka va viloyatlar vakillaridan iborat bo'lgan, qonunchilik va boshqaruv masalalari bo'yicha mas'ul palatasi qanday nomlangan?	Reyxstag	Rexsver	*Reyxsrat	Natsizm
Aynan matbuot vakillarining instruktaji yoki qisqacha kengashi nima deyiladi?	Interventsiya	*Brifing	Antisemitizm	Koalitsiya
Millatchilikning semit xalqi yahudiylarga qarshi qaratilgan ko'rinishlaridan biri qanday nomlangan?	Interventsiya	Brifing	*Antisemitizm	Koalitsiya
Davlatlar, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va boshqa tashkilotlarning umumiy siyosiy,	Interventsiya	Brifing	Antisemitizm	*Koalitsiya

harbiy, iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun tuzgan uyushmasi, ittifoqi, bitimi nima deyiladi?				
Bir yoki bir necha davlatning boshqa davlat ichki ishlariga zo'ravonlik bilan aralashuvi, uning suverenitetini buzishni anglatuvchi atamani aniqlang.	*Interven tsiya	Brifing	Antise mintiz m	Koalitsi ya
Ikkinchi Jahon urushi davrida fashist bosqinchilari bilan hamkorlik qilgan shaxslar qanday nomlangan?	*Kollobo ronistlar	Tred- yunionl ar	SHop- styuardl ar	Natsistla r
Angliyadagi fabrikalarda tsex etakchilari, korxonalarda ishchilar tomonidan saylanadigan vakillar nima deyilgan?	Kollobor onistlar	Tred- yunionl ar	*SHop- styuardl ar	Natsistla r
Ingliz kasaba uyushmalari harakatidagi oqim qanday nomlangan?	Kollobor onistlar	*Tred- yunionl ar	SHop- styuardl ar	Natsistla r
Germaniya fashizmining nomlaridan birini aniqlang.	Kollobor onistlar	Tred- yunionl ar	SHop- styuardl ar	*Natsist lar
Yadro texnologiyasi, asbob-uskuna va materiallar etkazib beruvchi bir guruh davlatlarni bildiruvchi atamani aniqlang.	Neokolo nializm	*Londo n klubi	Anklav	Anneksi ya
Davlat hududining yoki davlatlar territoriyasi bilan xar tomondan o'rab olingan qismi nima deb ataladi?	Neokolo nializm	London klubi	*Ankla v	Anneksi ya
Bir davlatning hududining (yoki uning bir qismining) boshqa davlat tomonidan zurlik bilan bosib olinishi nima deyiladi?	Neokolo nializm	London klubi	Anklav	*Anneks siya
Urush holati vujudga kelishi uchun bevosita rasmiy sabab qanday nomlanadi?	*Kazus belli	Kapitul yatsiya	Kart- blansh	Morator iy
Ichki yoki tashqi majburiyatlarini bajarilishini uzaytirish nima deyiladi?	Kazus belli	Kapitul yatsiya	Kart- blansh	*Morato riy
Mudofaa qilinayotgan ob`ektni dushmanga topshirish yoki qo'shinning asir tushishi qanday ataladi?	Kazus belli	*Kapitu lyatsiya	Kart- blansh	Morator iy
Biror shaxs imzo chekib, boshqa shaxsga uni o'zi istagan mazmunda to'ldirish xuquqi berilgan toza blank nima deyiladi?	Kazus belli	Kapitul yatsiya	*Kart- blansh	Morator iy

Boshqa davlatlar va bir guruh davlatlar bilan o'zining munosabatida betaraflikni asosiy printsip qilib e'lon qilgan davlat siyosati qanday ataladi?	Neokolonializm	*Neytralizm	Protektoriat	Repatriatsiya
Kuchli davlatning kuchsiz davlat ustidan rasmiy homiylik qilish nima deyiladi?	Neokolonializm	Neytralizm	*Protektoriat	Repatriatsiya
Urush yoki emigratsiya natijasida o'z mamlakatidan tashqarida qolgan harbiy asirlarni va grajdan shaxslarni vataniga qaytarish qanday ataladi?	Neokolonializm	Neytralizm	Protektoriat	*Repatriatsiya
Imperialistik davlatlarning mustamlakachilik sistemasi barbod bo'layotgan sharoitda mustamlaka qaramligidan ozod bo'lgan mamlakatlar ustidan yangi, ancha tadbirli usullar bilan o'z hukmronligini saqlab qolishi nima deyiladi?	*Neokolonializm	Neytralizm	Protektoriat	Repatriatsiya
Davlatga tegishli tabiiy boyliklar, korxonalar va boshqa ob'ektlarni xorijiy davlatlarga, kompaniyalar va ayrim shaxslarga ma'lum muddatga foydalanishga berish qanday nomlanadi?	*Kontsessiya	Depressiya	Konsortsium	Reparatsiya
Bir necha bank yoki sanoat kompaniyalarining karzni birgalikda joylashtirish yoki umumiy qimmat turuvchi loyixani birgalikda amalga oshirish maqsadida vaqtinchalik kelishuvi nima deyiladi?	Kontsessiya	Depressiya	*Konsortsium	Reparatsiya
Agressiya qilgan davlat tomonidan xujumga uchragan davlatga etkazilgan zararini qoplash uchun to'planadigan tovon nima deb atalgan?	Kontsessiya	Depressiya	Konsortsium	*Reparatsiya
Ortiqcha ishlab chiqarish inkirozidan so'ng ro'y beradigan iqtisodiy turgunlik, tovarlarga talab kamligi, ommaviy ishsizlik bilan tavsiflanadigan davr qanday nomlangan?	Kontsessiya	*Depressiya	Konsortsium	Reparatsiya

## O'zlashtirish nazorati.

1. «Tarixiy atamashunoslik» fanidan talabalar bilimini baxolash mezonlari.

**Joriy baholash.** Talabalarning amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarligi, qatnashganliklari va faolliklari baholash asosida itkaziladi. Jami joriy nazorati 1 marta itkazilib, talabalar jami 45 ball to'plashlari mumkin. Bunda talaba har joriy baholash mashg'ulotlarida quyidagicha ball to'plashi mumkin:

- o'quv intizomi - 20% ball;
- faollik va bajarilgan topshiriqning sifati - 30% ball;
- nazariy bilimdonlik - 50% ball.

jami: -100% ball.

**Oraliq baholash.** Ma'ruza mashg'ulotlari asosida OB itkaziladi. Talabalar 2 ta savoldan iborat yozma ish yozadilar yoki 36 ta savoldan iborat test echadilar. Oraliq nazorat 1 marta itkazilib, unda talabalar 40 ball to'plashlari mumkin.

**Yakuniy baholash.** Talaba joriy(JB) va oraliq baholash(OB) bosqichlarida tiplagan ballari miqdoridan qat'iy nazar, yakuniy baholash topshirigini bajaradi. Yakuniy nazoratda predmet uchun ajratilgan umumiy ballning 15 %, ya'ni 15 ball ajratiladi. Talabalar 5 ta tayanch ibora asosida yozma ish yozadilar yoki berilgan 5 ta savolga oq'zaki javob beradilar. Har bir tayanch ibora va savol 3 balli tizimda baholanadi. Shunda talaba maksimal 15 ball to'plashi mumkin.

### 7.2. Semestrlar bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish turlari.

Semestr	Nazorat turi	Soat hajmi	Maksimal ball (100%)	O'tish bali (55%)
VIII	Joriy № 1	4	11.25	6.8
	Joriy № 2	4	11.25	6.8
	Joriy № 3	4	11.25	6.8
	Joriy № 4	2	11.25	6.8
	Oraliq № 1	4	16	8,8
	Oraliq № 2	6	24	13,2
Jami (joriy va oraliq)		24	85	46
Jami (yakuniy)		–	15	8
<b>Jami</b>		<b>24</b>	<b>100</b>	<b>55</b>

### 3. Talabalar bilimini baholash mezonlari.

Qoniqarsiz (54% dan kam)		Qoniqarli (55-70%)		Yaxshi (71-85%)		A'lo (86-100%)	
Bal		Bal		Bal		Bal	
Min	Mak	Min	Mak	Min	Mak	Min	Mak
0	54	55	70	71	85	86	100

<b>Ball</b>	<b>Baho</b>	<b>Talabning bilim darajasi</b>
<b>86-100</b>	<b>A'lo</b>	Xulosa qila oladi, ijodiy fikrlaydi, mustaqil fikrlaydi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushunadi, yorqin aytib beradi, tassavurga ega
<b>71-85</b>	<b>Yaxshi</b>	Mustaqil fikrlaydi, amalda qo'llaydi, aytib bera oladi, tassavurga ega
<b>55-70</b>	<b>Qoniqarli</b>	Mohiyatini tushunadi, aytib bera oladi, tassavurga ega
<b>0-54</b>	<b>Qoniqarsiz</b>	Aniq tassavurga ega emas, bilmaydi, aytib bera olmaydi

### 15. Yakuniy nazorat savollari

1	Qadimgi davrga oid iqtisodiy atamalarning ma'no va mohiyati borasida nimalarni bilasiz?
2	Qadimgi davrga oid harbiy atamalarning ma'no va mohiyati borasida nimalarni bilasiz?
3	"Avesto" va boshqa diniy e'tiqodlar bilan bog'liq qanday tarixiy atamalarni bilasiz?
4	Qadimgi davrga oid siyosiy atamalarning ma'no va mohiyati borasida nimalarni bilasiz?
5	Qadimgi tarixning diniy-falsafiy atamalarini tarix fanini yoritishda qanday ahamiyatga ega?
6	Qadimgi tarixning ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan bog'liq atamalar tarix fanini yoritishda qanday ahamiyatga ega?
7	Islom dini va an'analari bilan bog'liq atamalarning o'zbek halqi tarixidagi o'rnini qay darajada edi?
8	Toxiriylar, Safforiylar davriga oid siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy atamalar nimalardan iborat?
9	O'rta asrlar davridagi davlat boshqaruvi bilan bog'liq atamalarning tarix fanini o'rganishdagi ahamiyatiga doir nimalar deya olasiz?
10	O'rta asrlar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy tizim bilan bog'liq atamalarning tarix fanini o'rganishdagi ahamiyatiga doir nimalar deya olasiz?
11	O'rta asrlar davridagi soliq tizimi bilan bog'liq atamalarning tarix fanini o'rganishdagi ahamiyatiga doir nimalar deya olasiz?
12	O'rta asrlar Yevropasida iqtisodiy mavzudagi atamalarning ahamiyati qay darajada?
13	O'rta asrlar Yevropasida harbiy mavzudagi atamalarning boshqa mamlakatlarga tarqalishi va ularning xalqaro atamalarga aylanib borishi borasida nimalar deya olasiz?
14	O'rta asrlar Yevropasida siyosiy mavzudagi atamalarning vujudga kelishi borasida nimalar deya olasiz?
15	Xonliklarning ma'muriy boshqaruv tizimi bilan bog'liq tarixiy atamalar o'zbek halqi tarixini o'rganishda qanday ahamiyatga ega?
16	Yangi va eng yangi davrda vujudga kelgan iqtisodiy atamalarning ahamiyati qay darajada?

17	Yangi va eng yangi davrda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy atamalarning ahamiyati qay darajada?
18	Diplomatiyaga oid tarixiy va zamonaviy atamalarning dunyo miqyosida keng tarqalishiga sabab nimada?
19	Mustaqillikning qo'lga kiritilishi va e'lon qilinishi to'g'risida nimalar deya olasiz?
20	Mustaqillik davrida tarixiy atamalarning tiklanishi borasida qanday ishlar amalgam oshirilmoqda?

Tarix fakul'teti Vatan tarixi kafedrası o`qituvchisi  
A.A. Sarimsoqovning "Tarixiy atamashunoslik" fanidan tayyorlagan o`quv-  
uslubiy majmuasiga

## **T A Q R I Z**

Ushbu o`quv-uslubiy majmua Tarix yo`nalishi 4- bosqich talabalariga "Tarixiy atamashunoslik" fanidan ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar olib borishga mo`ljallangan. Bunda tarixiy atamalarning ildizlari, turli jamiyat mamlakatlarda jamiyat va sivilizatsiyalar rivojining turlicha bosqichlarida jamiyati kishilik xayotining yangi yoki o`zgargan bo`lsa, shu mintaqa yoki mamlakatga xos tildagi tarixiy atamalar yoritilgan.

G'arb va SHarq mamlakatlari tarixi, ularni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xayotiga oid, qadimgi dunyo, o`rta asrlar, yangi va eng yangi tarixga oid hodisalarni izohlovchi atamalarni kelib chiqishini o`rgatish, shuningdek, fan yuzasidan tuzilgan test savollari, oraliq va yakuniy nazorat variantlari xam yoritib berilgan. Ushbu majmuada har bir mashg`ulot uchun topshiriq va ko`rsatmalar aks etgan. Ushbu o`quv-uslubiy majmuasi namunaviy o`quv dasturi asosida tayyorlangan. Uni amaliy va ma`ruza mashg`ulotlarini olib borishda foydalanishga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

"Jahon tarixi" kafedrası dotsenti,  
t.f.n. B.R. Isoqov

Tarix fakul'teti Vatan tarixi kafedrası o`qituvchisi

A.A. Sarimsoqovning "Tarixiy atamashunoslik" fanidan tayyorlagan o`quv-uslubiy majmuasiga

## **T A Q R I Z**

Ushbu o`quv-uslubiy majmua universitetning 5220200 - Tarix yo`nalishi 4-bosqich talabalariga "Tarixiy atamashunoslik" fanidan ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar olib borishga mo`ljallangan. Bunda tarixiy atamalarning ildizlari, turli jamiyat mamlakatlarda jamiyat va sivilizatsiyalar rivojining turlicha bosqichlarida jamiyati kishilik xayotining yangi yoki o`zgargan bo`lsa, shu mintaqa yoki mamlakatga xos tildagi tarixiy atamalar yoritilgan.

G'arb va SHarq mamlakatlari tarixi, ularni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xayotiga oid, qadimgi dunyo, o`rta asrlar, yangi va eng yangi tarixga oid hodisalarni izohlovchi atamalarni kelib chiqishini o`rgatish, shuningdek, fan yuzasidan tuzilgan test savollari, oraliq va yakuniy nazorat variantlari xam yoritib berilgan. Ushbu majmuada har bir mashg`ulot uchun topshiriq va ko`rsatmalar aks etgan. Ushbu o`quv-uslubiy majmuasi namunaviy o`quv dasturi asosida tayyorlangan. Uni amaliy va ma`ruza mashg`ulotlarini olib borishda foydalanishga tavsiya etaman.

Namangan muhandislik  
iqtisodiyot instituti  
katta o`qituvchisi:

t.f.n. M. Alixanov